



Vaisov
Azad Xasanovich

1977 - yilda Urganch shahrida tugʻilgan. 1994 - yilda Urganch shahridagi 21-son maktabni tugatgan. 1999 - yilda Al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti "O'zbek filologiyasi va tarix" fakultetining tarix mutaxasssligini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2007 - 2010 - yillarda Urganch davlat universiteti aspiranturasida tahsil olgan. 40 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, bir qator xalqaro va respublika anjumanlar ishtirokchisi, "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) A.X.Vaisov Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.



MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATI IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

A.X.Vaisov

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

MONOGRAFIYA



A.X.Vaisov

UDK: 94(575.171)"1991/2021"

BBK: 63.3(5O'zb-4Xor)"1191/2021"

V 17

Vaisov, A.X..

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar. [Matn] / A.X.Vaisov.- Urganch: Khwarezm travel, 2023. 152- b.

Ushbu monografiyada Xorazm viloyati misolida O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi tadqiq etilib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarning rivojlanish jarayonlari tarixiy nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Monografiya mustaqillik yillarida Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar va "Tarix" ta'limi yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, qayta tayyorlash kursi tinglovchilari va magistrantlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

D.B.Babajonova – tarix fanlari
doktori, professor

Taqrizchilar:

S.R.Davletov – tarix fanlari
doktori, professor
G.M.Xusainbekova – tarix
fanlari nomzodi, dotsent

Xorazm viloyati Pedagogika markazining 2023-yil 26-iyundagi 6-sonli ilmiy-metodik kengash yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© A.X.Vaisov, 2023.

ISBN: 978-9910-9747-8-6 © "Khwarezm travel" nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahonda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni tahlil etish tufayli mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayoni va ularning natijalarini chuqur o'rganish muhim hisoblanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida har bir davlat o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yib, taraqqiyot o'chog'i hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarga e'tibor qaratmoqda.

Dunyo miqyosida iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yo'lida zamonaviy innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish, bu sohalarda uchraydigan muammolar sabablarini o'rganish, iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy sohada o'zgarishlarni amalga oshirish borasida ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish yuzasidan qator tadqiqot muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mustaqillikning o'tgan yillari o'zbek xalqi taqdirida tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Amalga oshirilgan ulkan ishlar tufayli mamlakat qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga mos yangi xo'jalik tizimi va ishlab chiqarish munosabatlari shakllanib, islohotlar va yangilanish, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot masalalarini har tomonlama o'rganish ehtiyoji tug'ildi. Mamlakatda, shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm viloyatida mazkur sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni tarixiy jihatdan ilmiy tahlil qilgan holda xulosa berish tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish"¹ maqsadi qo'yilgan. Zero, "o'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi"², deb ta'kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev. Shu

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони/ <https://lex.uz/pdfs/5841063>.

²Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.—Тошкент:Ўзбекистон, 2021.—Б.288.

boisdan ham, mustaqillikning o'tgan yillarida Xorazm viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zgarishlarni haqqoniy o'rganish dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son va 2017-yil 24-maydagi "Xorazm viloyati sog'liqni saqlash muassasalarida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4949-son farmonlari va 2017-yil 17-martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qo'shimcha qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2843-son, 2018-yil 6-fevraldagi "Xorazm viloyatida tadbirkorlik sub'ektlariga davlat mulki obyektlarini sotish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3613-son, 2020-yil 17-avgustdagi "Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4819-son, 2021-yil 24-iyuldagi "Xorazm viloyatida quvvati 174 mvt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5195-son qarorlarida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA IQTISODIY RIVOJLANISH ODIMLARI

1.1. Xorazm viloyatidagi iqtisodiy holat va undagi o'zgarishlar.

Bugungi kunda O'zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan natijalarning negizida turgan asosiy omil, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish"¹dan iborat. Bu jarayonda "barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligini hisobga olish va yangi ish o'rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlashga alohida e'tiborni kuchaytirish zarur"². Mustaqillik yillarida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aholining hayot darajasi va sifatini sezilarli darajada yaxshilashni ta'minlaganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o'ynayotganini ko'rish mumkin.

Bu davr, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, demografiya vaziyati va ishsizlikning ko'payib borishi, ekologiya tangligi, xalqning ma'naviy jihatdan haqoratlanishi, og'ir ahvolni vujudga keltirgan asoratlarni bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa, taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalardagi mavjud muammolarni hal etishdan iborat muhim vazifalar to'planib qolayotgan vaziyat edi. Bu borada barcha viloyatlardagi kabi Xorazm viloyatida ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xalq manfaati va aholini kuchli himoyalashga oid ko'plab islohotlar olib borildi. Shu bois, respublika viloyatlari orasida o'ziga yarasha o'рни va salohiyati bo'lgan Xorazm viloyatining mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarni yaqin o'tmish bilan qiyosiy taqqoslagan

¹Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Toshkent Toshkent:O'qituvchi MU MCHJ, 2021.– Б.31.

²Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – Б.170.

holda o'rganish dolzarbdir. O'z tabiati, sahovatli tuprog'i, ko'hna tarixi va boy madaniyati, mana shu yerda har qanday qiyinchilik va sinovlarga bardosh berib, ona yurtiga sadoqat bilan yashayotgan, o'z kuchiga ishongan, matonatli odamlar yurti ekanini, samimiyluk, qanday achchiq bo'lmasin, haqiqatni ochiq aytish, mavjud vaziyatni haqqoniy ko'rsatish kabi xususiyatlar aynan shu Xorazmga mansubligini ta'kidlab, Prezident Sh.Mirziyoyev: "o'zining qadimiy tarixi mobaynida ko'p sinov va mashaqqatlardan o'tgan, hayotning ma'nosi, insonning qadr-qimmatini yaxshi anglaydigan Xorazm ahli"ning bunday fazilatlarini yuqori baholab: "butun xalqimiz qatorida go'zal va betakror Xorazm viloyati ahlining tinch, erkin va farovon hayotini ta'minlash, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirish yo'lida butun borlig'imni ayamasdan xizmat qilishni ...yuksak sharaf deb bilaman"¹, dedi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, mamlakat iqtisodiy tarmoqlari tizimida viloyatning tutgan o'rni katta bo'lib, mustaqillikning dastlabki, og'ir kechgan yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Viloyat aholisining tarixiy taraqqiyot yo'li, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar respublika xalqining bu boradagi barcha jihatlari bilan chambarchas bog'liq. Viloyat Quyi Amudaryo mintaqasining shimoliy qismi bo'lib, chegara nuqtasi Gurlan tumanidagi Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuranbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy nuqtasi esa, Tuproqqal'adan janubroqda joylashgan². Viloyat 1925-yil fevraldan 1938-yil yanvargacha Xorazm okrugi deb nomlangan va 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Respublikaning shimoliy-g'arbida, Amudaryo quyi oqimining chap sohilida joylashgan bo'lib, shimoliy va shimoliy-sharqdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, janubiy va janubiy-g'arbdan Turkmaniston, janubiy-sharqdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh.

¹Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.249, 271-272.

²Курбонниёзов Р. Хоразм географияси. – Урганч: Хоразм, 1996. – Б 4.

²Укрепление инклюзивной системы науки, технологий и инновации в Узбекистане. Анализ научно-технического и инновационного потенциала регионов Республики Узбекистан в рамках проекта ЮНЕСКО/ИБР. – Тошкент, 2020. – 92.

Yer maydoni 6,300 ming kv km.ni tashkil etadi. 2020 yilda aholisi 1 876 600 kishi. Maydoni bo'yicha respublikada 11, aholisi bo'yicha 10 o'rinda turadi¹. O'zbekiston hududining 1,4 foizini egallaydi². Viloyat markazi Urganch shahri. Aholining 21,9 foizi shaharda, asosiy qismi, ya'ni 78,1 foizi qishloqda yashaydi³.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi Xorazm tarixida ham yangi sahifa ochdi. Viloyat iqtisodiyotida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. 1991-yilga kelib, Xorazm viloyatida 1,5-2 ming korxona va tashkilot, 2 ta bank mavjud bo'lgan bo'lsa⁴, 2011-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, viloyat iqtisodiyotining real sektorida 25 ta yirik sanoat korxonalari, mikrofirma va kichik korxonalar esa 11634 tani⁵, 2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 78,5 mingtani tashkil etgan⁶.

Qisqa davrda bunday o'zgarishlar ro'y berishida viloyat mehnatkash xalqining munosib hissasi bor. Bozor munosabatlariga o'tish davrida viloyat iqtisodiyoti, uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari boshqa viloyatlardagi singari, inflyasiyani ham, xo'jalik aloqalari uzilishi tufayli ishlab chiqarishning pasayishini ham, ahvolning asta-sekinlik bilan mo'tadil holga kelishini va nihoyat, o'sishga yuz tutish davrini ham boshdan kechirdi. Binobarin, Xorazm viloyatining barcha tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat jiddiylashib, aholining ijtimoiy-turmush sharoitida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillik arafasida hukumatning o'zboshimchalik bilan olib borgan siyosati natijasida viloyat tabiiy resurslarining talanishi, sanoat korxonalaridagi kamchiliklar, paxta yakkahokimligining avj olishi tufayli ekologik vaziyat yanada og'irlashdi.

Mustaqil taraqqiyotning ilk bosqichida asosiy e'tibor markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini shakllantirish uchun sharoit

³Xorazm viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi. Xorazm viloyati pasporti. – Urganch. – 2001. – B.1.

⁴Xorazm viloyati hokimiyati joriy arxivi. www.xorazm.uz.

⁵Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. – Тошкент: Истиқлол, 2001. – Б.7-8.

⁶Бобожонов Б., Мадрахимов Қ. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 2-китоб. – Тошкент: YANGI NASHR, 2011. – Б.48.

⁷<https://m.kun.uz/news/2020/09/12/sanoat-korxonolari-va-tashkilotlari-soni-785-mingtani-tashkil-etdi>

yaratishga qaratilganligi borasida Prezident Sh.Mirziyoyevning "...iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, avvalo, iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog'liq"¹ligi haqidagi fikrlari, 1991-yil 21-dekabrda "Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 1996-yil 3-aprelda "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonlari va 2000-yil 25-mayda "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolati to'g'risida"gi qonun² doirasida qishloq xo'jaligi zamonaviy ishlab chiqarishini tashkil qilish hamda iqtisodiyotni ko'tarishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillikka qadar tabiiy xom ashyo va boyliklarni qazib olish hamda mahsulotlar ishlab chiqarish (masalan, oltin, uran va qimmatbaho noyob kimyoviy elementlar) faqat maxsus Ittifoq vazirligi vakolatiga tegishli bo'lgani sababli, ularni qazib olish hajmi ham, ishlab chiqarish miqdori ham respublikada hech kimga, hatto eng yuqori lavozimdagi rahbarga ham ma'lum bo'lmagan³. Mavjud mehnat va ishlab chiqarish taqsimotida respublika zimmasiga birinchi navbatda paxta xom ashyosi yetkazib berish majburiyati yuklatilgan, hayot uchun zarur mahsulotlarning aksariyat qismini esa Ittifoq fondidan olinar edi. Oqibatda, respublika aholisi og'ir iqtisodiy ahvolda hayot kechirishga majbur edi. Iste'mol buyumlari va oziq-ovqat markaz mintaqalaridan va import yo'li bilan ta'minlanib kelingan. O'zbekistonga olib kelingan va tashib ketilgan resurslarni hisobga olganda, bularning kamomadi 35 foizni tashkil etardi⁴.

Mustaqillikning dastlabki davrida mamlakat oldida, mavjud qiyinchilikdan tashqari, ko'plab yangi muammolar ham yuzaga qalqib chiqdi. Xorazm viloyatida ham xuddi shu ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid qator dolzarb muammolar o'z yechimini kutardi.

¹Шавкат Мирзиёев. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.25.

²"Тадбиркорлик фаолияти эркинликлари кафолати тўғрисида"ги қонун. 2000 йил 25 май. <http://www.lex.uz>

³Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б.5.

⁴Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент :Шарқ, 1999. – Б.16.

Dastlabki yillarda amalga oshirilgan islohotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish yo'li jonlandi. Mamlakat iqtisodiyotining tayanchi moddiy ishlab chiqarish sohasi hisoblanar ekan, uning taraqqiyot yo'lini nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan anglab olishda Prezident farmon va qarorlarining ahamiyatini alohida e'tirof etish joiz. Bu borada Prezident SH.Mirziyoyev "Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi", degan tamoyil va eng muhim ustuvor vazifani amalga oshirish strategik masala"¹, deb ta'kidlagan fikr o'rinli. Zero, ushbu belgilangan vazifalarda muhim strategik qoidalar tasdiqlanishi bilan islohotlarning asosiy mafkurasi va amalga oshirilish bosqichlari aks etgan².

Xorazm viloyati bo'yicha banklar va boshqa tashkilotlardan olingan xom ashyo uchun muddati o'tgan qarzdorlik 97,2 mln.so'mga teng bo'lgan. 1992-yilda 1991-yilning shu davriga nisbatan 58,2 mln.so'mga ko'p yoki 2,5 marta o'sgan. Viloyatda 306 ta korxona, tashkilot 646 mln.so'mga oborot mablag'laridan to'g'ri foydalanmagan. 20 ta korxona o'tgan 1991-yil 6,2 mln.so'm zarar bilan yakunlangan, 81 ta korxona 13,8 mln.so'm foyda olish rejasini bajarmagan, 58 ta korxonada 19,9 mln.so'mga oborot mablag'lari yetishmagan³. Mana shu muammolar o'z yechimini kutar edi.

Keyingi yillarda olib borilgan jadal sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 6 marta o'sdi⁴. Bu izchil rivojlanishda Xorazm viloyatida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi, jumladan, xorijiy sarmoya ishtirokida Urganch tumanida "Xorazm Nurtop", Hazoraspda "Unixo", "Gurlanteks" va boshqa bir qancha korxonalar bunyod etildi⁵. Ko'plab yangi qurilishlar, avtomobilsozlik zavodi va boshqa yangi quvvatlar ishga tushirildi, investitsiyalar jalb qilindi,

¹Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги бочқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Ўзбекистон:НМИУ, 2017. – Б.5.

²Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б.19.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд, 8-варақ.

⁴Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги бочқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Ўзбекистон:НМИУ, 2017. – Б.5.

⁵Бобожонов Б., Мадрахимов Қ. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 2-китоб. – Тошкент:YANGI NASHR, 2011. – Б.6.

minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasiga 1994-1996-yillarda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar miqdori 300895,0 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, shundan Xorazm viloyatiga ushbu miqdorning 2129,4 ming AQSh dollari jalb qilindi¹.

Xorazm viloyati o‘ziga xos tabiiy iqlim, geografik sharoitga ega bo‘lgan mintaqa hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega. Xorazm viloyatida o‘ziga xos muammolarga qaramay, viloyat xo‘jaliklari paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yaxshi hosil olishga erishdi. Respublika hududiy mehnat taqsimotida Xorazm viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatiga, qishloq xo‘jaligida esa paxta va sholi yetishtirishga ixtisoslashgan². Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida viloyat sanoat korxonalari, qator zavod va fabrikalar elektr energiyasiga sarflanadigan harajatlarning oshib borishi munosabati bilan elektrni tejash yo‘llarini izlab topishdi. Bunday korxonalar hisobiga 1993-yilga qadar Gurlan paxta tozalash zavodida 100 kilovatt quvvat beradigan o‘nlab elektr motorlaridan foydalanib kelingan. 1993-yilda bu motorlar 55-70 kilovattli motorlar bilan almashtirildi. Umuman, qisqa muddatda viloyat iqtisodiy hayotida, jumladan, paxta tozalash sanoatida jiddiy ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Iqtisodiyotning tayanchi moddiy ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Viloyat iqtisodiy hayotidagi islohotlar natijasida, ko‘plab yangi qurilishlar, yangi quvvatlar, sanoat korxonalari ishga tushirildi, investitsiyalar jalb qilindi, ishchi o‘rinlar yaratildi, yangi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Viloyatda o‘sinh 1996-yilda 1995-yilga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 102,9 foizni, xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish 134,3 foizni tashkil qildi³.

1995-yili O‘zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hisobidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 6204,9 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shuning 68,1 mln. so‘mlik miqdori Xorazm viloyati sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan. Bu respublikada ishlab chiqarilgan

¹ЎЗМА, М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 84-варақ. Объем экспорта товаров по предприятиям с иностранными инвестициями РУ по областям за период 1994-1996 гг.

²Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.—Тошкент, 2014. — Б. 339.

³Хоразм вилояти Статистика бошқармаси жорий архиви.1991-2000 йиллар тўплами. —Урганч, 2000. — Б.3.

mahsulotning 1,1 foiziga teng¹. 1996-yili Xorazm viloyatiga kiritilgan chet el investitsiyalari hajmi 384,8 ming so‘m miqdorida oziq-ovqat, 41,1 ming so‘m miqdorida eksport va 493,8 ming so‘m miqdorida importni tashkil etgan bo‘lsa, import va eksport saldosi – 452,7 ming so‘mni tashkil etdi².

1999-yilga kelib, birgina Urganch shahrining o‘zida 13 ta qo‘shma korxona faoliyat olib borganligi mustaqillik sharofati ekanligini ko‘rsatadi³. Misol uchun, 1992-yil 20-fevralda viloyat yurak qon-tomir kasalliklari dispanseri, 1993-yil sentabrda viloyat sanoat-qurilish bankining yangi binosi foydalanishga topshirildi. 1994-yil may oyida Xorazm viloyatining Drujba shahridagi Avtomobil zavodida Germaniyaning mashhur “Mercedes-Bens” yuk mashinalari ishlab chiqarila boshladi. Shu yili avgust oyida Bog‘ot tumanida tibbiyot paxtasi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan O‘zbekiston-Rossiya-Buyuk Britaniya “Xiva”, 1995-yil 18-yanvarda Xivada “Xorazm-Mavera-Plast” O‘zbekiston-Turkiya qo‘shma korxonalari, 1995-yil dekabr oyida respublikada ikkinchi bo‘lib podshipnik korxonasi ish boshladi. 1997-yil aprelida Gurlan tumanida Turkiyaning “Yazeks” firmasi bilan hamkorlikda “Gurlantekstil” paxta tolasini qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy to‘qimachilik majmuasi⁴, shu yili 20-oktabrda Urganchda Koka-Kola zavodi, 1998-yil sentabrda mamlakatda eng yirik hisoblangan, sutkasiga 3 ming tonna qand lavlagini qayta ishlaydigan, yiliga 45 ming tonna shakar ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan Hazorasp shakar zavodi ishga tushirildi. 1999-yil iyun oyida Urganch shahrida xalqaro aeroportning yangi binosi ishga tushirildi. Ayni paytda, shu yerda poyafzal ishlab chiqaruvchi O‘zbekiston-Italiya “Darital” qo‘shma korxonasi, 1999-yil oktabrida “Xonqa-don” hissadorlik jamiyati qoshida mevalardan turli eksportbop sharbatlar ishlab chiqarish korxonasi ochildi. Shu yili dekabrda Urganch shahrida “Xorazm-Feruz” HJ bazasida chet el texnologiyasiga asoslangan tikuvchilik bo‘yicha “Bizintrud” MUJ

¹ЎзМА, М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд. 85-варақ.

²ЎзМА, М-44-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд. 86-варақ.

³Бойжонов И. Хумо қўнган шаҳар. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б. 53.

⁴Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б.160.

korxonasi ishga tushdi. 2000-yil avgust oyida Urganch tumani G‘aybu qishlog‘ida zamonaviy Mini sut zavodi va iyun-noyabr oylarida “Bog‘ot-don” hissadorlik jamiyati qoshida mevalardan turli xil shifobaxsh sharbat ishlab chiqaruvchi korxona faoliyat ko‘rsata boshladi¹.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning regional xususiyatlarini hisobga olgan holda, yuqori samarali sanoat va ishlab chiqarish tizimini shakllantirish hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xorazm viloyati aholisi erishgan muvaffaqiyatlarda respublika hukumatining viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotganligi asosiy omil bo‘ldi. 1999-yilning 26-martida bo‘lib o‘tgan Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida viloyat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish, uning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan dastur qabul qilindi. Unda amalga oshiriladigan ko‘plab qurilishlar, yangi ochiladigan korxonalar, rekonstruksiya bo‘yicha talaygina rejalar o‘z aksini topgan edi. Dasturda, avvalo bozor iqtisodiyoti sharoiti qonun-qoidalarini puxta o‘zlashtirish, nafaqat korxona va tashkilotlar, jamoa xo‘jaliklari, balki har bir oila, har bir shaxsni bozor sharoitida yashash va ishlashga, boqimandalik kayfiyatiga chek qo‘yishga, o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlashga, berilayotgan huquq va erkinliklar asosida o‘z shaxsini namoyon qilishga o‘rgatish, qishloq xo‘jaligida dehqon va fermer xo‘jaliklarini tuzish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, o‘rta va kichik biznesni rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari ochish, aholini uy-joy bilan, tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta‘minlash, sog‘liqni saqlash muassasalari, sport inshootlari, umumta‘lim maktablari, savdo va maishiy xizmat masalalariga e‘tibor qaratish kabilar ko‘zda tutilgan edi. Umuman olganda, ushbu dasturning amalga oshirilishi natijasida viloyatda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 189 foizga, sanoat

¹Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. – Тошкент: Истиқлол, 2001.– Б.154-173.

mahsuloti ishlab chiqarish 156, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 139 foizga oshishi nazarda tutilgan edi.

1999-yil 13-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “1999-2001-yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish Dasturi to‘g‘risida”gi 243-sonli qarori¹ qabul qilinganligi buning yaqqol misolidir. Mazkur qaror ham tom ma’noda Respublika hukumatining Xorazm viloyati istiqbolini belgilab beradigan katta g‘amxo‘rligi edi. Chunki qarorda Xorazm viloyatida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash, istiqbolsiz, iqtisodiy nochor sub’ektlarni tugatish, mehnatga layoqatli aholini, birinchi navbatda yoshlarni ish bilan ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishning yaqin muddatga belgilangan istiqbolli rejalari o‘z aksini topgan edi². Qarorda shuningdek, kelgusi 3 yil ichida viloyat iqtisodiga 274,8 mln. AQSh dollari va 23 mln. nemis markasi miqdorida chet el kapitali jalb qilish bo‘yicha 19 ta investitsion taklif ko‘zda tutilgan bo‘lsa, shunga muvofiq 2005-yilga qadar Xorazm viloyatining eksport salohiyatini oshirish dasturi ishlab chiqildi. Natijada, 2001 yilga kelib, 34 ta qo‘shma korxona ro‘yxatga olingan va ularning 26 tasi o‘z faoliyatini ko‘rsatayotgan edi. Qo‘shma korxonalarning 8 tasi yirik va o‘rta korxonalar bo‘lib, ular tomonidan 2000-yilda 472,3 ming AQSh dollariga teng miqdorda mahsulot eksport qilindi, import ulushi 96,9 ming AQSh dollarini tashkil etdi³.

Mazkur hujjat e’lon qilingach, ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish va islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamdagi ishlarni olib borish hamda sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligi

¹1999 йил 13 майдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 243-сонли қарори/
<https://lex.uz/docs/1559245/> Қишлоқ ҳақиқати, 1999 йил 14 май.

²Ўтамов Ж., Курбонов Р. Фермер хўжаликларини ташкил қилишда Хоразм тажрибаси. – Тошкент: Ҳаёт ГВГ МЧЖ, 2001. –Б. 36.

³Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида.–Тошкент:Истиқлол, 2001.–Б.65.

korxonalarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash, istiqbolsiz, iqtisodiy nochor ishlovchi xo‘jalik sub’ektlarini tugatish, aholini ish bilan ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratildi.

Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanishi ko‘p jihatdan agroiqlimiy va mehnat resurslariga, suv zahiralariga, Orolbo‘yi mintaqasi ekologik muammolarini hal qilishga hamda qo‘shni hududlar bilan iqtisodiy integratsiya qilishga bog‘lik¹. 2000-yilga kelib, Xorazm viloyatida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirila boshladi. Ko‘plab yangi qurilish va quvvatlar ishga tushirildi, investitsiyalar jalb qilindi, ish o‘rinlari yaratildi. Xiva shahrida paxta tozalash, yog‘-moy, g‘isht zavodlari, gilam to‘qish, tikuvchilik, sovg‘a va badiiy buyumlar fabrikalari kabi korxonalar bunyod etildi². Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-dekabrda “Xiva karpet” O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 518-son qarori³ bilan Xiva shahrida “Xiva gilami” aksiyadorlik jamiyati tomonidan Germaniyaning “Geko GmbH Fertribsgezellshaft” va “Promateks Industrieanlagen GmbH” firmalari bilan birgalikda yiliga 2321,7 ming kv. metr jun gilamlar va yerga solinadigan paloslar ishlab chiqaradigan “Xiva karpet” O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi tashkil etildi.

Agar 2001-yilda iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida 468,3 ming kishi ish bilan band bo‘lgan bo‘lsa, 2011-yilga kelib bu raqam 606,7 ming kishiga yetdi, shu jumladan, sanoatda 36,8 mingdan 46,9 mingga, qishloq xo‘jaligida 186,5 mingdan 192,4 ming kishiga yetdi⁴.

Mustaqillikning dastlabki yillarida og‘ir sharoit bo‘lishiga qaramasdan, bozor munosabatlariga asoslangan xo‘jalik yuritishga o‘tish yo‘lida katta hajmdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratib berildi. Ammo, bu jarayonda ham ijtimoiy-

¹Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва жтимоий географияси.—Тошкент, 2014. — Б. 337.

²Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. — Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2002. — Б.151.

³Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хива кarpет” Ўзбекистон — Германия қўшма корхонаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 518-сон қарори/<https://lex.uz/uz/docs/1553563 ONDATE2>

⁴Бобожонов Б., Мадрахимов Қ. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 2-китоб. — Тошкент: YANGI NASHR, 2011.— Б.117.

iqtisodiy muammolarga duch kelinganligini ta'kidlash joiz. Viloyatda mustaqillikka qadar mehnat resurslarining asosiy qismi ijtimoiy ishlab chiqarishda band emas edi¹. Sanoat tarmoqlarining innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanmaganligi aholining ish bilan bandligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Boshqa mintaqalardagi singari Xorazm viloyatida ham iqtisodiyot tarmoqlarini ishga tushirish ancha og'ir kechdi.

Xorazm viloyatida avtomobil va temir yo'llarining uzayishi va tarmoqlashuvi mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Aholini ish bilan ta'minlash, chet davlatlarga chiqish, mamlakatning tranzit rolini kengaytirdi. Mahalliy sanoatda, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida xususiylashtirishning amalga oshirilishi sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini, raqobat muhitini yaratish va xizmat ko'rsatish turlarining ko'payishiga olib keldi. Viloyatda tovar va xizmat ko'rsatish bozorining tarkibiy qismi bo'lgan Gurlan va Shovot dehqon bozorlarining iqtisodiy samaradorligi, ya'ni olingan foydaning harajatlarga nisbatan ko'rsatkichi 2008-yilda Gurlan dehqon bozorida 76,6 foizni, Shovot dehqon bozorida esa 78,8 foizni tashkil qilganidagi ustunlik savdo-sotiq, pullik xizmat va tadbirkorlik kabi omillarning ijobiy ta'siri natijasidir².

Xorazm viloyatida 2011-2016-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,6 barobar oshgan, unda sanoatning ulushi 25,5 foizga yetgan, jumladan, shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,5 barobar, iste'mol tovarlari 3,3 barobar, qurilish ishlari 1,8 barobar o'sgan³. Viloyatda 2019-yilda tadbirkorlik sub'ektlari soni 2018-yilga nisbatan 2 barobar oshib, 36901 taga yetgan bo'lsada, shundan 8210 ta, ya'ni 22,8 foiz tadbirkorlik sub'ekti faoliyati, jumladan, Urganch shahrida 744 ta, Xiva tumanida 362 ta, Xiva shahrida 346 ta, Yangiariq tumanida 222 ta, Qo'shko'pir tumanida 161 tasining faoliyati to'xtagan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-

¹Трудовые ресурсы СРК: пути решения проблемы // Советская Каракалпакия, 1991. – С.51.

²Худайберганов Д. Иқтисодийни ривожлантиришда товарлар ва хизматлар бозори самарадорлигини ошириш имкониятлари (Хоразм вилояти мисолида). Дисс.автореф.иқт.фан. номз. – Самарқанд, 2010. – Б.14.

³Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.250.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 94-йиғма жилд, 33-варак.

noyabrda “2019-2020-yillarda Xorazm viloyatining Xiva tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 901-son qarori qabul qilindi¹. Unda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash orqali ularning daromad va turmush darajasini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi. 2021-yil 22-sentabrda Prezident Sh.Mirziyoyevning Xiva shahriga tashrifi chog‘ida Xiva gilam fabrikasi faoliyati bilan tanishib, korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni va shou-rumni ko‘zdan kechirdi. Qisqa muddatda kombinatda 250 ta ish o‘rni yaratilgan edi. Bundan mamnun bo‘lgan Prezident mahsulot turlarini ko‘paytirish, boshqa tumanlarda ham shunday korxonalar tashkil etish yuzasidan topshiriqlar berdi. Natijada, viloyatning Urganch shahri, Bog‘ot, Gurlan, Xazorasp, Xonqa va Yangiariq tumanlarida ham zamonaviy korxonalar tashkil etishga kirishildi. Shuning hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2016 yildagi 46,6 foizdan 2021-yilda 64 foizga yetkazish ko‘zda tutildi².

Umuman olganda, 1991-2021-yillarda Xorazm viloyati iqtisodiyotida texnika yangiliklarini joriy etish natijasida keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Deyarli barcha korxonalarga eski jihozlar o‘rniga yangi texnika va texnologiyalar olib kelindi. Mustaqil taraqqiyot yillari davomida bu ishlarning barchasi mintaqa aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash va xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirish, mahsulot sifatini yaxshilashga erishish, og‘ir qo‘l mehnati sharoitida ishlayotgan sanoat korxonalarini hamda qishloq xo‘jaligini yangi zamonaviy texnika bilan jihozlash imkonini berdi. Shu bilan birga, viloyatning ekologik vaziyati og‘ir mintaqada joylashganligi,

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 2 ноябрдаги “[2019-2020 йилларда Хоразм вилоятининг Хива туманини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида](https://lex.uz/ru/docs/4579271)” 901-сон қарори//<https://lex.uz/ru/docs/4579271>.

²Шавкат Мирзиёев Хива гилам комбинати фаолияти билан танишди // <https://xs.uz> 22 Сентябрь, 2021.

markazdan uzoqligi, aholi va mehnat resurslarining o'sayotganligi, ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligining salmog'i yuqoriligi tovarlar va xizmatlar bozorining rivojlanishida bir qancha muammolarning ham mavjudligini ko'rsatdi.

1.2. Viloyat qishloq xo'jaligining barqaror o'sishi va rivojlanishida fermer xo'jaliklarining tutgan o'rni va roli.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo'jaligidagi ahvolni, ya'ni boshqaruvda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, mulkchilik va xo'jalik yuritishdagi kolxoz va sovxoz shakllarining, mahsulot ishlab chiqarish rejalarining davlat tomonidan belgilab berilishiga barham berish kerak edi. Chunki bu bozor munosabatlarini tashkil etishga halaqit berar edi. Aholi iste'mol qiladigan mahsulotlarning asosiy qismi chetdan keltirilardi. Ana shunday sharoitda ham respublika aholisining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, masalan go'sht, sut, tuxum iste'mol qilish miqdori belgilangan me'yorning 40-50 foizini tashkil qilgan¹. Shu bois, qishloq xo'jaligini butunlay diversifikatsiya qilish, paxta yakkahokimligiga barham berish, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda g'alla bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish vazifasi mujassam edi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1991-yil 29-noyabrdagi PF-295-son Farmoni³ bilan "O'zagroprombank"ga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga yordam fondidan ozuqa va qurilish materiallari sotib olish uchun kredit berish hamda tuman, qishloq (qo'rg'on) kengashlari, shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bu mablag'lardan maqsadli foydalanishlari⁴ uchun imkoniyat yaratib berilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish shaxsiy yordamchi xo'jaliklar zimmasiga

¹Фармонов Т. Фермер хўжаликларини ривожлантириш истиқболлари.—Тошкент:Янги аср авлоди, 2004.—Б.6.

²Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. — Ўзбекистон:НМИУ, 2011.—Б.42.

³<https://lex.uz/tu/docs/233867?ONDATE=29.11.1991%2000>.

⁴Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги (бундан кейин ЎЗР ҚСХВ) идоравий архиви, ЎЗР ҚСХВ нинг 1992 йилдаги № 1-50 буйруқлари йиғма жилди, 290-варақ.

yuklatilgan ekan, ularga tegishli yordam ko'rsatilib, qo'llab-quvvatlandi, yer maydonlari ajratildi. Natijada, xo'jaliklar soni 2 hissaga ko'payib, 3 mln.ga yetdi. Ularni yem-hashak, yosh qoramollar, ko'chatlar bilan ta'minlash ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi¹.

Qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilishning dastlabki davrida qo'lga kiritilgan eng muhim natija – shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlardan aholiga joy ajratib berishdan iborat bo'ldi. Biroq, barcha sohalardagi singari Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida ham kamchiliklar mavjud edi. 1991 yilning o'zidayoq 248 ta fermer(dehqon) xo'jaligi tashkil etilib, ularga 648 gektar yer, 2679 bosh yirik shoxli qoramol, 1294 ta sigir berildi². Biroq, hali viloyat qishloqlarida muammo va kamchiliklar o'z yechimini kutar edi. Viloyat hokimining 1992-yil 17-martda “Zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli davlat xo'jaliklari xamda boshqa davlat dehqonchilik korxonalarining mulkchilik shakllarini jamoa xo'jaliklariga va ijara shakliga aylantirish to'g'risida” qabul qilgan 48-son qarori³da muhokama qilindi. 1993-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishda dehqon (fermer) xo'jaliklarini tashkil etish ishlari talabga javob bermayotgani qattiq tanqid qilindi. Bunday fermer xo'jaliklariga qanday munosabat bildirilayotgani, fermerlik harakatining keng quloqch yoyishiga nimalar to'sqinlik qilayotgani, fermer xo'jaliklari qay tarzda qo'llab-quvvatlanayotgani tekshirilganda, Gurlan tumanida 27 ta fermer xo'jaligi mavjud ekanligi, ushbu xayrli ishga 3 yil to'lganiga qaramasdan, hali bu borada ijobiy siljish bo'lmaganligi qayd etildi. O'tgan davr ichida fermer xo'jaliklari soni goh ko'payib, goh pasayib turgan. Ayrimlari butkul tugatilgan. Tumandagi “Qoraqalpog'iston”, “Yangiobod” jamoa va “Guliston” davlat xo'jaliklarida esa fermer xo'jaliklari faoliyati qoniqarsiz, deb topilgan. Fermer xo'jaliklari tuzishni istovchilar soni ko'p, biroq yer yetishmasligi oqibatida bu sohada ijobiy siljish sodir etilmagan. Misol uchun, qoramog'ida 30 bosh qoramoli bo'lgan A.Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligi fermeri

¹Усмонов С., Додобоев.Ю. Фермер ва деҳқон хўжаликлари. Дарслик, 2-нашр. – Тошкент, 2002. – Б.10.

²Хоразм вилоят ҳокимияти архиви. 1150-фонд,7-рўйхат, 14-йиғма жилд. – 51-варақ.

³Хоразм вилоят ҳокимияти жорий архиви. 1150-фонд,7-рўйхат, 14-йиғма жилд.–5-варақ.

Y.Yoyilxonovga atigi 1,5 gektar yer ajratilgan. Oqibatda, o'n ikki bosh qoramolni sotishga majbur bo'lgan. Qishloqdagi har bir oilaga taqsimlaganda, o'rtacha 1,3-1,2 gektardan to'g'ri kelgani holda, fermerlar uchun kam yer ajratilgan, sababi, fermerlarga ajratiladigan yer maydoni hisoblab chiqilmagan va yer fondi tuzilmaganligi edi. Afsuski, bunday holat faqat Gurlanda emas, balki boshqa tumanlarda ham mavjud edi¹.

1994-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishda, shuningdek, 1993-yil 15-martdagi 137-son qarorda belgilangan vazifalarga binoan Xorazm viloyatida 71 ta xo'jalikda 87 ta chorvachilik bilan shug'ullanadigan hissadorlik jamiyatlari tashkil qilinib, shundan 74 tasi qoramolchilik, 1 tasi qo'ychilik, 1 tasi cho'chqachilik, 15 tasi parrandachilik bilan shug'ullana boshladi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-martdagi 96-son qarori bilan 26 ta chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilmagan jamoa xo'jaligining qoramolchilik fermalari tanlovi "kim-oshdi" savdosi orqali sotildi².

Islohotlar barcha viloyatlar qatori Xorazm viloyatida ham jadallik bilan amalga oshirildi. Natijada bu yerda azaldan paxta, kanop, sholi, qovun, beda, bug'doy kabi yetishtirilgan mahsulotlarning shuhrati yanada ortdi. Xorazm viloyati aholisining 75,4 foizi qishloq xo'jaligida band edi. Viloyatdagi nisbatan qulay tabiiy sharoit, geografik o'rni, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu yerda qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari mavjud, lekin ularning asosini paxtachilik, chorvachilik, donli ekinlar tashkil etadi. Yer maydoni kichik bo'lsada (6,3 ming kv.m., shundan ekin maydonlari 455,1 ming ga), respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'ziga xos salmoqli o'rni bor. Xususan, 1992-yilda viloyat don hosilining 6,1 foizini, paxtaning 6,7 foizini, kartoshkaning 3,3 foizini yetkazib bergan. 1996-yilga kelib bu ko'rsatkichlar biroz o'sgan: donning—7,4, paxtaning 9,1 va kartoshka hosilining 5,5 foizi voha dehqonlarining mehnati evaziga

¹Ишлар қалай, фермерлар? Бу ҳақда республика Вазирлар Маҳкамаси йиғилишида айтилган эди//”Хоразм ҳақиқати”, 1993 йил 21 сентябрь.

²Хоразм вилояти давлат архиви.818-фонд, 1-рўйхат, 47-йиғма жилд. 5-варак.

yetishtirilgan¹.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligida tub islohotlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Respublika hukumati tarmoqda asosiy boylik hisoblangan yerni haqiqiy egalariга topshirish bilan undan yanada samarali foydalanishga harakat qildi. Shu tufayli qishloqda fermer xo‘jaliklar soni, biriktirib qo‘yilgan yer maydonlari hajmi ortib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari qishloqda yangi huquqiy munosabatlarni joriy etish, ko‘p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish, fermerlik va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish imkoniyatini yaratdi². Qisqa vaqtda 1066 ta sovxoz xo‘jaligi tugatilib, ular negizida jamoa xo‘jaliklari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan Xorazm viloyatida qishloq aholisiga 0,06 ga yer maydonlari qo‘shimcha tomorqa va 0,04 ga yerlar uy-joy qurish uchun kim oshdi savdosi asosida ajratiladigan bo‘ldi³. Natijada, qishloq aholisining soni o‘sib borayotgan va uy-joy qurishga muhtoj hamda yerdan olinadigan qo‘shimcha daromad hisobiga o‘z oilaviy byudjetini biroz bo‘lsada mustahkamlashga erishgan mehnatkashlarning dehqonchilik ishlariga e‘tibori orta boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish tadbirlari haqida”gi qarori bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga turtki berdi. Unda viloyatlarda shakllangan demografik vaziyat, urf-odatlar va o‘ziga xos sharoitlarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligida davlat mulkchiligidan ishlab chiqarishning nodavlat shakllariga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, 700 dan ortiq davlat xo‘jaliklarining mulki va texnikasini mehnat jamoalariga tekin berish kabi chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgandi.

¹Қодиров А., Искандарова М., Нурмухамедова М. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида ижара ва ижара муносабатлари асосида хўжалик юртишнинг самарадорлигини ошириш йўллари. –Тошкент, 1999.–Б.64.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998 йил май-июнь, №5-6. –Б.10-11.

³“Хоразм ҳақиқати”, 1994 йил 26 ноябрь.

Aholi soni tobora ortib borayotgan bir sharoitda ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayib, ijtimoiy mehnat unumdorligi pasaydi¹. Asosan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan vohada moddiy-texnik baza past darajada edi.

Yerlarning ijara, pudrat, fermerlik shakllari va shartnoma asosida dehqonlarga berilishi natijasida bozor iqtisodiyotining mexanizmlari asta-sekin shakllandi. Bevosita mahsulot yetishtirish va uni qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlardan manfaatdor bo‘lgan mehnatkash xalqda mulk va yerga bo‘lgan javobgarlik hissi qayta uyg‘ona boshladi. Xorazmda ham qishloq ishlab chiqarishini yuritish mexanizmining mutlaqo yangi asoslari, qishloqqa berilgan texnika, yoqilg‘i, mineral o‘g‘itlar uchun o‘zaro hisob-kitobning yangi tizimi ishga tushirildi. Mahsulotlar ishlab chiqarishning ijtimoiy tarkibi tubdan o‘zgardi. Ularni sotib olishda shartnomaviy narxlar tizimi keng qo‘llanila boshlandi. Masalan, 1994-1996-yillarda viloyatdagi ijara usulida faoliyat yurita boshlagan qishloq sub’ektlari soni salkam 2 barobar o‘ydi. Ularning mehnat samarasi o‘laroq go‘sht mahsulotlari yetishtirish – 7,5, sut – 35,3, tuxum – 13,2, jun – 25, kartoshka – 36,8, poliz mahsulotlari – 18,2, meva–savzavot – 83,6 foizga ko‘paydi².

Respublikada agrar sohada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida mulk haqiqiy egasi qo‘liga o‘tib, mo‘l hosil yetishtirish uchun qulay sharoitlar yaratila boshlandi. Bu imkoniyatlar tufayli respublikada fermer xo‘jaliklari soni yil sayin ortib bordi. 1992-yilda ularning soni 10 mingta bo‘lgan bo‘lsa, 1994-yilda 13 mingni, 1996-yil 1-yanvarida 21 mingtani tashkil etgan. Jumladan, Xorazm viloyatida xo‘jaliklar soni 892 mingta, ajratilgan yerlar 3,8 ming gektar, sug‘oriladigan yer maydoni 4,9 ming gektarni tashkil etgan³. 1996-yil 16-martda viloyatdagi 40 dan ziyod davlat xo‘jaliklari mulkchilikning nodavlat shakllariga va 110 ta chorvachilik fermalari hissadorlik jamiyatlariga aylantirilganligi, 878 dehqon (fermer) xo‘jaliklari faoliyat

¹Xorazm tarixi. II-jild. – Urganch: Xorazm, 1997. – B.270.

²Қодирова., ИскандароваМ., НурмухамедоваМ. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида ижара ва ижара муносабатлари асосида хўжалик юритишнинг самарадорлигини ошириш йўллари. –Тошкент, 1999.–Б.8.

³Усмонов С., Додобоев.Ю. Фермер ва деҳқон хўжаликлари. Дарслик, 2-нашр. – Тошкент, 2002. – Б.14.

ko'rsatayotganligini qayd etildi¹. Tarmoqda mulk shakllari o'zgarib, butunlay yangi shirkat va dehqon-fermer xo'jaliklari paydo bo'ldi. Muttasil zarar ko'rib ishlayotgan, istiqbolsiz 13 xo'jalik tugatilib, ularning negizida 834 fermer xo'jaliklari barpo etildi. Sanatsiyaga tushgan 10 ta xo'jalik esa ikki yilda qaddini tiklab, iqtisodiy baquvvat xo'jaliklar qatoridan o'rin oldi. Xivada tumanidagi Beruniy nomli, Xonqa tumanidagi Oxunboboyev nomli, Gurlan tumanidagi "Qoraqalpog'iston" shirkat xo'jaliklari shular jumlasidandir².

1996-yilda Bog'ot tumanida viloyatdagi boshqa xo'jaliklarga nisbatan birinchi bo'lib kunjut o'simligini ekish yo'lga qo'yilgan. Markazida texnika-ta'mirlash ustaxonasi, madaniyat saroyi, o'rta maktab, qishloq vrachlik ambulatoriyasi, apteka, bolalar bog'chasi, konserva sexi, g'isht zavodi, hammom, sholi oqlash tegirmoni, ombor va boshqa madaniy va maishiy binolar, 10 ta kichik korxona bor. 2001-yilda qiymati 399 ming AQSh dollariga teng dastgohlar o'rnatilgan va soatiga 600 litr olma, o'rik, nok, sabzi kabi mahsulotlardan sharbat ishlab chiqaradigan mini-zavod ishga tushirilgan. Xo'jalik markazi gaz, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan ta'minlangan. Xo'jalikdagi ishlab chiqarish tajribasi keng ommalashtirilgan. Uzoq yillar davomida xo'jalikni "O'zbekiston Qahramoni" va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi" Masharip Quvoqov boshqargan³.

1997-yil 1-yanvar holatiga viloyatda 971 ta dehqon (fermer) xo'jaliklari mavjud bo'lib, ishlovchilar soni 1479 ta edi. 1996-yilda fermer xo'jaliklari jami 6 ming gektar maydonda dehqonchilik qildilar. Shu maydonning 0,5 ming gektariga bug'doy, 1,9 ming gektariga sholi, 1,1 gektariga paxta, 0,2 ming gektariga kartoshka, sabzavot, poliz va 2,2 ming gektariga ozuqa ekinlari ekilgan. Bu davrda viloyat bo'yicha dehqonchilikda 220 ta va chorvachilikka 658 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1997-yilning 1-yanvar holatiga dehqonchilikda 316 ta va chorvachilikda 650 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan⁴. Dehqon (fermer) xo'jaliklarida dehqonchilikda, chorvachilikda mahsuldorlik

¹Хоразм вилояти давлат архиви.818-фонд, 1-рўйхат, 47-йиғма жилд. 5-варак.

²Асрга татигулик муаззам йиллар//“Хоразм ҳақиқати”, 2001йил 1сентябрь.

³Матчонов Қ. Тўқайда юксалган бўстон. – Урганч. 2000. —Б. 88.

⁴Хоразм вилояти давлат архиви.818-фонд, 1-рўйхат, 47-йиғма жилд. 5-варак.

davlat yoki jamoa xo‘jaliklariga nisbatan yuqori bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Yerni asrab-avaylash undan samarali foydalanish har bir xorazmlik dehqonning kundalik ishiga aylangan edi. Paxta, kunjut, sholi, bug‘doy, poliz ekinlari, yetishtirish xorazmliklarning qadimiy kasb-kori bo‘lgan. Qishloqda bozor infratuzilmasining dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘la boshladi. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari - “Paxtabank”, “G‘allabank”, “Mevasabzavotbank”, “Tadbirkorbank”, “Turonbank”, “Zaminbank”, “Ipotekabank”lari tuzildi. Ushbu banklar viloyat fermer xo‘jaliklari va kichik korxona va firmalarga xizmat qilib keldi. Har bir fermer xo‘jaligi yuqori darajada ishni tashkil qilishi uchun, tadbirkorlarga, fermerlarga davlat banklaridan ma’lum bir garov evaziga kreditlar ajratila boshladi. Bunday imtiyozlardan foydalangan viloyat fermer xo‘jalik egalari, tadbirkorlar ishlarini samarali tashkil etdilar.

Xiva shahrining 2500 yillik to‘yiga tashrif buyurgan davlat rahbarlari Xorazmning o‘ziga xos og‘ir iqlim va tuproq sharoitini hisobga olib: “...ko‘hna Xorazm ahli zakovati va matonatiga qoyil qolmay bo‘lmaydi. ...Qoraqum sahrosi bilan yil o‘n ikki oy mardona olishib, har bir tomchi suvni gavhardek avaylab, mo‘l hosil yetishtirish har qanday dehqonning ham qo‘lidan kelavermaydi. Bunga faqatgina dehqonchilik ilmining piri bo‘lib ketgan xorazmlik mirishkorlar qodir... xorazmlik oddiy dehqonning har kunlik mehnati qahramonlik”¹, deb ta’kidlagan edi. Bu fikrni qo‘llab-quvvatlagan Prezident SH.Mirziyoyev: “Haqiqatan ham, yozi jazirama issiq, qishi qahraton sovuq bo‘ladigan, yerlari kuchli darajada sho‘rlangan bu hududda mardona mehnat qiladigan voha dehqon va fermerlarini bir emas, ikki marta qahramon, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”².

Yerni avaylab-asrash, undan samarali foydalanish xorazmliklar uchun tabiiy ehtiyoj, kundalik zaruratga aylangan. Ma’lumki, viloyat hududida 90-yillar oxirlarida kuchli suv tanqisligi-qurg‘oqchilik sodir bo‘ldi. Bunday sharoitda Respublika Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy

¹Каримов И.А. Хоразм мукаддас замин.—Урганч—Хива, 1998. —Б.12.

²Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мard ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — Б.252.

muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to'g'risida"¹gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qaror asosida viloyat xo'jaliklariga katta miqdorda moddiy yordam ko'rsatildi, qo'shimcha o'g'it texnika ajratildi, xorazmlik ko'pgina onalar va bolalar mamlakat markaziy oromgohlarida, sihatgohlarida bepul davolandilar.

1998-yil aprelida hukumat tomonidan "Yer kodeksi" va Sanatsiya qilish va bankrotlik" to'g'risida qonunlarning qabul qilinishi² respublikada fermer xo'jaliklari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Shuningdek, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini tugatish va ular negizida fermer xo'jaliklarini tashkil qilish to'g'risida ham huquqiy asos belgilandi. Shunga ko'ra, 1998-yilda Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi Ogahiy nomidagi xo'jalik tugatilib, uning negizida 98 ta mustaqil fermer xo'jaliklari tashkil etildi, ularga 2504 gektar yer maydoni taqsimlab berildi. Natijada, fermer xo'jaliklari iqtisodiy jihatdan ijobiy tomonga siljidi. Xorazmliklar azaldan ulkan dehqonchilik maktabiga va boy an'analariga ega ekanliklarini isbotlab, 1998-yilda g'alla yetishtirish bo'yicha erishgan yutuqlari uchun gazetada "Xorazm viloyati g'allakorlariga va barcha mehnatkashlariga" yo'llangan tabrik xatida "Sizlar metin irodangiz, dehqonchilik ilmingiz, yerga bo'lgan munosabatingiz, fidoyiligingiz va doimo yangilikka intilishingiz tufayli ana shunday natijaga erishdingiz. Har gektar yerdan 50 sentnerdan oshirib hosil oldingiz. Rejaga qo'shimcha ravishda davlatga yana o'n ming tonna g'alla topshirishga ahd qilganingizni mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligiga qo'shayotgan ulkan hissangiz"³, deyilgan edi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 13-maydagi qaroriga muvofiq, Xorazm viloyatida, 1999-yil dekabrdaqi qaroriga muvofiq zarar ko'rib ishlayotgan jamoa xo'jaliklari o'rnida, Xorazm viloyatida 9 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta va Sirdaryo viloyatida 3 ta jamoa

¹Асрга татигулик муаззам йиллар//“Хоразм ҳақиқати”, 2001йил 1сентябрь.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998 йил май-июнь, №5-6. – Б.10-101.

³Хоразм вилояти ғаллакорларига ва барча меҳнаткашларига//Қишлоқ ҳақиқати.1998 йил 23 июнь.

xo‘jaligi o‘rnida 476 ta fermer xo‘jaligi tashkil etildi¹. Natijada, 2000 yilning o‘zida respublikada 11,7 mingta fermer xo‘jaligi tashkil etilgdi².

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “1999-2001-yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi to‘g‘risida”gi qarorini har bir xorazmlik hukumatning viloyatning barcha mehnatkashlariga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligi, deb qabul qildi. Ushbu qaror asosida viloyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan dastur ishlab chiqdi. Unda viloyat sharoitida g‘oyat muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etgan ishsizlik muammosini xal qilish masalasi ham o‘rin olgan bo‘lib, shu asosda qishloqlarda fermerlik va shirkat xo‘jaliklari tuzilib, ko‘pgina odamlar ish o‘rinlari bilan ta‘minlandi.

Shuningdek, dasturda qishloq xo‘jaligida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan iqtisodiy islohotlarga keng o‘rin berilgan. Unda viloyatdagi mavjud 132 ta jamoa xo‘jaligidan 122 tasini shirkat xo‘jaligiga aylantirish belgilangan edi. Bunda qolgan 10 xo‘jalikning 2 tasi 1998-yilda shirkatlarga aylantirilgan, istiqbolsiz, zarar ko‘rib ishlayotgan 8 ta xo‘jalik dehqon va fermer xo‘jaliklariga aylantirildi³. 2001-yilga kelib, Respublika bo‘yicha tashkil etilgan jami 3428 ta fermer xo‘jaliklarining 258 tasi Xorazm viloyatida tashkil etildi⁴.

Xorazm viloyatini 1999-2001-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun 42,2 mlrd. so‘m va 247,9 mln. AQSh dollari ajratilgan. Shundan 9,1 mlrd.so‘mi 1999-yilda, 16,5 mlrd so‘mi 2000-yilda, 16,1 mlrd. so‘mi 2001 yilda va 306 mln. so‘mi 2002-2003-yillarda sarflanishi ko‘zda tutilgan edi⁵. Fermer xo‘jaliklari iqtisodiy islohotlar natijasida faoliyatlarini ancha kuchaytirdilar. Davlat tomonidan ko‘rsatilgan g‘amho‘rlik va madaddan ruhlangan fermerlar qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida samarali faoliyat olib bordilar. Jumladan, Xorazm viloyati g‘allakorlari 2001-yilda davlatga 40 ming

¹Фармонов Т. Фермер хўжалигини ривожлантириш истикболлари. – Тошкент:Янги аср авлоди, 2004. – Б.84.

²Ўз ҚСХВ идоравий архиви, 2001 йил хужжатлари ййғма жилди.

³Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.127.

⁴Қишлоқ хўжалик корхоналарини фермер хўжаликларига айлантириш тажрибалари. – Тошкент, 2002. –Б.7.

⁵Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.125.

tonnadan ziyod g'alla topshirib, shartnoma majburiyatlarini bajardilar. Davlatga 1850 tonna pilla sotilib, topshiriq to'la ado etildi. Paxtakorlar ham suv tanqisligi oqibatida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib, barakali hosil yetishtirishga muvaffaq bo'ldilar¹.

Viloyatda agrar sohadagi vaziyatning mustahkamlanib borishi bilan bir qatorda dastlabki davrda ijara-pudrat usulida mehnatni tashkil qilish borasida biroz muammolarning borligi, ayrim dehqonlar psixologiyasida hamon sovetlar davridagi loqaydlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqish kabi illatlar borligi ko'rindi. 90-yillar oxirlarida Xorazm viloyatida pudrat asosida yer olgan 120 ta oila a'zolarining sotsiologik so'rovlarga bergan javoblari tahlil etilganda, ularning 72 foizi o'z faoliyatida vujudga kelgan erkinlikdan qoniqishi, 23 foizi o'tish davrida o'z ish faoliyatida rahbarlar va mutaxassislarining ko'rsatmasiga muhtojligi, 75 foizi mehnatga haq to'lash tizimi to'la shakllanmaganligini ko'rsatsada, 100 foizi mehnat haqining adolatli va o'z vaqtida to'lanishi – ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini qayd etishgan².

Xorazm viloyati yerlari tarkibiy jihatdan sho'rxok hisoblanadi. Tuproqning 80 foizga yaqini sho'rlanish natijasida yerlarni ekish mavsumi oldidan yuvish ishlariga ketgan mablag'lardan tashqari sarflangan mehnat 30–35 foizni tashkil qiladi. Natijada, yerlarni ekishga hozirlash vaqtida dalalar 3-4 marta Amudaryo suvi bilan yuviladi va sizot suvlari “Davdon”, “Ozerniy” kabi yirik kollektorlar orqali Sariqamish ko'liga oqiziladi.

Bundan tashqari shamol erroziyasi viloyat qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Kuchli esgan shamol tufayli 2001-yil aprel-may oylarida havo haroratining birdan pasayib ketishi, haddan tashqari yog'ingarchilik ko'p bo'lishi, dehqonlar uchun og'ir sharoitni yuzaga keltirdi. Natijada, viloyatdagi 10,5 ming gektar paxta maydonlari zarar ko'rdi³.

Dehqonchilik uchun noqulay bo'ladigan yillar har 3-4 yilda bir

¹Асрга татигулик муаззам йиллар//“Хоразм ҳақиқати”, 2001йил 1сентябрь.

²Қодирова.А., ИскандароваМ., НурмухамедоваМ. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида ижара ва ижара муносабатлари асосида хўжалик юртишнинг самарадорлигини ошириш йўллари. –Тошкент, 1999.–Б.45.

³“Хоразм ҳақиқати”, 2001йил 10 ноябрь.

marta takrorlanib turadi. Umuman olganda, dehqonchilik uchun qulay keladigan yil kam bo'lgan. Ayrim yillari bahor qulay kelsa, kuz noqulay kelgan. Bahor paytlarida yog'in-sochinning ko'p bo'lishi ekinlarga katta zarar yetkazgan. Biroq, tabiat injiqliklarini tushunadigan dehqon uchun bular sabab bo'la olmasdi.

Viloyatning sug'oriladigan yerlarida yildan-yilga sho'rlanish darajasi kuchayishi kuzatildi. Natijada o'rtacha sho'rlangan dalalarda tuproq 3–4 marta yuvilsa, kuchli sho'rlangan joylarda 6-7 marta yuviladi. Viloyatda ekiladigan maydonlarning yarmidan ko'prog'i sho'rlangan yerlarga to'g'ri keladi. Kuchli sho'rlangan maydonlar 44 ming ga, o'rtacha sho'rlangan maydonlar 99 ming, kuchsiz sho'rlangan maydonlar 131 ming ga, ya'ni 48 foizni tashkil etadi¹.

Viloyat yerlarining sho'rlanishi va ularning meliorativ holatini yaxshilash masalalariga Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlarining e'tibori qaratildi. Akademiyaning yetakchi olimlaridan biri O'.Muhammadiyev ko'p yillik izlanishlari va u rahbarlik qilgan akademiya olimlari 2000-2002-yillarda olib borgan "Quyi Amudaryo tuproq sharoitida suvlarning sho'rlanishini tartibga solishda kollektor-drenaj tizimini boshqarish usularini ishlab chiqish" mavzusidagi tadqiqot ishlari yaxshi samara berdi².

Izlanishlar natijasida tuproq hosildorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lgan yer osti suvlarining ko'tarilish darajasini nazorat qilish, ularni zahkash va drenajlar yordamida yirik kollektorlarga tashlash, ayrim suv tanqisligi kuchaygan sharoitda sizot suvlardan ekinzorlarni sug'orishda foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga erishildi. Olimlar sug'oriladigan yerlarning holatini o'rganish, jamoa xo'jaliklari ariqlari va davlat kanallaridagi ish rejimini takomillashtirish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratdilar. Natijada, kollektor–drenaj tizimini boshqarish, yerlarni ekish uchun tayyorlash maqsadida yuvish vaqtida sho'rlanish darajasi past yer osti suvlaridan qisman foydalanish, ekish va urug'larni undirish vaqtida tuproq namini saqlash jarayonida sho'rlanish darajasini doimiy ravishda kuzatish va

¹Курбониев Р. Хоразм географияси.— Урганч:Хоразм, 1996. — Б.80.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-руйхат, 68-йиғма жилд, 27-варақ.

daryo suvi bilan uning pasayishini ta'minlash yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Quyi Amudaryo hududida daryoning sayozlanishi oqibatida yerlarning meliorativ holati yomonlashuvi, sug'orish tarmoqlarining esa ishdan chiqish holatlari kuchayib borganligi natijasida yerga qadalgan urug'larning vaqtida unib chiqishi, ularning parvarishi uchun zarur namlikning yetkazilishini murakkablashtirar edi. Buni chuqurroq o'rganish maqsadida Xiva tumanidagi "O'zbekiston" va "Feruz" nomidagi jamoa xo'jaligi sug'orish tarmoqlari va melioratsiya inshootlari holati tanlab olindi. 2001-yilning 1-oktabr holatiga "O'zbekiston" shirkat xo'jaligidagi kollektor-drenajlarning uzunligi 40,6 km., "Feruz" xo'jaligida esa 16,6 km. ekanligi aniqlandi. Ushbu tizimga tushadigan ochiq zahkashlarning uzunligi 76,4 va 22 km., yopiq drenajlarning uzunligi esa 18 va 15,0 km. ekanligi ma'lum bo'ldi. Har ikkala shirkat xo'jaligida ham tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun maxsus joylar tanlab olindi hamda u yerlarda 24 va 14 quduqchalar qazildi¹.

2000-yilda Respublika "Biznes-fondi"ning viloyat bo'limi orqali, dehqon va fermer xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash fondi tomonidan beriladigan kreditlar 84,6 mln. so'mni tashkil qiladi, shundan 55 mln. so'mi imtiyozli kreditni, 29 mln.so'mi ushbu xo'jaliklarga aylanma mablag' sifatida ajratilgan kreditorlarni tashkil etdi².

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun daryo suvlari yetishmay turgan paytda, jamoa xo'jaliklari uchun olingan suvning 40-50 foizi yerlarga ichki foydasiz yer osti suvlariga qo'shiladi va yer osti suvlarining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xorazm viloyati sharoitida foydasiz yer osti suvlariga qo'shilgan kanal suvlarini, infiltratsiya natijasida hosil bo'lgan yer osti suvlari bilan bir qatorda sun'iy qurilgan kollektor-drenaj tizimlari orqali chiqarib yuboriladi³.

¹Мухамадиев У. Улучшение водно-солевого баланса засоленных почв на базе управления режимов орошения и дренажа в условиях маловодья в низовьях реки Амударья// "Маъмун академияси ва тиббиёт" мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Урганч, 2005. –Б.68.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 68-йиғма жилд, 17-варақ.

³Жуманиёзов А. Заҳоб сатхининг шўрланиши, ғўзанинг ҳосилига таъсири. – Тошкент, 1996. – Б.55.

2000-yilga kelib, har bir jamoa, dehqon, fermer xo‘jaliklari va har bir oila o‘zi ishlatgan oqar suvlari uchun haq to‘lashni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari belgilandi. Xorazm viloyati “Agrosanoat” uyushmasi ma’lumotlari bo‘yicha, 1998-yildan limit asosida olingan har bir kubometr suv uchun 0,7 tiyin miqdorida haq to‘lash belgilangan. Bu o‘z navbatida suv resurslaridan oqilona, unumli va tejab-tergab foydalanishga olib keldi. 2000-2001-yillarda Quyi Amudaryo hududidagi ekologik muammo oqibatida ko‘rilgan umumiy iqtisodiy zarar 66,0 mln.AQSh dollarini tashkil qilgan¹.

Analiz uchun olingan suvni ishlab chiqarishga tadbiriq etish maqsadida “Suv tanqisligi sharoitida yerlarning sho‘rini yuvish va paxta urug‘i to‘la o‘sib chiqishini ta‘minlash” va “Yerlarning sho‘rini yuvish, ekinlarni sug‘orishda kollektor–drenaj suvlaridan foydalanish” mavzusida tayyorlangan tavsiyalari 2001-yilda viloyatdagi 210 ming gektar yerda amalda qo‘llanildi va iqtisodiy yutuq–1 mlrd. 775,9 mln. so‘mga teng bo‘ldi².

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-noyabrdagi qaroriga asosan dehqon va fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi “Maslahat markaz”lari va 2002-yil 15-fevraldagi “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyihasini amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Respublika dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi qoshida “Qishloq biznesi uchun maslahat xizmati” tashkil etildi. Mazkur xizmat tomonidan Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklariga berilgan yer maydonlari yuzasidan 2002-yil 1-choragida 338 ta fermer xo‘jaligi faoliyati monitoring qilindi, shundan tuman xokimliklariga 3 ta fermer xo‘jaligining yer maydonlarini qaytarib olish haqida, 5 ta fermer xo‘jaligining yer ijara shartnomasini bekor qilish haqida, 5 ta fermer yer

¹Алибекова.Эколого-географическиепроблемыЦентральнойАзии.– Самарканд,2010. – С.280.

²Мухамадиев У. Улучшение водно-солевого баланса засоленных почв на базе управления режимов орошения и дренажа в условиях маловодья в низовьях реки Амударья// “Маъмун академияси ва тиббиёт” мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Урганч, 2005. –Б.72.

maydonlari olib qo'yildi, 44 ta fermer xo'jaligiga qonuniy ravishda ish yuritmaganligi sababli jarima solingan¹.

2004-yilda 269 ta fermer xo'jaliklari tomonidan bug'doy bo'yicha shartnomalar 689 tonnaga, 5 ta shirkat xo'jaligi tomonidan 139 tonnaga bajarilmagan. Fermer xo'jaliklarining 3 yillik faoliyati tahlil etilganda, ekin yeridan samarasiz foydalanilgani uchun Bog'ot, Xazorasp, Qo'shko'pir, Gurlan tumanlarida shartnoma shartlarini bajarmagan. 18 ta fermer xo'jaligini (197,2 gektar) tugatish maqsadga muvofiq, deb topildi².

2004-yil aprelda Xorazm viloyat hokimligi qishloq xo'jaligini ilmiy asoslarda rivojlantirish, tarmoqqa ilg'or tajriba, fan yutuqlari, texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, rahbarlar malakasini oshirish maqsadida hokimiyat qoshida ilmiy-amaliy kengash tuzib, uning ish rejasi tasdiqladi. Natijada, paxta va g'allachilikda hosildorlikni 20-25 foizga oshirish bilan birga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda 15-20 foiz kam harajat qilingan³.

2004-2005-yillarda moliya va ta'minot sohalarini nisbatan samarali tashkil etish natijasida g'alla va paxtadan yuqori hosil olindi. 2002-yilda jami yetishtirilgan paxta xom ashyosining 29 foizi, g'allaning 27 foizi fermer xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006-yilga kelib paxta xom ashyosining 85 foizidan ortig'i hamda g'allaning 81 foizga yaqini fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan⁴. Viloyat tumanlarida fermer xo'jaliklariga servis xizmati ko'rsatuvchi shaxobcha va minibanklar tashkil qilinib, ular muhr va shtamplar hamda o'z hisob raqamlariga ega bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yildagi PF-3077-sonli, 2009-yildagi PF-3287-sonli, 2010-yildagi PF-3512-sonli fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari hajmlarini maqbullashtirish bo'yicha farmoyishlariga binoan so'nggi yillarda fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari hajmini yiriklashtirish natijasida ularning faoliyatlarida har tomonlama yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. 2009-yilga

¹ЎзР ҚХВ идоравий архиви, 2002 йил ҳужжатлари йиғма жилди.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 68-йиғма жилд, 78-варақ.

³ЎзР ҚХВ идоравий архиви, ЎзРҚСХВ коллегиясининг 2004 йилдаги 412-сонли баённомаси.

⁴Ўзбекистонда фермер хўжаликларини юритиш асослари. – Тошкент, 2007. –Б.10.

maqbullashtirishdan oldin fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydoni 11,4 gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘ratkich 2011-yilda 44,1gektardan to‘g‘ri keldi. Jumladan, paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydoni 90,4 gektarni tashkil qilgan. Bu esa fermer xo‘jaliklarini kelgusida yanada rivojlantirishga, yangi texnikalar sotib olishga imkoniyat yaratadi. 2011-yilga kelib, Xorazm viloyatida 4681 fermer xo‘jaligi foliyat ko‘rsatgan¹. 2011-yilda viloyatda paxtachilikda 8 ta tuman va 730 dan ortiq fermer xo‘jaliklari shartnomaviy majburiyatlarni bajarmagan va ular tomonidan 42 ming tonnadan ortiq paxta xom ashyosi yetkazib berilmagan. G‘allachilikda esa 321 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan shartnomaga nisbatan 6,8 ming tonna don yetkazib berilmagan².

2018-yilda viloyatda 276,7 ming gektar sug‘oriladigan maydon bo‘lib, uning 191,3 ming gektariga suv kanallar orqali yetib boradi. Yangibozor va Gurlan tumanlaridan tashqari, barcha hududni shu tizimga kiruvchi Toshsoqa, Shovot, Polvon-G‘ozovot, G‘ozovot kanallari suv bilan ta‘minlagan bo‘lsa, ular o‘tgan asrning 30-40-yillarida qazilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda ularda suv sathi pasayishi tufayli dalalarni sug‘orish imkoniyati cheklandi. Natijada, obihayot ekin maydonlariga uch yuzdan ortiq nasoslar yordamida chiqariladigan bo‘ldi. Bu esa fermer xo‘jaliklari uchun ortiqcha mehnat, sarf-xarajat qilish, pirovardida yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxi oshishiga, isrofgarchilik va yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga olib kelayotgan edi. Toshsoqa tizimi magistral sug‘orish kanallaridagi ana shu muammolarni hal etish va qayta tiklash loyihasining umumiy qiymati 145 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, shundan 90 mln. 370 ming dollari Islom taraqqiyot banki hissasiga to‘g‘ri keldi³.

Xorazm sharoitida dehqonchilik qilishning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bu yerda boshqa mintaqalarga nisbatan suv sarfi ko‘proq bo‘ladi. Boisi, viloyatda ekin maydonlarining 58,2 foizi kam, 30 foizio‘rtacha va 11,8 foizi kuchli darajada sho‘rlangan. Ekin ekishdan oldin 2-3 marta dalaning sho‘rini yuvishga to‘g‘ri keladi. Bu esa melioratsiya

¹ЎзР ҚХВ идоравий архиви, 2012 йил ҳужжатлари йиғма жилди.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 20-рўйхат, 35-йиғма жилд.—25-варақ.

³<https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tashrifidan-song-khorazmda-qandaj-ozgarishlar-kuzatildi>

tarmoqlarining soz holda ishlashini ta'minlash, ularda doimiy ravishda rekonstruksiya, tizimli ta'mirlash va tiklash ishlarini olib borishni taqozo etadi. Viloyatda 2013-2017-yillarda Davlat dasturi asosida 7688 km. uzunlikda, qiymati 151 mlrd.996 mln.so'mlik meliorativ tadbirlar o'tkazilib, 120 ming gektar maydonda yer osti suv sathi hamda sho'rlanish darajasini pasaytirishga erishilgan. 2018-yilda esa 27 ta loyiha bo'yicha 1795 km. uzunlikdagi meliorativ tarmoqlarda 46,3 mlrd.so'mlik rekonstruksiya, tizimli ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi¹.

Xorazm viloyatida 2017-2021-yillarda umumiy qiymati 118 mlrd.so'm bo'lgan 231 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan² bo'lsa, shular qatorida 2018-yilda Urganch tumanidagi "Elita chorva nasl" korxonasida meva-sabzavot sharbatlari tayyorlaydigan korxona tashkil etishga 1 mlrd.100 mln.so'm sarmoya kiritildi³.

Viloyatda fermer xo'jaliklariga har tomonlama yordam berish maqsadida foliyat ko'rsatib kelgan 115 ta suv iste'molchilari, 109 ta yoqilg'i-moylash materiallari, 92 mineral o'g'it tarqatish, 111 muqobil mashina traktor parklari (MMTP) va 178 ta zooveterinariya xizmati ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilgan bo'lib⁴, ular tomonidan fermer xo'jaliklariga namunali servis xizmatlari ko'rsatilgan.

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 18-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5995-son farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq respublikada Organic va Global G.A.P xalqaro standartlari talablariga muvofiq mahsulotlar yetishtirilmoqda⁵.

¹<https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tashrifidan-song-khorazmda-qandaj-ozgarishlar-kuzatildi>

²Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.253.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 94-йиғма жилд, 32-варак.

⁴Бобожонов Б., Қахрамонов М. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 2-китеб. – Тошкент: Yangi nashr, 2011. – Б.150.

⁵ЎзР ҚХВ идоравий архиви. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасида 2017-2020 йилларда амалга оширилган вазифалар бўйича маълумот, 2021 йил ҳужжатлари йиғма жилди.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida” gi PF-6159-sonli farmoni hamda 2021-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4975-sonli qarori tarixiy voqelik bo‘ldi. Unga ko‘ra, 2020-yilda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 135 ta loyiha bo‘yicha jami 1393 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, 25 ta patent olingan, 63 ta ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilib, xo‘jaliklarga yetkazib berilgan. Tizimdagi ilmiy-tadqiqot institutlarida 2020-yil yakuni bilan yangidan yaratilgan 7 ta g‘o‘za navi viloyatlarga tarqatildi va bu navlar istiqbolli deb topildi¹. Mazkur navlar bo‘yicha birlamchi urug‘chilik tizimi Xorazm viloyatida ham yo‘lga qo‘yildi. Yangidan yaratilgan 13 ta g‘o‘za navi, sabzavot ekinlarining inson salomatligi uchun qimmatli, vitaminlarga boy 7 ta navi va 2 ta duragaylari qo‘llanilmoqda².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevralda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5006-son qarorining ijrosini ta‘minlash hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlari va ekinlarini monitoring qilish haqida” Xorazm viloyati hokimining 2021-yil 15-aprelda 69-son farmoni qabul qilindi³.

Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir, Gurlan, Hazorasp, Shovot va Yangiariq tumanlari qishloq xo‘jaligining toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi boshqa ma‘muriy hududlaridan ancha past edi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich Qo‘shko‘pir tumanida ayanchli ahvolda bo‘lib, tuman aholisining bor-yo‘g‘i 37,2 foiz yoki 1/3 qismidan sal oshiqrog‘i toza ichimlik suvini iste‘mol qilishar edi. Gurlan tumanida 55,3 foiz, Hazoraspda 60,2, Shovotda 62,2, Yangiariqda esa 65,6 foiz aholi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlangan. Viloyat aholisining 30 foizga yaqini

¹Аграр тармоқа иктисодий салоҳиятини оширишда институционал ислохотлар ва аграр кластерларни ривожлантиришнинг ўрни: муаммо ва ечимлар мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 18 май 2021 йил//http://www.agriculture.uz/filesarchive/TDAU_Toplam_2021.pdf. – Б.5-6.

²Хоразмвилояти Статистика бошқармаси жорий ахиви. 2020-2021 йиллар тўплами. –Урганч, 2022. – Б.3.

³Хоразм вилояти ҳокимияти жорий архиви. 2021 йил январь -июнь ойларида Хоразм вилояти ҳокими қабул қилган фармойишлари тўплами. –Урганч, 2021. – Б.8.

tozalanmagan yer osti suvlarini iste'mol qilib kelgan¹. So'nggi yillarda viloyat markazlashgan suv ta'minoti tizimida ichimlik suvining qator sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi. Ichimlik suvining ta'm, hid, loyqalik, PH muhiti, ayrim inson organizmi uchun zararli bo'lgan tuz hosilalari me'yor darajasidan ancha yaxshilangan.

1.3. Xorazm viloyatida sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar.

Mamlakatimizning boshqa mintaqalariga qaraganda Xorazm viloyati hududi uncha katta bo'lmasada, uning iqtisodiy salohiyati ancha yuqori. Respublika hududiy mehnat taqsimotida, u o'zining intensiv qishloq xo'jaligi, yengil va oziq ovkat sanoati bilan ajralib turadi².

Mustaqillik yillarida viloyat sanoatida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi, yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi, yangi boshlangan mahsulot ishlab chiqarishd ham katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. 1991-yili sanoat ishlab chiqarish 1989-yilga nisbatan 2,8 foizga o'sdi. Qator korxonalarda sezilarli natijalarga erishildi. Mahalliy sanoat korxonalarida o'sish 22,9 foizni, tikuvchilik birlashmasida 9,2 foizni, don mahsulotlari boshqarmasida 7,8 foizni, poyafzal birlashmasida 1,7 baravarni tashkil etdi. Yengil sanoat korxonalarida "N" yangilik indeksi bilan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish yillik rejasi 2,4 baravarga oshirib bajarildi³. 1992-yilda sanoat, qurilish, transport va boshqa sohalarda siljishlar kuzatildi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi ortdi. Mahsulot ishlab chiqarish 57 million so'mga ko'paydi⁴. Urganch shahrida 30 ta sanoat korxonasi bo'lib, ularda 29 turdagi mahsulotlar tayyorlangan⁵.

Viloyatda sanoat mahsulotining hajmi 1993-yilda oldingi yilga nisbatan kamayish 1,0 foizga to'g'ri kelgan bo'lsa, Qo'shko'pir va Gurlan tumanlarida 18 ta korxonada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan keskin kamayib ketdi. Jumladan, mahsulot yetishtirishni Tuyamo'yin qurilish materiallari zavodi 52,3

¹Хамроев М. Хоразм вилояти ижтимоий экологияси ва аҳоли саломатлигининг географик хусусиятлари. География фанлари номз.дисс. автореф., 2009 – Б.14-15.

²Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. –Тошкент, 2014. – Б.335-336.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 6-йиғма жилд, 5-варақ.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд, 23-варақ.

⁵Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд, 19-варақ.

foizga, Xiva g'isht zavodi 39,4 foizga, Shovot g'isht zavodi 18,7 foizga, hatto Xiva sut zavodi 6,2 foizga kamaytirgan¹.

1991-1994-yillarda agrar vohani sanoati rivojlangan o'lkaga aylantirish bo'yicha ulkan ishlar qilindi. Bu davrda Xorazm viloyatida dunyoning rivojlangan davlatlari va tadbirkorlari bilan hamkorlikda qator qo'shma korxonalar tashkil etildi. Xorazm iqtisodiyoti, uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, boshqa viloyatlardagi singari, inflyasiya jarayonini ham, xo'jalik aloqalari uzilishi tufayli ishlab chiqarishning pasayishini ham, ahvolning asta-sekin mo'tadillashuvi va o'sishga yuz tutish davrini ham boshidan kechirishiga to'g'ri keldi. Drujba shahrida "Mercedes-Bens" yuk avtomashinalari yig'ila boshladi. Urganch pillakashlik fabrikasida ishga tushirilgan korxonada MDH davlatlarida birinchi bo'lib pombarxt va velyur gazmasi chiqarila boshladi. Urganch shahridagi mebelsozlik fabrikasida Germaniyaning "Mayer" firmasi bilan hamkorlikda tibbiyot to'shaklari ishlab chiqarila boshladi. Bog'ot tumanida Angliyaning "Veriman" firmasi bilan ko'chma korxona qurilib, tibbiyot tolasi ishlab chiqara boshladi². Bularning bariga og'ir mashaqqatlar evaziga, olib borilgan barcha sohalaridagi islohotlar natijasida erishildi.

1991-1995-yillarda Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, Xorazm viloyati hokimining 1992-1993-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish bo'yicha³ belgilagan vazifalariga muvofiq, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga kirishildi. Viloyat yengil sanoat tarmoqlaridan paxta tozalash sanoati, to'qimachilik, tikuvchilik, poyafzal, gilam, polos ishlab chiqarish uchun yalpi mahsulot yetkazib berishda yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlar tomonidan avtomobillar va traktorlar akkumulyatorlar, payvandlash elektrodleri, mebellar to'plamlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi. 1991-1999-yillarda quvvati VL-6-10kv bo'lgan 249 km, quvvati VL-0,4 kv bo'lgan 202 km elektr tarmoqlari, umumiy quvvati

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 18-iyfma jild, 55-varak.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 24-iyfma jild, 4-varak.

³Xorazm haqiqati, 1992 yil 7 iyul.

200,2 kv bo'lgan podstansiyalar ishga tushirildi¹. “Xorazm shakar” davlat korxonasi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi bilan Turkiyaning “Turk shakar”, “Yuksal inshoot” qo‘shma korxonasi o‘rtasida 1993-yil 25 mayda tuzilgan shartnoma²ga asosan Xorazm viloyati Hazorasp tumani hududida qurilib, 1998-yil 26-sentabrda ishga tushirilgan³. Bu davrga kelib, “Darital” qo‘shma korxonasida qisqa muddatda 150 ta ishchi o‘rni yaratilib, 230 mln.so‘mlik jahon andozalariga mos erkaklar poyafzali ishlab chiqarildi, Shundan 72 ming AQSh dollari miqdoridagi mahsulot eksport qilindi⁴.

O‘zbekistonga, jumladan Xorazm viloyatiga ko‘plab xorijiy sarmoyalar jalb qilinishi natijasida sanoatda birmuncha siljish ko‘zga tashlandi. 1994-1996-yillarda respublikaga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar miqdori 300895,0 ming AQSh dollarini tashkil etgan, shundan viloyatga 2129,4 ming AQSh dollari ajratilgan edi⁵. Ajratilgan xorijiy sarmoyalar viloyat sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mustaqillikning keyingi davrida O‘zbekiston iqtisodiyoti qariyb 6 marta o‘sdı. Unda sanoatning ulushi 14 foizdan 34 foizga ko‘tarildi⁶. 1996-yildan boshlab mamlakatda sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o‘sib bordi. Jumladan, Xorazm viloyati shu paytga qadar respublika sanoat ishlab chiqarishida keyingi o‘rinlarda turganiga qaramasdan, ko‘p tarmoqli sanoat, xususan elektroenergetika, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati yetakchi hisoblanadi. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda yengil sanoat – 50,5 foizni, oziq-ovqat sanoati – 15,6, un, don, yog‘ ishlab chiqarishda sanoati – 8,4, elektroenergiya va mashinasozlik sanoati – 19, qurilish materiallari sanoati – 5,0 va boshqa sanoat tarmoqlari – 2,5 foizni tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda, paxta

¹Бобожонов Б. Қ. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.57.

²Хоразм ҳақиқати, 1993 йил 26 май.

³Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.59.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 39-йиғма жилд, 10-11-варақлар.

⁵ЎзМА, М-20-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 84-варақ.

⁶Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги бочкичга кўтарамиз. 1-жилд. – Ўзбекистон:НМИУ, 2017. – Б.5.

tozalash sanoati ulushi – 60 foizni, tikuvchilik sanoati – 20 foizni, to‘qimachilik sanoati – 10 foizni, poyafzal – 8 foizni, gilam, polos ishlab chiqarish – 8 foizni tashkil qilgan¹.

1998-yil tashkil etilgan “Bizintrud” qo‘shma korxonasida 200 mln.so‘mik ish bajarilib, 200 ishchi o‘rni, “Xonqadon mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati qoshidagi qo‘shma korxonada meva sharbati ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, 55 ishchi o‘rni yaratildi².

Xorazm viloyatidagi yengil sanoat yalpi sanoat mahsulotlarining xajmi va qiymati bo‘yicha sanoat tarmoqlari ichida yetakchi o‘rinda edi. Yengil sanoat tarmoqlarida, viloyat sanoatida ishlovchilarning 40 foizga yaqini band edi. Ko‘pchilik sanoat korxonalari mavjud quvvatlardan chala foydalanish, eskicha tartibda, bozor talabini o‘rganmay mahsulot ishlab chiqarish, ularning assortimenti, sifati pastligi, ishchilarga ish haqlarini o‘z vaqtida to‘lamaslik, shartnoma rejalarini bajarmaslik hollari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, 1998-yil yakuniga ko‘ra, 22 ta korxona ishlab chiqarish hajmini 4 mlrd.103 mln.so‘mga, 22 ta korxona xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarishni 4 mlrd.461 mln.so‘mga, 15 ta korxona mehnat unumdorligini 3 mlrd.451 mln.so‘mga pasaytirdilar. Viloyat sanoatida 1998-yilda 20831 ishchi ishlagan bo‘lsa, 1999-yilda 18800 ishchi ishladi, ishchi o‘rinlari 2531 taga qisqartirildi³.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 13-may 243-son qaroriga muvofiq viloyatda chet el investorlari ishtirokida 19 ta yirik qo‘shma korxona, 100 dan ortiq har xil mulk shaklidagi korxonalar barpo qilinishi va 20 mingdan ortiq ishchi o‘rni ochishi ko‘zda tutilgan edi. Mazkur qarorni bajarish borasida astoydil harakat qilindi. Lekin ko‘pgina tumanlarda dasturga kirgan loyihalarni amalga oshirishga yetarli ahamiyat qaratilmadi. Jumladan, Yangibozor tumanidagi “Voha” aksiyadorlik jamiyatida Italiyaning “Novoleyzina injiniring” kompaniyasi hamkorligida to‘qimachilik kompleksi barpo qilishga, Urganch tumanida Turkiyaning “Nurtop” firmasi bilan hamkorlikda “Xorazm-Nurtop” qo‘shma korxonasi qurilishini nihoyalashga,

¹Курбониезов Р. Хоразм географияси. – Урганч: “Хоразм”, 1997. – Б.65–69.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 39-йиғма жилд, 11-варақ.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 39-йиғма жилд, 11-12-варақлар.

“Shodlik” aksiyadorlik jamiyatida vafli ishlab yachiqarishni yo‘lga qo‘yishga, Bog‘ot to‘quvchilik fabrikasini qayta jihozlash va boshqa qator loyihalarni amalga oshirishga yetarli e‘tibor qaratilmadi¹.

Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasida 12 ta plug, 47 ta seyalka bir yildan ortiq vaqt o‘tsa ham, sotilmasdan turib qoldi. “O‘t o‘rish mashinalari zavodi”da 1998-yil 1-dekabriga 929 ta o‘t o‘rish mashinasi sotilmasdan turgan, qoldiq soni bir yil davomida 18 taga kamaygan, xolos. Zavodda seyalka qoldig‘i 1998-yil 1-dekabriga 41 ta bo‘lsa, 1999-yil 1-dekabriga 42 tani tashkil qilgan².

Korxonada ishchilarning dunyoqarashi, ishga munosabati o‘zgarib, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara boshladilar. Respublika “Biznes-fondi” viloyat boshqarmasining qo‘llab-quvvatlash va yordami tufayli binolarning bo‘sh turgan joylarida 1998-yilning oxirida “Bizintrud” ma‘muriyati cheklangan jamiyat tashkil etilib, Germaniya “Pfaff Zinger” firmasining tikuv dastgohlari o‘rnatildi va 2000-yilning yanvar oyida 100 nafar ayollar ham ish bilan ta‘minlandi. Jamiyatda har yili 80 mln. so‘mlik zamonaviy, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilib, ularni viloyatning barcha tumanlarda ochilgan firma do‘konlari orqali aholiga sotish ishlari tashkil qilindi³.

Xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish maqsadida reja asosida 2001-yil 3 ta qo‘shma korxona tuzildi. Ularda eksportga mo‘ljallangan ip kalava, trikotaj polotno, o‘t o‘rish mashinalarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. 2001-yil korxona mahsulotlarini Toshkentda, respublika viloyatlari va MDX davlatlarida sotish ustida ish olib borildi. Rossiyalik tadbirkorlari bilan hamkorlikda Barnaul shahrida savdo uyi ochildi va 20 mln. so‘mlik yoki 60 ming AQSh dollarilik sifatli trikotaj mollari, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimi eksport qilindi. Viloyatning 33 ta ishlab chiqarish korxonalari ta‘sischiligida Moskva shahrida “Xorazm-Rus” savdo uyi tashkil qilindi⁴.

Xiva tumanida tadbirkorlik va ishbilarmonlikka alohida e‘tibor

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-rўyxat, 39-йиғма жилд, 13-14-варақлар.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-rўyxat, 39-йиғма жилд, 15-16-варақлар.

³Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-rўyxat, 39-йиғма жилд, 29-варақ.

⁴Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-rўyxat, 55-йиғма жилд, 22-варақ.

berilganligi sababli, 2001-yilda 1400 tadan ortiq kichik va xususiy korxonalar va fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning 18 nafariga 17 mln.so'm kredit ajratildi. Amalga oshirilgan tadbirlar samarasi o'laroq, xalq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotning 21 foizi, turli xizmatlarning 21 foizi, asosiy fondlarning 20 foizi tadbirkorlar faoliyatiga to'g'ri keldi¹.

2002-yilda viloyat yalpi ichki mahsuloti 2,9 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 4,9 foizga, xalq iste'mol mollari 2 foizga ko'paydi. Viloyat iqtisodiyotiga qariyb 41 mln. AQSh dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etildi. 7 ta qo'shma korxona tuzildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ikki martadan ortiq o'sdi². 2002-yil 1-yanvarga viloyatda 34 ta qo'shma korxona ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 28 tasi faoliyat olib borgan. Kichik biznesga kiritilgan 25 ta qo'shma korxonadan 19 tasi faoliyat ko'rsatgan. Lekin "Darital", "Semurg'-San-Te", "Meva" qo'shma korxonalarida biznes-rejalarda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarga erishilmadi³.

Xorazm viloyatida sanoatni taraqqiy qildirish uchun barcha imkoniyatlar yaratib kelindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 11-iyundagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga binoan amalga oshirilgan ishlarni Xivada tumani misolida ko'rish mumkin. Tumandagi 61 korxona hissadorlik jamiyatiga aylantirildi va 629 ta korxona xususiylashtirildi. Natijada, sanoat mahsulotlarini 100 foiz nodavlat sektorida ishlab chiqarishga erishildi. Bu holat esa xususiy mulkning ulushi ortib borishiga, jamiyatda mulkdorlarning ko'pchilikni tashkil etishiga, ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlik oshib borishiga imkon yaratdi.

2002-yil iyunda Urganch shahrida "O'zbekiston Respublikasi xududlarini rivojlantirishga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish" mavzusida

¹Хива шаҳар ҳокимлиги ижтимоий масалалар бўйича ҳисоботи (2001).

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 63-йиғма жилд, 17-18-варақлар.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 55-йиғма жилд, 22-варақ.

xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda xorijiy davlatlardagi 110 yirik bank, moliya kompaniyalari, firmalarning vakillari ishtirok etib, viloyatda qo‘shma korxonalar tashkil qilish borasida 28 ta bitim ham imzolandi. Bu kabi tadbirlar viloyat sanoatini bundan ham rivoj topishiga zamin yaratdi.

Xorazm viloyati o‘z aholisini moy bilan to‘la ta‘minlay oladi va tashqariga eksport qiladi. Urganch yog‘ ekstratsiya zavodida paxtadan tashqari soyadan ham yog‘ ishlab chiqaradi. Yog‘ ekstratsiya zavodi viloyatni ta‘minlay olish darajasida kunjara, sovun, sheluxa ham ishlab chiqaradi. Viloyatdagi bir qancha xo‘jaliklarda va xususiy korxonalarda kunji asosida juvozlarda moy ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Urganch, Xiva shaharlarida sut–yog‘ zavodlari yangi texnologiya bilan jihozlangan. Sut-yog‘ zavodlarida sutni qayta ishlash asosida sariyog‘, qaymoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ilmiy asoslangan ma‘lumotlar asosida viloyatda jon boshiga o‘rtacha 400 kg. atrofida sut mahsulotlari talab etiladi. Bu talabni qondirish 50-60 foizni tashkil etar edi¹.

Xorazmda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko‘pchiligi AQSh, Fransiya, Shveysariya, Avstraliya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va boshqa uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. Import ham asosan mazkur mamlakatlardan amalga oshiriladi.

Viloyatda tashki iqtisodiy aloqalar ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 2002-yilning yanvar-avgust oylarida tashki savdo aylanmasi 54864,6 ming AQSh dollariga teng bo‘lib, o‘tgan 2001-yilning shu davrigacha nisbatan 114,2 foizni tashkil qildi. Eksport 22032,8 ming AQSh dollariga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 73,1 foizni, import 32651,8 ming AQSh dollariga teng bo‘lib, oldingi yilga nisbatan 184,2 foizni tashkil etdi².

2002-yil yanvar-avgust oyida Xorazm viloyati dunyoning 56 mamlakati bilan tashqi savdo aloqalari olib bordi. Tashki savdoning

¹Xorazm viloyati statistika bo‘shqarmasi tўplami. – Urganch, 2002. – B.17.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-rўyxat, 55-йиғма жилд, 11-варак.

83,9 foizi iqtisodiy rivojlangan davlatlarga va 16,1 foizi MDX davlatlariga to‘g‘ri keldi¹. Viloyat eksportining 79,5 foizini paxta tolasi tashkil qildi. Eksport qilinayotgan paxta tolasining 12,4 foizi Shveysariyaga va 6,1 foizi Rossiyaga jo‘natildi. Eksportning 2,3 foizini mashina va asbob-uskunalar, 6,2 foizini oziq-ovqat mollari tashkil qiladi. Import hajmida kimyoviy mahsulotlar 4,0 foizni, oziq-ovqat mollari 6,0 foizni tashkil etdi². 2001-2003-yillarda viloyat iqtisodiyotiga 102 mln.AQSh dollari hajmida xorijiy investitsiya jalb qilindi. Lekin shunday bir paytda, ba’zi tumanlarda bitta ham qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmagan. 2002-2004-yillarda tuzilgan 5 ta qo‘shma korxonadan 3 tasi (“Qo‘shko‘pir moy, “Xorazm charm mahsulotlari”, “Bo‘ston mevalari”) tugatildi³.

Viloyatda salmoqli mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar orasida “Urganch ekskavator” aksionerlik jamiyati a‘zolari alohida o‘rinni egalladi. Zavodga yangi asbob–uskunalar keltirish kengaydi. Rossiyadan keltirilayotgan dvigatel, kompressor, tayanch qurilmalardan tashqari barcha butlovchi qismlarni zavodning o‘zida yaratish imkoniyati kengaytirildi. 2004-yilga kelib, “Urganch ekskavator” korxonasi jamoasi O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ekskavatorlarning 60 foizini berardi. Qo‘shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish masalasiga e’tibor berilganligi sababli korxonada 300 taga yaqin “KXU–4N” rusumli kultivator ishlab chiqarildi⁴. Zavodning rag‘batlantirish fondi hisobidan faol, ishlab chiqarish intizomi va samaradorligi yuqori jamoa a‘zolariga 2 mln. 448 ming so‘m mukofot pullari berildi⁵. Shu jumladan, zavodda uzoq yillar davomida samarali mehnat qilgan ishchi–xizmatchilarga 1,7 mln., nafaqaxo‘rlarga 300 ming so‘mdan moddiy yordam ajratildi⁶. Zavod otaliqdagi maktablarni ta’mirlash uchun 15 mln., sport o‘yinlarini o‘tkazish uchun 40 mln. so‘m ajratdi. Viloyatda birinchi bo‘lib korxona qoshida tibbiy markaz ishga tushirildi va unga 2,9 mln.so‘mlik tibbiy anjomlari sotib olindi,

¹Хоразм вилояти статистика бошқармаси тўплами. – Урганч, 2002.–Б.10.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 55-йиғма жилд, 21-варак.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 67-йиғма жилд, 80-варак.

⁴Ҳакимов И. Хориждаги ҳамкасблар билан ҳамкорлик // Хоразм ҳақиқати, 2004, 4 февраль.

⁵Ислохотларни чуқурлаштириш йўлида // Хоразм ҳақиқати, 2004, 4 февраль.

⁶Полвонов Р. Жамоа шартномаси — ютуқлар кафолати // “Хоразм ҳақиқати, 2004, 4 февраль.

tibbiy yordam ko'rsatish uchun markazga "Damas" avtomashinasi ajratildi¹.

2004-yilda viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq hajmi o'sdi. Kichik korxonalar soni 13,3 foizga ko'paydi. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 27 mingdan ziyod yangi ishchi o'rinlari tashkil etildi².

2006-yilda respublikada meva-sabzavot shirkatlari soni 210 ta bo'lib, unga Urganch tumanidan Al-Xorazmiy nomli 1 ta shirkat kiritilgan. Ularni modernizatsiyalash, quritilgan mevalarni qadoqlash loyihasi "S-Agricol" kompaniyasi tomonidan 150 ming AQSh dollariga moliyalashtirildi. Yiliga 200 tonna quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni "NamunaAgrofud" qo'shma korxonasi amalga oshira boshladi³.

O'zbekistonda o'zining iqtisodiy salohiyati bilan muhim o'rin tutadigan Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlardan xulosa shundan iboratki, islohotlarning dastlabki bosqichida tinchlik, barqarorlik, fuqarolar totuvligi va milliy totuvlik saqlanganligi sababli bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich amalga osha bordi.

Xorazm viloyatida avtomobil va temir yo'llarning uzayishi va tarmoqlashuvi mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shish imkonini berdi. Aholini ish bilan ta'minlash, chet davlatlarga chiqish, mamlakatning tranzit rolini kengaytirdi. Mahalliy sanoatda, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida xususiylashtirishning amalga oshirilishi sifatli sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarilishini, raqobat muhitini yaratishga, xizmat ko'rsatish turlarining ko'payishiga olib keldi. Viloyatda tovar va xizmat ko'rsatish bozorining tarkibiy qismi bo'lgan Gurlan va Shovot dehqon bozorlarining iqtisodiy samarasi, ya'ni olingan foydaning harajatlarga nisbatan ko'rsatkichi 2008-yilda Gurlan dehqon bozorida 76,6 foizni, Shovotda esa 78,8 foizni tashkil qilganidagi ustunlik savdo-sotiq, pullik xizmat va tadbirkorlik kabi

¹Ўсиш: факт ва рақамларда // Хоразм ҳақиқати, 2004, 4 февраль.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 78-йиғма жилд, 5-варақ.

³Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 2-сон, 8-модда.

omillarning ijobiy ta'siri natijasidir¹. Viloyatda 2011-2016-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,6 barobar oshgan, unda sanoatning ulushi 25,5 foizga yetgan, jumladan, shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,5 barobar, iste'mol tovarlari 3,3 barobar, qurilish ishlari 1,8 barobar o'sgan².

Sanoat ishlab chiqarilishini texnologik jihatdan tashkil etishda, asosan, o'zaro bog'liq agroindustrial energiya ishlab chiqarish sikl shakllangan, xolos. Binobarin, viloyatda sanoatning tarmoklar va hududiy tarkibi xam sust rivojlanganligi bois, ushbu tarmoqlarni rivojlantirish talab etilar edi. Shu maqsadda, 2014 yilda Hazorasp tumanida "Damas" avtomobilini ishlab chiqaruvchi korxona ishga tushiriladi. Bu esa, viloyatda og'ir sanoat tarmoqlari rivojlanishini ta'minladi³.

Iqtisodiyotga xorij investitsiyasini jalb qilish, tadbirkorlikni keng rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarining o'rni katta. Buni "Hazorasp" EIZ misolida ham ko'rish mumkin. 2016-yilda uning uchun Hazorasp tumanining 2 ta hududidan 325 gektar bo'sh yer maydoni ajratib berilgan edi. Keyinchalik qurilish va infratuzilma tarmoqlarini o'tkazish xarajatini kamaytirish maqsadida EIZ korxonalarini, birinchi navbatda, bo'sh turgan bino va inshootlar negizida joylashtirish bo'yicha takliflar asosida yana 7 ta hududdagi 89 gektar yer maydoni qo'shib berildi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-aprelda "Xorazm viloyatida qo'shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 308-son qarori asosida sanoatda tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi, yangi sanoat korxonalarida paxta tozalash, to'qimachilik, gilam, polos ishlab chiqarila boshlandi. Bu davrda Xorazm viloyatida dunyoning rivojlangan davlatlari va tadbirkorlari bilan hamkorlikda qator qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Xorazm viloyatida 2018-yil oxirlari 2019-yil boshlarida 16,5 ming

¹Худайбергенов Д. Иқтисодийни ривожлантиришда товарлар ва хизматлар бозори самарадорлигини ошириш имкониятлари (Хоразм вилояти мисолида). Дисс.автореф.икт.фан. номз. – Самарқанд, 2010. – Б.14.

²Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.250.

³Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. – Тошкент, 2014. – Б.341.

⁴<https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tashrifidan-song-khorazmda-qandaj-ozgarishlar-kuzatildi>

korxona ro'yxatga olingan. Shu jumladan, kichik biznes korxonalari 13,3 mingtani tashkil etgan. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni esa 15,5 mingtani tashkil qilgan¹. 2018-yilning yanvar–may oyida respublikada 25 219 mingta korxona va tashkilot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) yangi tashkil etildi. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida ro'yxatga olingan bo'lib, ularning soni 5 444 ta. Eng kam Xorazm (918 ta) viloyatida tashkil etilgan².

Respublikada xorijiy sarmoya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2019-yil aprel holatiga ko'ra, 8280 ta bo'lsa, korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahrida 5082 ta (jami ulushi 61,4 foiz) joylashgan, eng kam Xorazm viloyatida bo'lib, soni 81 ta (1,0 foiz)ni tashkil etgan³. Faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyati, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalariga to'g'ri kelgan. Bu esa viloyatda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish ishlarini yanada jonlantirish hamda rivojlantirish lozimligini ko'rsatar edi.

2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 78,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 37,4 mingtani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 242 taga ko'p (128,3 foizga o'sgan)⁴. Viloyatda esa, sezilarli o'sish kuzatilmadi.

Umuman olganda, 1991-2021-yillarda O'zbekiston shimoliy qismida joylashgan Xorazm viloyati sanoatida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish natijasida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Deyarli barcha korxonalarda eski jihozlar o'rniga yangi texnika va texnologiyalar olib kelindi. Keyingi yillarda viloyatda trikotaj, non va non mahsulotlari, omixta yem, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish o'sib bormoqda. Ayni vaktida, sanoat majmuida og'ir sanoat, xususan

¹Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент. 2019.–Б. 5.

²<https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-jil-boshidan-buyon-252-mingdan-ortiq-korkhona-va-tashkilot-tashkil-etildi>

³Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. Тошкент. 2019. – Б. 9-10.

⁴<https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/11/business/#!>

yoqilg'i-energetika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qora va rangli metallurgiya sust rivojlangan. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan Tuyamo'yin SESi yagona elektr energiya ishlab chiqaruvchi manba sanaladi. Demak, mintaqa sanoati tarmoqlar tarkibini modernizatsiya qilish va boyitish, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, mavjud xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim muammolar sirasiga kiradi¹.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida iqtisodiy rivojlanish jiddiy qiyinchiliklar bilan kechdi. Bu davr, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, demografik jarayonlarning og'ir holati va ishsizlikning ko'payib borishi, ekologiya tangligi, xalqning ma'naviy jihatdan haqoratlanishi, tang ahvolni vujudga keltirgan asoratlarni bartaraf etish, so'ngra esa, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida mavjud muammolarni bartaraf etishdan iborat muhim vazifalar turar edi. Bu borada barcha viloyatlardagi kabi yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramasdan Xorazm viloyati iqtisodiy hayotida ham o'zgarishlar qilish, qishloq xo'jaligida barqaror o'sish va rivojlanishni ta'minlashda fermerlikni shakllantirish, yangi qurilishlar, yangi quvvatlarni ishga tushirish, investitsiyalar jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish borasida ko'plab islohotlar olib borildi.

Mustaqil taraqqiyotning ilk bosqichida asosiy e'tibor markaziy ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning regional xususiyatlari hisobga olinib, yuqori samarali sanoat va ishlab chiqarish tizimini shakllantirish hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Dastlabki yillarda paxta tozalash sanoatida jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Viloyatning qator sanoat korxonalari, zavod va fabrikalari elektr energiyasiga sarflanadigan harajatlar oshib borishi munosabati bilan tejamkor yo'lni izlab topishi samarali bo'ldi. Umuman, mustaqillik yillarida viloyat iqtisodiy hayotida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, ko'plab yangi qurilishlar, yangi quvvatlar, sanoat korxonalari ishga tushirildi, investitsiyalar jalb qilindi, ishchi o'rinlar yaratildi, yangi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

¹Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, 2014. – B.340-341.

II BOB. XORAZM VILOYATI AHOLISINING IJTIMOIIY HAYOTI

2.1. Viloyat aholisining ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda aholining turmush darajasini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy sohani rivojlantirishdan iborat ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "...ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo'lib qoladi"¹. Chunki, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali inson manfaatlari ro'yobga chiqariladi. Shu bois, davlat inson hayoti uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish va yaxshilab borish maqsadida ijtimoiy sohani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib keldi.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya masalasiga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida e'tibor qaratilib, uning "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-yo'nalishida "...fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, ...aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish" chora-tadbirlari belgilanib, bu borada qator ishlar amalga oshirildi².

Xorazm viloyati hududining uncha katta emasligi, uning kompakt (ixcham) ekanligi, aholi va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning deyarli bir tekis taksimlanganligi bois, bu yerda, boshqa viloyatlarda bo'lganidek. ichki iqtisodiy rayonlarni ajratish uchun obyektiv zarurat yo'q. Ammo shunga karamasdan, qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

¹Янги Ўзбекистон–янгица дунёкараш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси асосида. Рисола. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.20-21.

²Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси. 4.2-банд. // lex.uz

ko'rsatkichlarida ayrim hududiy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Sanoat ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha, Urganch shahrini hisobga olmaganda, Xonqa, Bog'ot, Yangibozor tumanlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, Xiva, Ko'shko'pir va Urganch qishloq tumanlari ulushi nisbatan past edi.

Mustaqillikning o'tgan davrida qo'lga kiritilgan yutuq va natijalar aholi daromadlari va farovonligini izchil ravishda oshirib borishni ta'minlash, keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berdi. Mazkur muammolarga davlat siyosati darajasida jiddiy qaraldi. 1991-yil noyabrda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligiga o'z tasarrufidagi holatni bir oy muddatda chuqur tahlil etish va sohani rivojlantirish bo'yicha aniq tavsiyalar berish taklif etildi. Ko'rilayotgan muammoga ijtimoiy sohaga tegishli bo'lgan sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, aholini sof havo, toza ichimlik suvi, gaz bilan ta'minlash va boshqalar orqali ularning yashashi uchun qulay mikrosharoitni yaratish bilan bog'liq masalalar kiradi¹. 1991-yil noyabrda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligida o'z tasarrufidagi holatni chuqur tahlil etish, jumladan, pensiya ishida islohotlar o'tkazish, kam ta'minlangan oilalar, nogironlarga g'amxo'rlik qilish vazifalari belgilandi². Ta'lim tizimida ijtimoiy muhofazani ta'minlash maqsadida viloyatlardan kelgan talabalarga vaqtinchalik har oy uchun 50 so'm miqdorida qo'shimcha mablag' ajratib berildi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yilning 27-maydagi Farmoniga asosan 792 nafar yakka-yolg'izga 47 mln. 622 ming so'mlik 9 xildagi oziq-ovqat mahsulotlari yetkazildi. Har bir yakka-yolg'izga 1 oyda 4684 so'mlik oziq-ovqat mahsuloti to'g'ri keldi. Mahalliy hokimliklar tomonidan 164 nafar yakka-yolg'iz pensioner va nogironlarga 375,5 ming so'mlik kiyim-kechaqlar, 128 shu toifadagi fuqarolarga 347,8 ming so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi⁴. Viloyat

¹БМТ саммитининг Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқни ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2010 – Б.118-119.

²ЎзМА, М-44-фонд, 1-рўйхат, 1-рўйхат. – 15-варақ.

³ЎзМА, М-15-фонд, 1-рўйхат, 93-рўйхат. – 1-варақ.

⁴ЎзМА, М-15-фонд, 1-рўйхат, 94-рўйхат. – 2-варақ.

mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'limlari bu qiyin va xayrli vazifalarni bajarishga butun kuch va bilimlarini qaratadilar.

1993-yilda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi tashkil qilindi. Nemis texnologiyasini o'rganish uchun mutaxassislar Germaniyaga, "Mercedes-Bens" firmasiga o'qishga yuborildi. Ishchilar uchun barcha sharoit yaratib berildi. 1994-yil 29-yanvar kuni birinchi avtomobil yig'uv konveyeridan chiqdi. 1996-yilga kelib, birlashmada 500 ga yaqin ishchi va xizmatchilar mehnat qilar edi. Birlashma ishchi va xizmatchilarini ijtimoiy himoyalash maqsadida 32 xonali turar joy va 20 kottej bunyod etildi¹.

Ko'makka muhtoj oilalarga moddiy yordam berishda, asosan mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalanish o'zini to'la oqladi. Ayniqsa, aholi kam ta'minlangan qismining manzilli himoya qilinishi, bu ishlarning o'zini-o'zi boshqarish asosida, oila daromadlarini hisobga olib amalga oshirilishi, faqat O'zbekistonga xos yechim bo'ldi². Hududda aholi turmush darajasi ancha past edi. Shu bilan birga, 90-yillarda Xorazm viloyatida ma'lum bir demografik o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davrda har ming kishi hisobiga tug'ilish ko'rsatkichi 35,4 dan 24,1gacha kamaydi³.

Hududdagi bunday o'zgarishning asosiy sababi tug'ilishning kamayishi bilan birga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muhit sharoitiga ham bog'liq bo'ldi⁴. Xorazm viloyatida aholining o'sishi shahar va qishloq aholisining taqsimlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda aholiga savdo va xizmat ko'rsatishga katta e'tibor qaratildi. Viloyatdagi 13 dehqon bozori yangidan milliy uslubda ta'mirlanib, savdo o'rinlari ko'paytirildi. Bozorlar hududidagi barcha do'konlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, sartaroshxona, dorixona va boshqalar

¹Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида.-Тошкент:Шврк, 1996. – Б.158.

²Зокирова Н. Ўзбекистонда кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоялаш.// Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 2001. № 7. – Б. 69-71.

³Женщины Республики Узбекистан. –Ташкент, 1991. – С. 44.; Естественное движение населения РУз за 1999 г. – Ташкент, 2000. – С.8.

⁴Давлетов С. XX аср охирида Қуйи Амударё ҳудудидаги экологик вазият ва уни соғломлаштириш муаммолари. – Хива: Хива матбаа, 2007. – Б. 84.

ham qaytadan qurildi, sanitariya ahvoli talab darajasiga ko'tarilib, sotuvchi va xaridorlar uchun barcha qulaylik, sharoitlar yaratildi. Ikkita kiyim-kechak bozori, ya'ni Hazorasp va Urganch tumanlarida milliy uslubda yangidan qurib ishga tushirildi¹. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 12-oktabrdagi 399-son Qaroriga muvofiq hududda xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish bo'yicha katta ishlar qilindi. Xususan, viloyatda chakana savdo aylanmasi 1995-yilda 2909,9 mln. so'm va 1996-yilda 7938,2 mln. so'mni tashkil qilgan. Viloyatda maishiy xizmat hajmi 1995-yilda 164,8 mln. so'mdan 1996-yilda 303,3 mln. so'mga chiqdi².

1995-yilda mamlakat bo'yicha ijtimoiy sohadagi xarajatlarga yo'naltirilgan mablag'lar 1170,4 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 62,2 mln. so'mni tashkil qildi³. Aholining turmush farovonligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratildi, xususan, viloyatda 1995-yilda moddiy yordam oladigan kam ta'minlangan oilalar soni 61776 tani, bolalari 2 yoshga to'lguncha nafaqa oladigan oilalar soni 16178 tani tashkil qilgan⁴.

1996-yilda Xorazm viloyatida banklardagi aholi jamg'armalari miqdori 292,8 mln. so'mga teng bo'lgan⁵. Viloyatda 1998-yilda 16 yoshgacha bolasi bor ayollarga 758003,0 ming so'mlik mablag' ijtimoiy to'lov sifatida to'langan. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarga 175418,7 ming so'mlik moddiy yordam ko'rsatilgan⁶. 2000-yilda 9221 fuqaroga davlat pensiyasi, 2415 fuqaroga ijtimoiy nafaqa tayinlangan. 2001-yilning 1 yanvariga viloyatda jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 164650 nafarni tashkil qilgan. 5710 pensionerga ularning nafaqalari ish joylarida to'langan, qolgan 158940 nafar davlat pensiyasi oluvchilarga 2002-yilda jami 23 mlrd.768,9 mln. so'mni to'liq to'lashga erishilgan. Har bir pensionerga 1 oylik pensiya miqdori 13873 so'mni tashkil qilgan⁷.

¹Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида.-Тошкент:Шврк, 1996. – Б.165.

²Хоразмвилояти Статистика бошқармасижорийархиви. 13 лет независимости Узбекистана. Стат.сборник. – Ургенч, 2004. – С.13, 37, 43.

³ЎзМА, Фонд М-15, 1- рўйхат, 534-йиғма жилд. – 57-варак.

⁴ЎзМА, М-15-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд. – 28-варак.

⁵Статический ежегодник Республика Узбекистан. 2004г. – Ташкент: Госкомстат РУз., 2005. – С.85.

⁶ЎзМА, М-15-фонд, 1-рўйхат, 851-йиғма жилд. – 76-варак.

⁷Хоразм вилояти ҳокимияти жорий архиви. Ижтимоий муҳофаза бўлимининг 2001 йил яқунлари бўйича

1997-yil O‘zbekiston Respublikasida “Inson manfaatlari” yili deb e’lon qilinishi munosabati bilan Xorazm viloyatida Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha hududiy dastur ishlab chiqildi. Shu yili o‘rtacha oylik ish haqi 3002,2 so‘mni tashkil qilgan. Shuningdek, 1997-yil yanvardan boshlab, bolali oilalarga nafaqa mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan tayinlanishi, bunda oilalarning nafaqaga muhtojligi hisobga olinishi hamda 1 nafar bolali oilaga 100 foiz, 3 nafar bolali oilaga 140 foiz, 4 nafar va undan ortiq bolali oilalarga 175 foiz miqdorida nafaqa to‘lanishi belgilab qo‘yildi¹.

Viloyat bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 7-dekabrdagi 520-sonli qaroriga asosan keksa, yolg‘iz pensioner va nogironlardan yil davomida 6946 nafar fuqarolarga 27 mln. 154,6 ming so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatildi. Shu jumladan chet el insonparvarlik yordam hisobidan 1418 nafar pensioner va nogironlarga 7 mln. 473 ming so‘mlik tovar va tayyor kiyimlar berildi².

1999-yili viloyatda aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash 90,6 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yilga kelib, 92 foizni, suv ta‘minoti 90 foizni tashkil qildi³. Maishiy xizmat bo‘yicha 2001-yilda Xorazm viloyatida 7879 nafar pensioner va qariyalarga 8773,1 ming so‘mlik sartaroshlik, 1152 nafariga 1512,9 ming so‘mlik hammom, 21 nafariga 39,9 ming so‘mlik kir yuvish va kimyoviy tozalash, 3716 nafariga 3763,4 ming so‘mlik boshqa turdagi xizmatlar, jami 14 mln. 89,3 ming so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan⁴. Pullik xizmat ko‘rsatish viloyat bo‘yicha 1991-yilda 152,1 mln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yilda 15932,8 mln. so‘mga teng bo‘lgan⁵.

Bu davrda yangi zamonaviy tipdagi umumta‘lim maskanlari binolari qurilishiga katta e’tibor berildi. Jumladan, Xorazm viloyatida umumta‘lim maktablarini ishga tushirish ko‘rsatkichlari 1995-yilda 5,3

хисоботи. – Урганч, 2002. – Б.5.

¹ЎзМА. М-15-фонд, 1-рўйхат, 903-рўйхат. –155-варақ.

²Хоразм вилояти статика бошқармасининг “Ижтимоий муҳофаза бўлими”нинг 2001 йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2002. –Б.7.

³Хорезм: инвестиционные возможности. – Ташкент, 2002. – С.22.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти жорий архиви. Хоразм вилояти статистика бошқармаси. – Урганч, 2002. – Б. 5.

⁵Хоразм вилояти ҳокимияти жорий архиви. 13 лет независимости Узбекистана. Статический сборник. – Урганч, 2004. – С.42.

ming; 2001-yilda 1,5 ming o'quvchi o'ringa ega bo'ldi¹.

Mehnat muhofazasi va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo'limi xodimlari 2002-yil mobaynida 656 korxona va tashkilotlarda tekshirishlar o'tkazib, ularda 9953 mehnat qonunchiligi hamda mehnat muhofazasi me'yorlarining buzilishi aniqlandi. Xodimlar hayotiga xavf tug'dirayotgan 30 dan ortiq ustaxona va dastgohlar ishi vaqtincha to'xtatib qo'yildi. Korxonalar rahbarlariga bajarilishi majburiy bo'lgan 543 yozma ko'rsatma taqdim etildi. Mehnat xavfsizligi talablari buzilishiga yo'l qo'ygan 93 mansabdor shaxsga 1 mln. 138,4 ming so'mdan ziyodrok jarima solindi. Ekish va yig'im-terim mavsumi oldidan barcha tumanlar gazetalarida prokuratura xodimlari bilan birgalikda mehnat muhofazasi va xavfsizligiga doir chiqishlar chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi qarori asosida 1993-yil 3-sentabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 27-moddasi uchinchi qismida pensiyalar miqdorini hisoblashda yoshga doir va I hamda II guruh nogironlik pensiyalarning miqdorini—pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadigan ish haqining 75 foizini, III – guruh nogironlariga va har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga beriladigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining miqdori pensiya hisoblab chiqish uchun olinadigan ish haqining 40 foizi bilan cheklashlar bekor qilinganligi to'g'risida aholi o'rtasida keng miqesda tushuntirish ishlari olib borildi, bundan tashqari viloyat televideniye va radiosida, tumanlarning barchasida gazetolari sahifalarida maqolalar bilan chiqishlar tashkil qilindi.

2000-yilda 9221 fuqaroga davlat pensiyasi, 2415 fuqaroga-ijtimoiy nafaqa tayinlandi. 2001-yilning 1-yanvariga viloyatda jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 164650 nafarni tashkil qildi. 5710 pensionerga ularning nafaqalari ish joylarida to'landi, qolgan 158940 nafar davlat pensiyasi oluvchilarga 2002-yil davomida jami 23 mlrd. 768,9 mln. so'm malag' moliyalashtirildi va to'liq to'lashga erishildi.

¹Статический ежегодник Республики Узбекистан, 2004 г.—Ташкент:Госкомстат. РУз, 2005.—С.314.

Har bir pensionerga 1 oylik pensiya miqdori 13873 so'mni tashkil qildi¹.

Sihatgohlarda davolanishga muhtoj deb topilgan 2303 nafar qariyadan 246 nafari Oltiariq, 454 nafari Tovoqsoy sihatgohida, 10 nafari Nuronilar oromgohida, 1124 nafar qariya esa mahalliy va boshqa sihatgohlarda byudjet va homiylar hisobidan bepul davolandi. Viloyat bo'yicha 2001-yilda 12887 nafar qariya imtiyozli ravishda 46 mln. 406,4 ming so'mlik dori-darmonlar bilan ta'minlandi².

2001-yilda viloyatda qariyalardan 81 nafariga nogironlar aravachasi berilgan, shuning 47 tasi byudjetdan, 34 tasi homiylar mablag'i hisobidan olingan. 78 nafar eshitish moslamasiga muhtoj qariyadan 37 nafari, qo'ltik tayoqqa muhtoj 221 qariyaning barchasi, qo'l hassasiga muhtoj 318 nafar qariyaning ham barchasi ta'minlangan³.

Maishiy xizmat bo'yicha 2001-yilda 7879 nafar pensioner va qariyalarga 8773,1 ming so'mlik sartaroshlik, 1152 nafariga 1512,9 ming so'mlik hammom, 21 nafariga 39,9 ming so'mlik kir yuvish va kimyoviy tozalash, 3716 nafariga 3763,4 ming so'mlik boshqa turdagi xizmatlar, jami 14 mln. 089,3 ming so'mlik xizmat ko'rsatildi. Viloyat bo'yicha 1890 nafar yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni to'liq dispanserizatsiyalash, statsionar ambulatoriya sharoitlarida, shuningdek, xonadonda aniq maqsadli davolash sog'lomlashtirish tadbirlari amalga oshirildi.

2005-yilda aholining, ayniqsa, uning ijtimoiy himoyaga muhtoj salkam 100 mingta oilalarga davlat byudjetidan 13 mlrd.so'm yordam pullari berilgan⁴.

2007-yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash harajatlari 138,2 mlrd.so'mni tashkil etib, shundan ta'lim sohasiga maktab ta'limi jamg'armasi harajatlarini hisobga olmagan holda, 69,0 mlrd.so'm sarflandi⁵.

¹Хоразм вилояти статика бошқармасининг "Ижтимоий муҳофаза бўлими"нинг 2001 йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2002.–Б.5.

²Хоразм вилояти статика бошқармасининг "Ижтимоий муҳофаза бўлими"нинг 2001 йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2002.–Б.6.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 14-рўйхат, 27-йиғма жилд.–30-варақ.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 14-рўйхат, 27-йиғма жилд.–30-варақ.

⁵Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 14-рўйхат, 35-йиғма жилд.–3-варақ.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-oktabrdagi “Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 280-sonli qarori doir qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasida 2011-2013-yillarda “SOS - Kinderdorf International” xalqaro tashkiloti tomonidan moliyalashtirish manbalari mablag‘lari asosida 652767 yevro miqdorida safarbar etiladigan resurslar Xorazm viloyatida “SOS - oilalarni mustahkamlash” dasturini amalga oshirish, shu jumladan, oilalarga ijtimoiy, psixologik, yuridik va iqtisodiy yordam ko‘rsatish, yetim bolalarga vasiylik qilish, ta’lim sifatini oshirish ishlarini tashkil etish, oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ikkita ijtimoiy markaz tashkil etishi tadbiri belgilangan¹ edi. Bu esa viloyatda yetim bolalarni va ijtimoiy nochor oilalar bolalarini qo‘llab-quvvatlash, yetim bolalar va ijtimoiy nochor guruhlar bolalari farovonligini oshirish, mahallalarda ijtimoiy ishlarni tashkil etish, ta’lim sifatini yaxshilashga ko‘maklashdi.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega bo‘lib, 2013-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 3,1 foizini, sanoat maxsulotini 1,7 va qishloq xo‘jaligini 6,0 foizni berdi. Bu yerda, avvalo, agrosanoat majmui yaxshi tashkil etilgan. Yalpi hududiy maxsulotning 5,5 foizi sanoatga, 35,9 foizi qishloq xo‘jaligi, 9,6 foizi transport va aloqa, 7,0 % qurilishga, 7,2 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga to‘g‘ri keladi. Hududiy mehnat taqsimotida viloyat yengil va oziq-ovqat sanoatiga, qishloq xo‘jaligida esa paxta va sholi yetishtirishga ixtisoslashgan². Qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmida deyarli barcha tumanlar (Xazorasp. Xiva, Ko‘shko‘pirdan tashqari) viloyat darajasidan yuqori bo‘lib, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarida Urganch shahridan tashqari, jami qishloq tumanlarida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud edi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, viloyat aholisining urbanizatsiyalashuv jarayonini tezlashtiradigan sanoatning hududiy tarkibi xam uncha rivojlanmagan edi. Bu borada, eng avvalo, viloyat ma’muriy markazi - Urganch yetakchilik qiladi. Mavjud ma’lumotlar bo‘yicha Urganch

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011, 42-сон, 452-модда.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 28-рўйхат, 23-йиғма жилд.–21-варақ.

shahri viloyat jami sanoat mahsulotining 27,7 foizini, iste'mol mollarini 46,8 foizini beradi. Sanoat ishlab chikarish hajmiga ko'ra, Xonka, Xazorasp Bog'ot va Shovot tumanlari xam birmuncha ajralib turadi, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida kayd etilgan. Sanoat ishlab chiqarilishini texnologik jixatdan tashkil etishda, asosan, o'zaro bog'lik agroindustrial energiya ishlab chiqarish sikl shakllangan, xolos. Binobarin, viloyatda sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibi ham sust rivojlangan¹.

Aholi iste'moli uchun go'sht Xazorasp, Urganch va Shovotda, sut yetishtirish Urganch, Xazorasp, Gurlan va Xiva, parrandachilik Xiva, Urganch va Xonqa tumanlarida nisbatan rivojlangan. Urganch tumani shahar atrofi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Qoramollar soni bo'yicha ham Urganch tumani yetakchi edi. Shuningdek, chorvachilikning bu sohasi (sut-go'sht chorvachiligi) Xazorasp va Xonqa tumanlarida birmuncha yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lib, qo'y va echkilar soni boshqa tumanlarga qaraganda, Qo'shko'pir. Bog'ot, Hazorasp va Urganch tumanlarida, parrandachilik Urganch, Xonqa, Xiva va Bog'ot tumanlarida ko'proq².

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, sog'liqni saqlash sohasidagi ishlar, ta'lim, ijtimoiy infratuzilma, arzon uy-joylar, ish joylaridagi mehnat sharoitlari, davlat organlari, kasaba uyushmalari va ish beruvchi hamkorligi borasida aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun aholining real daromadi va bandligini izchil amalga oshirish orqali faol ijtimoiy himoya, aholini ijtimoiy himoyalash va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'nalishidagi davlat tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar qurilishi, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ham ishlar olib borildi.

2014-yilda viloyatda 529 ta o'rta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib, ularda o'quvchilar soni 262337 nafarni tashkil qilgan³. 2015-yilda mehribonlik uyi bitiruvchilaridan muhtoj 50 nafari to'liq turar joy

¹Хоразм вилояти ҳоқимияти архиви. 1150-фонд, 28-рўйхат, 23-йиғма жилд.—32-варақ.

²Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Тошкент, 2014. — Б. 345.

³Олланазаров Б., Файзуллаев Н., Султанов Ж., Ходжаниёзов Э. Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ва ривожланиши. — Урганч, 2014. —Б.46.

bilan ta'minlandi¹. 2014-yil boshida aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 93,6 foizni, shu jumladan, qishloq joylarida 91,6 foizni, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 62,1 foizni, jumladan, qishloq joylarida 51,2 foizni tashkil qilgan².

2015-yil 6 oyi davomida 1118 nafar keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif qatlamlarini Mehnat va aholini muhofaza qilish vazirligi sanatoriylarida bepul dam oldilar³.

2016-yilda ham pensioner, nogiron, yolg'iz qariyalar va kam ta'minlangan qatlamlariga tibbiy yordam ko'rsatish tizimi saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 80,3 foizini tashkil etdi⁴.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lsa, atigi 29 foizi kompleks ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatiga ega. Pensiya yoshidagi keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasini oladi. Ayniqsa, qishloq joylarida holining 56 foizi sog'liqni saqlash imtiyoziga ega emas. O'zbekistonda bu borada yetarli tajriba to'plangan bo'lib, ijtimoiy himoya sohasida aynan davlat va xususiy sherikchilik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy siyosat tizimida ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam masalalari markaziy o'rin egallaydi⁵. Respublikada inson omili oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Prezident SH.Mirziyoyevning "Odamlar ertaga emas, bugun baxtli yashashni istaydilar", degan tamoyilni ilgari surishi va buni siyosatimizning ustuvor yo'nalishiga aylantirishi, amalga oshirilayotgan insonparvar siyosat odamlar hayotida o'z aksini topdi. Ayniqsa, yangilangan namunali loyihalar asosida arzon uy-joylar qurilishi odamlar qalbida yashash va ishlashga bo'lgan ishonchni kuchaytirdi. 2017-yilda shahar va qishloqlarda umumiy maydoni 3,5 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan namunali va ko'p qavatli uylar bunyod etildi⁶.

2018-yilda Xorazm viloyatining 10 ta tumanining qariyb 98 ming

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 28-рўйхат, 23-йиғма жилд.—10-варақ.

²Олланазаров Б., Файзуллаев Н., Султанов Ж., Ходжаниёзов Э. Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ва ривожланиши. — Урганч, 2014. —Б.46.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 28-рўйхат, 24-йиғма жилд.—73-варақ.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 30-рўйхат, 50-йиғма жилд.—60-варақ.

⁵Рафиқов Қ. Кучли ижтимоий сиёсатнинг Ўзбекистонга хос тажрибаси / <https://xs.uz/uzkr/post/kuchli-izhtimoiy-siyosatning-ozbekistonga-khos-tazhribasi>

⁶Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 30-рўйхат, 62-йиғма жилд.—60-варақ.

nafar aholi istiqomat qiladigan 20 ta mahalla fuqarolar yig'inlari tanlab olinib, 17123 ta xonadon sharoitini yaxshilash maqsadida respublika byudjetidan 20,0 mlrd.so'm va mahalliy byudjetdan 5,6 mlrd.so'm ajratilgan¹. Ijtimoiy nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari xarajatlari 2020-yilda 138,7 mlrd.so'mni tashkil etib, bu 2019-yilgi tasdiqlangan parametrlarga solishtirganda 20,2 foizga ko'p².

Ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlardan xulosa shuki, keyingi paytlarda uyma-uy yurib o'rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o'ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni 2021-yilga kelib, qariyb 1,5 barobar oshirildi. Prezident SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar hech qachon bo'lmagan"³. Butun mamlakatda bo'lgani kabi Xorazm viloyatida ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga, islohotlarni izchil amalga oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga jiddiy kirishildi. Buning uchun bir qancha dasturlar, qabul qilinib, ular asosida qishloq vrachlik punktlari, onalar va bolalar shifoxonalari, sport-sog'lomlashtirish markazlari, zamon talablariga javob beradigan maktablar, savdo va maishiy xizmat obyektlari ishga tushirildi. 2021-yilda viloyat byudjet xarajatlarining 67 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga yo'naltirildi⁴. Ular zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, yosh bolali onalar, nogironlar, keksa va boquvchisiz qolgan qariyalar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga moddiy yordam ko'rsatishga sarflandi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz turmush farovonligini oshirish, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash kabi sohalarni rivojlantirish barobarida, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini manzilli himoya qilishni yanada

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 75-йиғма жилд.—18-варақ.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 98-йиғма жилд.— 40-варақ.

³Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.—Тошкент: Ўзбекистон, 2021.—Б.199.

⁴<https://xorazm.uz/uz/faoliyat/media/rasmiy-maruzalar/1959-horazm-viloyati-okimi-fjermanovning-viloyatni-izhtimoiy-itisodiy-rivozhlantirishning-2021-jakunlari-va-2022-jildagi-ustuvor-vazifalarga-baishlangan-matbuot-anzhumanidagi-m-a-r-u-z-a-s-i>

takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar bugun beqiyos samara bermoqda. Darhaqiqat, yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay", "xonadonbay" ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda¹. Mamlakatimiz aholi turmush darajasini yuksaltirish borasidagi qator ko'rsatkichlar bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlar qatoridan joy olayotgani ham yurtimizda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning nechog'li oqilona va puxta ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

2.2. Aholi bandligini ta'minlash masalalari.

Aholi bandligi masalasi jahon hamjamiyati tomonidan eng ko'p umume'tirof etiladigan, hamisha dolzarb ekanligini isbotlay oladigan masaladir. Ijtimoiy hayotda barcha turdagi aholi qatlami uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilishi, ijtimoiy infratuzilmaning yanada yaxshilanishi, aholi bandligining ta'minlanishi jarayoni samaradorligini oshiradi. Aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Ish bilan bandlik ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, mehnatkash insonlar ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi va aholi daromadlarini oshirishning asosiy elementi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 13-yanvarda qabul qilingan "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi². Bu borada O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini shakllantirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi 616-I-son qonuni³ hamda O'zbekiston Respublikasining

¹Янги Ўзбекистон—янгича дунёқараш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси асосида. Рисола. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.21.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 йил, № 4, 175-модда; 1993 йил, № 6, 238-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 6, 118-модда.

³Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги "Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида" ги 616-I-сон қонуни/(Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 97-модда;

Mehnat kodeksi¹ muhim huquqiy baza hisoblanadi. Mazkur normativ va sohaga oid qonun hujjatlarida ishsizlik, ish bilan bandlik shaklini tanlash huquqi, ishsizlikdan ijtimoiy himoya qilish kafolatlari e'tirof etilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlar aholi turmush farovonligini oshirishda, ularning bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Bu borada Xorazm viloyatida aholi bandligini ta'minlashda bir qator yechimini kutayotgan holatlar mavjud edi. Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan edi. Chunki viloyatda Urganchdan boshqa barcha tumanlarida ushbu xizmat turi aholining tobora oshib borayotgan talabining 28 foizini tashkil etar edi. Umuman olganda, xizmatlarning an'anaviy turlarini rivojlantirish natijasida qo'shimcha ravishda 3280 ta infratuzilma obyektlari va 10282 ta yangi ish o'rinlari tashkil etiladi². Ularni hal qilish orqali aholi bandligini yangicha zamonaviy usulda ta'minlash hamda ijtimoiy muhofaza qilish va mehnat bozori munosabatlarini samarali amalga oshirish talab etiladi. Ushbu murakkab jarayonni kuzatganda, davlat ro'yxatidan o'tmasdan norasmiy ravishda tadbirkorlik faoliyat turlari bilan shug'ullanish holatlari, munosib haq to'lanadigan doimiy ish o'rinlarining yetishmasligi, yoshlarni ishga joylashtirishdagi qiyinchiliklar, bunda asosan oliy ma'lumot yoki ish stajiga ega bo'lmagan yosh kadrlarni ishga joylashtirishda murakkabliklar mavjudligi, taqdim etilayotgan ish o'rinlarida mehnatga xaq to'lashning kamligi, qishloq joylarda yuqori haq to'lanadigan doimiy ish o'rinlarining mavjud emasligi sababli yoshlarning ish izlab xorijga chiqib ketish holatlarini keltirib chiqarishi, qishloqlarda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritishni rejalashtirgan tadbirkorlar uchun kredit olishning murakkabligi kabi muammolar mavjud edi. Shu bilan birga, Prezident SH.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Navbatdagi muhim vazifa—bu bandlik masalasini hal qilishning butun tizimini tubdan o'zgartirish bo'yicha kompleks rahbariyati, hokimlar va ularning birinchi o'rinbosarlari shaxsiy mas'uliyatini oshirishdan iborat"³.

¹Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. – Тошкент: Адолат, 1996. – Б.256.

²Хоразм вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси. – Тошкент:IFMR, 2015. – Б.107.

³Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб–интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қондаси бўлиши керак. – Тошкент:Ўзбекистон, 2017.–Б.35-36.

1991-2021-yillarda Xorazm viloyati mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi va uning joylardagi organlari asosiy e'tiborni mehnat va bandlik borasida islohotlarni tobora chuqurlashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuni talablariga to'la amal qilgan holda aholini ish bilan ta'minlashga qaratdilar. 1991-yilga mo'ljallangan "Bandlik" dasturi bu vazifalarni ijobiy yechish, mehnat bozoridagi vaziyatni sog'lomlashtirish va ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanishni ta'minlashga yo'naltirildi.

O'tgan yillarda mehnat organlarining faoliyatida ijobiy burilishga erishildi. Shahar va tumanlar mehnat bo'limlari bandlik sohasidagi jarayonlarni chuqur tahlil qildilar. Ularning ish beruvchilar, korxonalar va tashkilotlar bilan aloklari yaxshilandi, mehnat munosabatlarining shakllanishiga ta'siri kuchaydi. 1995-yil viloyatda, jami mehnat bozorida ish bilan band bo'lgan aholi 415,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, sanoatda 38,1 ming; qishloq xo'jaligida 143 ming kishi va xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ish bilan bandligi ta'minlangan¹. Ushbu jarayon 1997-yil viloyatda ish bilan band bo'lgan 442,0 ming aholi sonini tashkil qilib, 1995-yilga nisbatan 26,8 ming kishiga oshgan².

2001-yilda viloyatning shahar va tumanlaridagi mehnat bo'limlariga jami bo'lib, 32437 fuqaro bandlik masalalari bo'yicha murojaat qildilar va ish izlovchi sifatida ro'yxatga olindilar. Bu rejaga nisbatan 108,2 foizni tashkil qildi. Ro'yxatga olinganlar soni 2000-yilga qaraganda, 3242 kishiga, yoki 10,7 foiz o'sdi. Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni ro'yxatga olish rejalari ayniqsa, Yangiariq (134,8), Bog'ot (119,2), Shovot (110,8), Hazorasp (112,0), Urganch shahri (107,3), Qo'shko'pir (107,2), Xiva (102,7) va Yangibozor (101,7) tumanlarida tegishli foizlarda ortig'i bilan uddalandi³.

Bu davrda aholini ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlari aksariyat mehnat bo'limlarida muvaffaqiyatli uddalandi. 2001-yilda 18533 fuqaro

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 55-yifma jild,— 22-varak.

²Xorazm viloyati Statistika boshqarmasijoriy arxivi. Xorazm viloyati statistika t'uplami. 2010. Ўзбекистон мустақиллиги 20 йиллиги. Стат.тўплам. — Ургенч, 2010. —Б.129.

³Xorazm viloyati statika boshqarmasining "Ijtimoiy muhofaza b'limi"ning 2001 yil yakunlari b'yiicha hisoboti. — Urganj, 2002. — Б.3.

ishga joylashtirildi. Ishsizlarni qisqa muddatli haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. 2001-yilda 3925 nafar ishsiz bu turdagi mehnat faoliyatiga jalb qilindi.

Mehnat bo‘limlari mehnat bozoridagi konyunkturani tahlil qilib, korxonalar talabi bilan ishsizlarni kasbga qayta o‘qitishni tashkil qilib. 2001-yil viloyat bo‘yicha 1111 nafar ishsiz, asosan yoshlar, ilk bor ish izlovchilar, yangi kasb-korga o‘qitildi. Belgilangan reja 103,8 foiz bajarildi. Eng yaxshi ko‘rsatkichlarga Xiva (120,5 foiz), Urganch shahri (118,8 foiz), Shovot (111,1 foiz), Yangibozor (104 foiz), Xazorasp (103,6 foiz) va Yangiariq (103,3 foiz) tumanlarida erishildi. Bu yo‘nalishda ayniqsa, “Ustoz-shogird” uslubida ishsiz deb e’tirof etilgan fuqarolarni kasblarga o‘qitishga katta e’tibor qaratildi. Dastur rejasi birgina Urganch tumanida bajarilmasdan koldi va 67 foizni tashkil etdi¹.

2001-yilda viloyatda 26341 yangi ish o‘rni ochildi, shu jumladan, o‘rta va kichik tadbirkorlik sohasida-24615, kichik va o‘rta korxonalarda-7590. Eng ko‘p ish o‘rni Xazorasp tumanida barpo etildi–3241, Xonqa tumanida–3101.

2001-yilda mehnat bo‘limlarida ish izlovchi sifatida ro‘yhatga olingan va maqbul keladigan ish bilan vaqtinchalik ta‘minlanmagan fuqarolardan 8645 nafariga ishsizlik nafaqasi tayinlandi. Ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni ish bilan ta‘minlash maqsadida, shahar va tumanlarda bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari o‘tkazish an‘anaviy tus oldi. 2001-yilda Urganch shahrida 3, Xonqa 2, Bog‘ot 4, Gurlan 2, Xazarasp 3, Shovot tumanlarida 4 marta, Urganch 2, Yangiariq 1, Yangibozor 2, Xiva tumanidagi 2 martadan va Qo‘shko‘pir tumanida 1 martadan jami 26 ta bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari tashkil etildi. Ularda 670 ta ish beruvchi korxona va tashkilotlardan 5517 bo‘sh ish o‘rinlari taklif etildi. Unda 6265 nafar ish bilan band bo‘lmaganlar qatnashdi. Ishsizlardan 1847 nafari ishga joylashtirildi, 3765 nafariga mehnat qonunchiligi va huquqiga doir maslaxatlar berildi².

Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi tomonidan 2001-yilda yangi ish joyini tashkil qilish uchun kichik va

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 16-рўйхат, 13-йиғма жилд, – 18-варақ.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 16-рўйхат, 14-йиғма жилд. – 12-варақ.

o'rta biznes sub'ektlariga tijorat banklari orqali 483 mln. 015 ming so'm kredit berishga ajratildi, shu jumladan: o'rta va kichik biznes sub'ektlariga 371 mln. 640 ming so'm, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlaridan 166 nafariga 111 mln. 375 ming so'm ajratildi¹.

Viloyat hududida yashayotgan yoshlarni xorijiy davlatlarga ishga yuborish bilan Tashqi mehnat migratsiya masalalari agentligining viloyatdagi vakili Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-oktabrdagi 408-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi kasb faoliyati tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Chet elda ishlamoqchi bo'lib, 2000-yilning 3-yanvaridan ro'yxatga olingan fuqarolarning soni 2003 yilning 1 yanvar holatiga 1990 nafarini tashkil qilar edi, shundan Janubiy Koreyaga 79 nafar va Shimoliy Koreyaga 87, jami 166 nafar yoshlar ishlash uchun yuborildi.

Bosh boshqarmaning davlat mehnat huquq inspeksiyasi xodimlari tomonidan o'tgan davrda "Mehnat" va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunlarga rioya qilish yuzasidan 655 korxona va tashkilotlarda tekshirish o'tkazildi. Mehnat qonunchiligi talablari buzilganligi uchun 265 mansabdor shaxsga 3019002 so'm jarima solindi, shundan, 2339715 so'mi undirildi. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun talablarini buzganligi uchun 68 mansabdor shaxsga 940335 ming so'm jarima solindi va shundan 686535 so'mi undirildi.

2000-yilda 9221 fuqaroga davlat pensiyasi, 2415 fuqaroga-ijtimoiy nafaqa tayinlandi. 2001-yilning 1 yanvariga viloyatda jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 164650 nafarni tashkil qildi. 5710 pensionerga ularning nafaqalari ish joylarida to'landi, qolgan 158940 nafar davlat pensiyasi oluvchilarga 2002 yil davomida jami 23 mlrd. 768,9 mln. so'm mablag' moliyalashtirildi va to'liq to'lashga erishildi. Har bir pensionerga 1 oylik pensiya miqdori 13873 so'mni tashkil qildi².

Nogironlar aravachasiga muhtoj 81 qariyadan 81 nafari ta'minlandi, shuningdek, byudjetdan 47ta, 34 tasi homiylar malag'lari hisobidan nogironlik aravachalari, 78 nafar eshitish moslamasiga muhtoj

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 16-рўйхат, 13-йиғма жилд. – 8-варақ.

²Хоразм вилояти статика бошқармаси "Ижтимоий муҳофаза бўлими"нинг 2001 йил яқунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2011. – Б.5.

qariyadan 37 nafari, qo'ltiq tayoqqa muhtoj 221 qariyaning barchasi, qo'l xassasiga muhtoj 318 nafar qariyaning ham barchasi ta'minlandi.

Viloyatda ish bilan band bo'lgan aholi soni 2000-yilda 467,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lib, 1995 yilgi ko'rsatkichga nisbatan 49 mingga, 2004-yilda 91,4 mingga, 2009-yilda 173 mingga oshgan va 588,2 ming kishiga yetgan. Viloyat aholisining ish bilan bandlik jarayonlari turli tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, ayrim sohalarda o'sish ko'rsatkichlari barqaror emas. Misol uchun, sanoat tarmog'ida ish bilan band bo'lgan aholi soni 2000-yilda 1997-yilga nisbatan 5 mingga kamayib, 34 ming kishiga tushgan, 2004-yilda 1997-yilga nisbatan 6,6 mingga oshib 40,6 mingni, 2009-yilda bu ko'rsatkich 45,5 ming kishini tashkil qilgan. Qishloq xo'jaligida ham xuddi shunday holat uchraydi. 2000-yilda 1997-yilga nisbatan 13,8 mingga kamayib 187,2 ming kishiga tushib qolgan. 2004-yilda qishloq xo'jaligida 185,3 ming kishi bandligi ta'minlangan bo'lib, faqat 2009-yilda 2004-yilga nisbatan 1 ming kishiga ko'payib, 186,3 ming tashkil qilgan. Aloqa sohasida 2000-yilda 1997-yilga nisbatan 2 ming kishi bandligi o'zgarishsiz ta'minlangan. 2004-2009-yillarda 1,8 ming kishiga tushib qolgan¹. Moliya-kredit sohasida 2000-yil 1997-yilga nisbatan 0,5 ming kishiga oshgan va 2,6 ming kishini, 2004-yilda 2,5 ming kishini, 2009-yilda 3,1 ming kishini tashkil qilgan².

O'rganilayotgan davrda viloyat bo'yicha mehnat birjasiga murojaat qilgan jami ishsizlar sonidan kelib chiqib, o'rta hisobda tahlil qilinganda, 1997-yil 1436 kishi, 2003-yil 3054 kishi, 2007-yil 3368 kishi, 2010-yil 3400 kishini tashkil qilgan. 1997-2010-yillar mobaynida viloyatda ishsizlar sonining o'rtacha hisobda ishsizlar soni yuqori bo'lgan Hazorasp tumanida 4450 kishi, Xiva tumanida 3919 kishi, Shovot tumanida 3830 kishi, 1997-2010-yillar mobaynida viloyatdagi o'rtacha hisobdagi 3009 kishidan ancha ko'p bo'lgan. 1997-2010-yillar mobaynida Yangibozor tumani o'rtacha hisobda ishsizlar soni past bo'lgan 1515 kishiga to'g'ri kelgan. Bu viloyatdagi o'rtacha hisobdagi

¹Хоразм вилояти статистика бошқармаси “Ижтимоий муҳофаза бўлими”нинг йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2011. – Б.109.

²Хоразм вилояти Статистика бошқармаси жорий архиви. Ўзбекистон мустақиллиги 20 йиллиги. Стат.тўплам. – Урганч, 2010. –Б.129.

ko'rsatkichdan 2 barobar pastdir¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2009-yil 29-oktabrdagi 1082-I-sonli qarori asosida "2010-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi"ning qabul qilinishi natijasida respublika bo'yicha 950 mingta yangi ish o'rnini tashkil etish chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, Xorazm viloyatida ish o'rniga ehtiyoj yuqori darajada bo'lib, 46 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan².

2010-yil Hazorasp tumanida 129, Xonqa tumanida 113, Gurlan tumanida 105 kishi ishizlik nafaqasiga tayinlanganlar, o'rtacha hisobda barcha shahar va tumanlarga taqsimlaganda, 71 kishidan to'g'ri kelgan ko'rsatkichdan 1,5 barobarga yaqin ko'p bo'lib, Yangibozor tumani 17, Qo'shko'pir tumanida 41 kishini tashkil qilishi 2 va 4 barobarga yaqin kam ekanligini ko'rsatadi.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan viloyatdan ishchi kuchini chetga eksport qilish bo'yicha 2003-yilda 1000 kishilik kvota ajratilishiga erishilgan bo'lsada, atigi 265 nafar kishi chet elga ishga yuborilgan³ Viloyatda ishsizlik nafaqasi tayinlanganlarni alohida tuman va shaharlar misolida 1997-2010-yillarga taqsimlab, o'rtacha hisobda tahlil qilganda, Hazorasp tumani 858, Qo'shko'pir tumani 667, Bog'ot tumani 660, Yangiariq tumani 560, Gurlan tumani 496, Shovot tumani 481, Xiva tumani 455, Urganch shahri 430, Urganch tumani 375, Xonqa tumani 369, Yangibozor tumani 354 kishini tashkil qiladi. Umumiy-yakuniy tahlilga tayangan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, viloyatda o'rtacha hisobda har yili 519 kishi ishsizlik nafaqasiga tayinlanganlar⁴.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2010-yil 3 dekabrdagi "2011-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi to'g'risida"gi 119-II-sonli qarorida 2011-yilda O'zbekiston Respublikasida 956,2 mingta ish o'rnini tashkil etish dasturini bajarish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko'rish belgilangan

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 16-r'yxat, 33-iyfma jild. – 28-varaq.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2009, 10-сон, 390-модда.

³Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 67-iyfma jild. – 2-varaq.

⁴Xorazm viloyati statika bo'sqarmasi "Ijtimoiy muhoфаза b'limi"ning 2001 йил ykunlari b'yiicha хисоботи. – Urganch, 2011.– Б.127.

edi. Qarorga binoan 2011-yilda ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash barcha hududlardagi singari jumladan, Xorazm viloyatida 50,2 ming ish o‘rinlari tashkil etilgan¹. 2013-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, viloyat aholisi 1658,7 ming kishini tashkil qilib, 2012-yilga nisbatan 26,4 mingdan ziyod kishiga o‘sdi. Mehnat resurslari soni 932,5 ming kishini tashkil qilib, iqtisodiy faol aholi soni esa, 700,2 ming kishini tashkil qiladi. Ushbu fuqarolarning 663,6 ming nafari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida mehnat faoliyati bilan mashg‘ul edilar².

Xorazm viloyatida tashkil etilgan 34 ta sanoat korxonasining 15 tasi yoki qariyb yarmi oxirgi besh yilda, aniqrog‘i 2012-yildan 2017-yilga qadar, ilgari bunday korxonalar mavjud bo‘lmagan tumanlarda barpo etildi. Shu davr ichida yana bir muhim tarmoq – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivojlandi. Keyingi besh yilda viloyatda 5 ming 300 dan ortiq yangi kichik biznes sub‘ekti tashkil etilib, ularning umumiy soni qariyb 11 mingtaga yetdi³. 2012-yilda viloyatda 34700 nafar fuqaro, ya‘ni mehnatga layoqatli aholining 5,1 foizi ishga joylashishga muhtoj edi⁴.

2013-yilda ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga 2601 ta yangi ishchi o‘rni yaratilgan. Viloyatda “2013-2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi” doirasida sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha 2013-yilda jami 147,0 mln.dollarlik 1576 ta loyiha amalga oshirilib, 10424 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi⁵.

Viloyatda yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta‘minlash dasturiga muvofiq 2014-yilda 60167 ta ish o‘rni yaratildi. 39,7 ming ish bilan band bo‘lmagan fuqaro mavjud edi. 2015-yilda 60200 ta ishchi o‘rinlari talab etildi⁶.

Xorazm viloyatida “GM O‘zbekiston” korxonasining Hazorasp filialida mahalliyashtirilgan butlovchi va ehtiyot qismlarni ishlab

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2010, 12-сон, 499-модда.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 25-рўйхат, 26-йиғма жилд.–18-варақ.

³Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2017. – Б.251.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 22-рўйхат, 29-йиғма жилд.–32 варақ.

⁵Олланазаров Б., Файзуллаев Н., Султанов Ж., Ходжаниёзов Э. Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ва ривожланиши. – Урганч, 2014. –Б.42-43.

⁶Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 28-рўйхат, 23-йиғма жилд. – 25-варақ.

chiqarishni keng rivojlantirish orqali mashinasozlik majmuasini Hazorasp, Bog‘ot, Xonqa, Urganch, Shovot, Xiva va Yangiariq tumanlari hamda Urganch shahrida tashkil etilishi, majmuaga xizmat qiluvchi qariyb 48 ta infratuzilma obyektlarini hamda 250 tadan ortiq yangi ish o‘rinlarini tashkil etishi mumkin edi¹.

Xorazmda qulay investitsiya muhiti yaratish orqali xorij sarmoyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etishga alohida e‘tibor berilishi natijasida yangi loyihalar birin-ketin ro‘yobga chiqarildi. 2016-yilda davlatimiz rahbari “Uztex” kompaniyalar guruhiga Shovot tumanining chekka hududida yuqori texnologik imkoniyatga ega yangi korxona tashkil etish va odamlarni ish bilan ta‘minlash yuzasidan ko‘rsatmalar bergan edi. Shu asosda, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 2018-yilda Italiya va Buyuk Britaniyada ishlab chiqarilgan so‘nggi rusumdagi dastgohlar bilan jihozlangan, mingdan ortiq ish o‘rinlariga ega to‘qimachilik korxonasi faoliyat boshladi. Loyiha qiymati 65 mln.AQSh dollariga teng bo‘lgan mazkur korxonada yiliga 70 mln. juft yoki qiymati 30 mln.dollarlik ayollar, erkaklar va bolalar paypoqlari tayyorlanadi².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta‘minlangan oilalar sonini va daromadlar bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta‘minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish” vazifalari belgilab berildi³. Oradan biroz vaqt o‘tib, 2018-yil 14-iyulda Prezidentning “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3856-son qarori qabul qilindi. Unda aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga,

¹Хоразм вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси. – Тошкент:IFMR, 2015. – Б.108.

²<https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tashrifidan-song-khorazmda-qandaj-ozgarishlar-kuzatildi>

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va shu asosda ish olib borildi¹.

Xorazm viloyatida Prezident SH.Mirziyoyevning 2018-yil 29-30-noyabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida jami 8,7 trln.so'mlik 1003 ta loyihalarning manzilli ro'yxati shakllantirilgan. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 15,1 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi mo'ljallangan bo'lsa, 2019-yil sentabr oyiga kelib 501 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, shu maqsadlarga jami 1078,0 mlrd. So'm (shundan 466,8 mlrd.so'm loyiha tashabbuskorlarining o'z mablag'lari, 588,4 mlrd.so'mi bank kreditlari) o'zlashtirilib, 3968 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan². Uyma-uy yurish davomida aniqlangan 389 nafar ishsiz fuqarolarning 223 nafarining bandligi ta'minlangan. Shuningdek, ish faoliyati davomida ayrim kamchiliklarga ham yo'lga qo'yilgan. 1-sektor bo'yicha 10 ta mahalla fuqaro yig'inida ishlar yakunlangan bo'lsa, Qo'shko'pir, Hazorasp, Shovot, va Yangiariq tumanlarida va Xiva shahrida bironta mahallada ishlar yakuniga yetkazilmagan³.

Keyingi yillarda Bog'ot va unga qo'shni (Shovot, Xonqa, Xiva, Yangiariq, Yangibozor, Hazorasp va Urganch) tumanlarda o'sish nuqtasi sifatida paxtani qayta ishlash va ekportga yo'naltiriladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish asosida to'qimachilik klasterlarini shakllantirish hamda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq 32 ta infratuzilma obyektlari hamda 200 tadan ortiq yangi ish o'rinlarini ochish imkonini beradi⁴.

Alohida qayd etish lozimki, Xorazm viloyatida aholi bandligini va ish o'rinlarini tashkil etish holatlari o'rganilganda, ayrim vazifalarni

¹Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.07.2018 й., 07/18/3856/1515-сон; 04.10.2019 й., 06/19/5846/3866-сон, 13.12.2019 й., 06/19/5893/4150-сон, 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон; 01.01.2020 й., 06/20/5898/4258-сон; 27.03.2021 й., 07/21/5041/0244-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.12.2021 й., 07/21/55/1173-сон/<https://lex.uz/docs/3824637>.

²Хоразм вилояти ҳокимлиги жорий архиви. 2019 йил 6 сентябрда бўлиб ўтган Халқ депутатлари Хоразм вилояти кенгашининг 48-сессияси ҳужжатлари. 1150-фонд,34-рўйхат, 94-йиғма жилд, 36-варақ.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 88-йиғма жилд. – 5-варақ.

⁴Хоразм вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси. – Тошкент:IFMR, 2015. – Б.108.

amalga oshirish viloyatda aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ish bilan band bo'lganlar sonining yildan yilga kamayishi yoki aksincha oshishi, xo'jalik tarmoqlarida ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi, ish bilan norasmiy bandlik ko'lamlarining kengayishida o'z ifodasini topadi. Ushbu jarayonlar shakllanishining mahalliy miqyosdagi mehnat resurslarini iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida taqsimotini to'g'ri tashkil etish, ish bilan bandligini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va dasturlarini ishlab chiqish nihoyatda muhim edi. Shuningdek, 1991-2021-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanib olib borilgan tahlillardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, aholi soniga mos ravishda mehnat resurslari soni va iqtisodiyotda faol aholi soni ham tobora ortib bordi. Albatta, bunday holat aholi yosh tarkibi bilan bog'liq bo'lib mehnatga layoqatlilar sonining oshishiga omil bo'lganligini ham qayd etish joiz.

Koronavirus pandemiyasi dunyodagi 2 milliard 700 million ishchiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, mamlakatimizda ham karantin tufayli 196 mingta korxonada ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmi keskin kamaygan. Karantin tufayli, tabiiyki, ishsizlar soni ham oshgan. Bunday og'ir sharoitda davlatimiz tomonidan qator chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, karantin davrida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va Jamoat ishlari jamg'armasi hisobidan 141 ming 800 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlanib, ularga 43 milliard 225 million so'm ish haqi to'lab berildi¹.

Respublikada 2020-yilning birinchi yarim yilligi holatiga mehnat resurslari soni 19,1 mln.kishini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 foizga oshdi. Ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholining 13,2 foizni tashkil etdi. Shu davr ichida mamlakat bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilgan 273 ming nafar fuqaroning 40 foizi, shuningdek, xususiy bandlik agentliklari tomonidan

¹Аҳоли бандлигини таъминлаш масалалари муҳокама қилинди/<http://uzbekistan-geneva.ch/aholi-bandligini-ta-minlash-masalalari-muhokama-kilindi.html>

joriy yilning yanvar-aprel oylarida 2890 nafardan ziyod ishsiz fuqaro ishga joylashtirildi¹.

2021-yilda viloyatda ishsizlar soni 78 ming 900 nafarni, ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil qildi. Shu yili 75 ming nafardan ortiq aholining bandligi ta'minlandi².

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha erishilayotgan yutuqlar zahirida, albatta, ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi izchil amalga oshirildi. Zero, yurtimizda aholi bandligini ta'minlash borasidagi islohotlar mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab uzoqni ko'zlab ro'yobga chiqarilayotgan izchil ijtimoiy siyosat bilan uyg'un holda olib borildi. Bu esa xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

2.3. Sog'liqni saqlash tizimi va ijtimoiy-ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda aholining turmush darajasini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy sohani, jumladan sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashdan iborat edi. Mustaqillik arafasida, aniqrog'i, 1990-yilda viloyat aholisini dori - darmon bilan ta'minlash 70 foiz bo'lgan bo'lsa, 1991-yil birinchi yarmida 44 foizni tashkil qildi. Yil oxiriga qadar bu ko'rsatkich yanada kamayib ketishi mumkin edi. O'tkazilgan tibbiy ko'rik natijasida viloyat aholisining 75 foizi turli xil kasalliklarga chalingani ma'lum bo'ldi³. Shuningdek, tibbiyot tarmog'i moddiy-texnika bazasi eski holatdali, kasalxonalarda eng oddiy zarur tibbiy narsalar, dorilar yetishmasligi hollari ham kuzatilgan⁴. 1992-yilga kelib ham sog'liqni saqlash sohasida vaziyat murakkab bo'lib qolmoqda edi. Xo'jalik aloqalarining uzilishi natijasida dori-darmonlar bilan ta'minlash

¹Аҳоли бандлиги ва реал даромадларини изчил ошириш /<https://strategy.uz/index.php?news=1064>

²<https://xorazm.uz/uz/faoliyat/media/rasmiy-maruzalar/1959-horazm-viloyati-okimi-fjermanovning-viloyatni-izhtimoiy-itisodiy-rivozhlantirishning-2021-jakunlari-va-2022-jildagi-ustuvor-vazifalarga-baishlangan-matbuot-anzhumanidagi-m-a-r-u-z-a-s-i>

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 6-йиғма жилд. – 14-варақ.

⁴Хоразм ҳақиқати. 1995. 14 январь.

nihojat og‘ir bo‘lib, shunday bir vaqtda mavjud dori-darmonlarni taqsimlashda ham kamchiliklar mavjud edi¹.

Orolbo‘yida kelib chiqishi va asoratlari jihatidan global muammo oqibatida Xorazm viloyati aholisi ham og‘ir ekologik falokatga duch keldi. Suv resurslarining, jumladan, ichimlik suvining tanqisligi va uning sifati pasayishi, yerlarning yaroqsiz holga kelishi, bioxilma-xillikning keskin kamayib ketishi, atmosfera ifloslanishi—bular Orol dengizining halokati natijasida vujudga kelgan salbiy oqibatlardir².

Mustaqil O‘zbekiston hukumati siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy muammolarni yechish bilan birga, Orol muammosi bo‘yicha qator ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Bu ishda O‘zbekiston rahbariyati birinchi navbatda Markaziy Osiyo mamlakatlarining kuchini birlashtirish masalasini ko‘tarib chiqdi. 1991-yil oktabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari suv xo‘jaligi qo‘mitasi boshliqlari Toshkent shahriga yig‘ilib, suv resurslaridan foydalanish va uni asrash masalasini muhokama qildilar. Mutaxassis olimlarning sa’y-harakatlari natijasida 1992-yil 18-fevralda Olmaota shahrida besh davlatning suv xo‘jaligi vazirlari yig‘ilib, kengash tuzdilar. Shu yili avgustda Nukus shahrida Orol masalalariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya bo‘ldi.

Orol fojiasi tufayli og‘ir ijtimoiy-ekologik muammolar girdobida qolgan Xorazm viloyati aholisini ijtimoiy muhofaza qilish masalasi davlat siyosati darajasidagi vazifalardan biriga aylandi. 1992-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘istondagi tabiiy ofatlarning oqibatlariga barham berish va ijtimoiy-ekologik muammolarni yechish chora-tadbirlari haqida”gi 405-sonli Qarori qabul qilindi³. Keyingi yillarda ham bu masalaga doir ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi. 1992-yil avgustda Nukusda “Orol va Orolbo‘yi muammolari” ilmiy anjumani, 1992-yil kuzda Yaponiya poytaxti Tokioda Orol va Orolbo‘yi muammolariga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium o‘tkazilgan. Ularda turli mamlakatlardan 130 nafardan ortiq olim va mutaxassislar ishtirok etib, muammoli

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-rўyxat, 14-йиғма жилд. — 143-варақ.

²Ўзбекистон. Инсон тараққиёти. 1999. —Тошкент: Ўзбекистон, 2000. — Б.73-74.

³Камолов С. Орол муммоси ечимларининг бориши ҳақида// Вестник ККО АН РУз. — №1.— 2000. — Б.3.

masalalarni o‘rtaga tashladilar¹.

Keyingi yillarda Orolbo‘yi aholisining ijtimoiy muhofazasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, qator amaliy ishlar bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining respublikadagi eng yaxshi sanatoriy va sanatoriy-profilaktoriylarda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 3 ming, Xorazm viloyatidan 1,5 ming nafar ayolni profilaktik davolash borasidagi taklifi ma’qullandi. Mazkur qarorga binoan Toshkent shahri va viloyati, shuningdek, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining eng yaxshi sihatgohlarida Xorazm viloyatidan 4500 nafar ayollar dam olib, davolandilar². Alohida ta’kidlash joizki, viloyatdan kelgan ayollar asosiy kasalliklari bo‘yicha davolanish bilan birga, to‘liq umumiy ko‘rikdan ham o‘tdilar. Bular aholi salomatligini tiklashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Orolbo‘yi hududida ko‘lami tobora kengayib borgan ekologik tanazzulning aholi salomatligiga ta’siri natijasida turli kasalliklar, jumladan, ayollar o‘rtasida tarqalgan kamqonlik, saraton kasali(rak), oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralarining paydo bo‘lishi kuzatildi. 1992-yilda Bog‘ot va Gurlan tumani aholisi salomatligini tekshirish natijalari aholi o‘rtasida qon sistemasi organlari va qonning buzilishi kasalliklari nisbatan ko‘payganini, ayollar o‘rtasida kamqonlilik kasalligi Bog‘ot tumanida har ming kishidan 93, Gurlan tumanida 75 kishida uchraganini ko‘rsatdi. Viloyat bo‘yicha esa, har 1000 kishiga 121 kishi to‘g‘ri keldi³.

Bolalar o‘rtasidagi kasalliklarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan kuzatishlar natijasida Gurlan tumanida bolalarda qon sistemasi va

¹Абдуллаева Я. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун. XIX асрнинг охири ва XX аср. – Тошкент: ИҶОД ДУНЙОСИ, 2004. – Б.162.

²Султонов Ж. Саодат соҳибалари // Ишонч. 2002. 30 январь.

³Эгамбердиев Р. Инсон экологияси ва Амударёнинг қуйи оқимидаги аҳолининг саломатлиги.– Урганч, 1995. – Б.100.

nafas olish organlari kasalliklari ko'p tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining pediatriya ilmiy-tadqiqot instituti xodimlarining Xorazm viloyatining 3 ta tumanida olib borgan izlanishlari natijasida mazkur tumanlarda bir yoshgacha bo'lgan bolalardagi turli kasalliklar aniqlandi. Ularning tahlilicha, mazkur uch (Yangibozor, Xonqa, Gurlan) tuman bo'yicha bir yoshgacha bo'lgan bolalardagi kasalliklar 10000 bolaga 2886,3 nafarni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumanidagi (3046,6 nafar), respublikadagi boshqa viloyatlarga qaraganda 1 yoshgacha bolalar orasida kasalliklar Xorazm viloyatida 1,5 barobar yuqori ekanligi aniqlandi¹.

Sovet davrida qishloq xo'jaligida ishlatilgan har xil zaharli ximiyaviy moddalar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatilgan metilmerkoptofos, nitrofen, temir kuporosi, karbofos, xlorofos, simazin va boshqalarning havoda, tuproq va suvdagi miqdori haddan tashqari ko'payib inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida, Xorazm vohasi aholisi o'rtasida yuqumli kasalliklardan hisoblangan sariq kasalligi ko'payib ketdi.

Xorazm viloyatida ayniqsa, bu moddalar boshqa hududlarga nisbatan bir necha marta ko'p ishlatilgan. Shuning uchun ham voha aholisi o'rtasida tug'ma qandli diabet, yurak parogi, bolalar nafas olish organlaridagi kamchiliklar, onalar va bolalarda kamqonlik kasalliklari ko'proq uchraydi. Shularni e'tiborga olib, Xorazm vohasida bu muammolarni hal qilish uchun molekulyar genetik tekshirish ishlarini chuqurroq o'rganib, bu kasalliklarni davolash usulini ishlab chiqishga mahalliy va chet ellik olimlar katta e'tibor berdilar. Jumladan, viloyat sog'liqni saqlash bo'limi va 1-klinik shifoxonasi Urganch Davlat universiteti botanika va tuproqshunoslik kafedrasini xodimlari bilan birgalikda aholi o'rtasida uchraydigan kasalliklarni aniqlash maqsadida anketa tarqatish yo'li bilan tekshiruvlar o'tkazdi. 1995-yilgi kuzatishlar natijasida aholining 73,2 foizi har xil kasalliklar bilan og'rikanligi

¹Махмудов О., Шамсиев Ф. Заболеваемость детей первого года жизни в экологически неблагоприятном регионе Приаралья // Вестник, №5, 2001.– С.8-10.

aniqlanadi¹.

1998-yil mobaynida 13 ta qishloq vrachlik punkti, Pitnak shahrida 100 o‘rinlik sanatoriya, Yangiariq tuman markaziy kasalxonasining 60 o‘rinlik qo‘shimcha binosi, Xiva tumani Beruniy jamoa xo‘jaligida 30 o‘rinlik tug‘ruqxona ishga tushirildi. Urganch shahar onkologiya dispanseriga 60 o‘rinlik qo‘shimcha bino, Xonqa tuman tug‘ruqxonasiga va Urganch shahar tug‘ruqxonasiga 200 o‘rinli qo‘shimcha bino qurildi².

Xorazm viloyati hududida 2000-yilda aholi ichimlik suvi tarmoqlarida kimyoviy va bakteriologik ifloslanish natijasida vaziyat yanada keskinlashdi. Ichimlik suvi tarmoqlari tizimining qoniqarsiz ahvoli va boshqa ekologik omillar, kasalliklar va o‘lim darajasining kuchayishini, insonning adaptatsion imkoniyatlarini oshirib, aholi salomatligi uchun yomon oqibatlarni keltirib chiqardi³. Bu jarayonlar aholi orasida endemik, yurak, anemiya, allergiya, va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishiga olib keldi. Bu, ayniqsa, homilador ayollar va bolalarga ko‘proq ta’sir o‘tkazdi⁴. Mutaxassislar fikricha, Orolbo‘yidagi, jumladan Xorazm viloyati aholisining o‘rtacha yoshi 2001-yilda 43 yoshni tashkil etgan⁵.

O‘zbekiston Respublikasida “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat Dasturi” asosida viloyat sog‘liqni saqlash tizimida ham islohotlar jarayoni chuqurlashtirildi. Ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanishga o‘tilishi natijasida samarasiz ishlayotgan kasalxonalar, shifo o‘rinlari qisqartirilib, har bir shifo o‘rniga to‘g‘ri keladigan maydon sanitariya normalari talablari darajasiga keltirildi⁶.

Urganch shahar poliklinikasi xulosasiga ko‘ra, yuqori darajada kasallanish holatlari maishiy xizmat sohasida ishlaydigan homilador ayollarda 53,5 foizni, ishlab chiqarish sohasidagi ayollarda 27,4 foizni,

¹Эгамбердиев Р. Инсон экологияси ва Амударёнинг куйи оқимидаги аҳолининг саломатлиги.- Урганч, 1995. – Б.100.

²Хоразм вилояти ҳокимияти. 1150-фонд, 7-рўйхат, 34-йиғма жилд. – 34-варак.

³Константинова Л. Функционирование бактериальных сообществ водоемов Южного Приаралья в условиях антропогенного воздействия. Дисс. ...док.биол. наук. – Ташкент, 1993. – С.49.

⁴Ещанов Т., Ажибеков М. Физиологические значения и механизмы стрессовой реакции организма при адаптации. Вестник ККО АН РУз. –2000. №4. – С.4.

⁵Абдуллаев И. Изучение общей заболеваемости среди длительно и часто болеющих женщин детородного возраста. Вестник ККО АН РУз. –2001. №5. – С.14.

⁶Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 34-йиғма жилд –32-варак.

ishlamaydigan ayollarda 18,9 foiz tashkil qilar ekan¹.

Xorazm viloyatida ekologik vaziyatning murakkablashuvi aholi salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatdi. Sanoat ishlab chiqarishi ta'sirida atrof-muhitning o'zgarishi viloyatdagi yirik sanoat korxonalari joylashgan katta shaharlarda ahvol birmuncha jiddiy tus olgan. Paxta tozalash zavodlari atrofida 400-500, 1000 m masofadagi hududda atmosfera havosi chang va mayda tolalar bilan ifloslanganligi ham aholi salomatligiga, tabiiy ekologik muhitga ta'sir qildi².

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining pediatriya ilmiy-tadqiqot instituti xodimlarining Xorazm viloyatida olib borgan izlanishlari natijasida ayrim tumanlarda bir yoshgacha bo'lgan bolalardagi turli kasalliklar aniqlandi. Xususan, Yangibozor, Xonqa, Gurlan tumanlarida bir yoshgacha bo'lgan bolalardagi kasalliklar 10000 bolaga 2886,3 nafarni tashkil etdi³. Viloyatda zaharli moddalar ta'sirida aholi o'rtasida keyingi yillarda tug'ma yurak anomaliyasi 5 marta, yurakning ishemiya kasalligi 8,5 marta, gipertoniya 7 marta, o't xaltasida tosh paydo bo'lishi 10 marta, asab tizimi kasalliklari 10 marta, oshqozon raki 2 marta, sil 2 marta, nefrit 2 marta ko'paygani aniqlangan⁴. Orolbo'yi ekologik vaziyatning izdan chiqishi munosabati bilan tadqiq etilayotgan davrda bolalarning onkologik kasalliklarga chalinishi 2 marta ko'paygan. Har yili bu kasalliklarga 1 mingdan ortiq kishi duchor bo'lib, ulardan 700 nafarga yaqini o'lim bilan tugashini mutaxassislar ta'kidlaydilar⁵.

Tahlil qilinayotgan davrda, Urganch shahrini hisobga olmaganda, 1 yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi ancha kamaygan. Viloyatning barcha ma'muriy tizimlarda go'daklar o'limi ko'rsatkichi pasayib borgan bir paytda Urganch shahrida u o'sib borgan. Xususan, 2000-

¹Абдуллаев И. Изучение общей заболеваемости среди длительно и часто болеющих женщин детородного возраста. Вестник ККО АН РУз. –2001. №5. – С.14.

²Ҳасанова З., Ҳамроев М. Хоразм вилояти саноат корхоналарининг экологик вазиятга ва аҳоли саломатлигига таъсири баҳолаш//Ўзбекистон География жамияти ахбороти.–Тошкент, 2008. 31-жилд.– Б.95.

³Махмудов О., Шамсиев Ф. Заболеваемость детей первого года жизни в экологически неблагоприятном регионе Приаралья // Вестник, №5, 2001. –С.8-10.

⁴Ҳасанова З., Ҳамроев, М. Матчинов М. Хоразм вилояти саноат корхоналарининг экологик вазиятга ва аҳоли саломатлигига таъсири баҳолаш // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. –Тошкент, 2008. 31-жилд. – Б.96.

⁵ Вестник ККО АНРУз. – 1999. №6. – С.105.

yilda shaharda bolalar o'limi ko'rsatkichi eng yuqori darajaga yetib, har tirik tug'ilgan 1000 go'dakning 79,2 nafari o'lgan yoki shu yilgi viloyat o'rtachasidan 3,2 marta ko'p bo'lgan¹.

Agar ushbu ko'rsatkichlarni nafas organlari kasalliklariga ko'ra tahlil qilinsa, hududda nafas organlari kasalliklari sababli o'lim darajasi (100 ming kishiga nisbatan) Qoraqalpog'iston Respublikasida 1996-yildagi 128,4 kishidan 2000-yilda 120,1 kishini tashkil qilgani holda, Xorazm viloyati bo'yicha 1996 yildagi 106,9 dan 2000-yilda 77,4 kishiga tushgan². Garchi barcha kasalliklar bo'yicha tadqiq qilinayotgan yillarda o'lim ko'rsatkichlari kamayib borgan bo'lsada, O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori edi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida qon aylanish tizimidagi kasalliklar va ovqat hazm qilish organlari kasalliklari bo'yicha o'lim ko'rsatkichidan tashqari boshqa barcha ko'rsatkichlar respublika darajasidan yuqori bo'lsa, Xorazm viloyatida faqatgina qon aylanish tizimidagi kasalliklar bo'yicha o'lim darajasi respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.

1994-1996-yilda Orol dengizi havzasi dasturining birinchi fazasi doirasida "Orol dengizi – O'zbekiston: toza suv, sanitariya va salomatlik" loyihasi amalga oshirilib, jami 117 mln. AQSh dollari hajmida ish bajarildi. Bu mablag'ning 75 mln. dollari Jahon banki tomonidan, qariyb 20 mln. dollari Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondi, 9,4 mln. dollari Kreditancalt fur wiederaudu banki (Germaniya) va 12,75 mln. dollari O'zbekiston hukumati tomonidan ajratildi. Loyiha doirasida Qoraqalpog'istonda suv quvurlari qurilishi hamda Xorazm viloyatida qishloqlarni iqtisodiy rivojlantirish kabi ishlar amalga oshirildi³.

Mana shunday sharoitda ijtimoiy sohani rivojlantirish, jumladan, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, aholini sof havo, toza ichimlik suvi, gaz bilan ta'minlash va boshqalar orqali ularning yashashi uchun qulay mikrosharoitni yaratish bilan bog'liq masalalar turar edi. Shu

¹Хамроев М. Хоразм вилояти ижтимоий экологияси ва аҳоли саломатлигининг географик хусусиятлари. географ.фан. номзод. дисс... Урганч, 2009. – Б.87.

²Ўзбекистон Республикаси Макроэкономстат бошқармаси жорий архиви: Охрана окружающей среды в Узбекистане. Стат. сборник. –Ташкент, 2002. –С.148.

³ См: Бекимбетов Б. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990-е гг.).автореф. канд. ист. наук. – Нукус, 2006.

bois, Xorazm viloyatida ham inson hayoti uchun qulay yashash sharoitini yaratishga xususan, onalar va bolalarga, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari yaxshilashga asosiy e'tibor qaratildi. Dastlabki yillarda Urganch shahar Markaziy kasalxonasi tez tibbiy yordam va viloyat sanitariya aviatsiyalari negizida Respublika "Tez yordam" markazi Xorazm filialining 10 ta bo'limi ochilib, ishga tushirildi. Shuningdek, bu davrda viloyatda ko'plab sog'liqni saqlash obyektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxona va turar-joy binolari qurildi. Xonqada tug'ruqxona majmuasi, Urganchning Navro'z shaharchasida, Yangibozorda poliklinika va yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Pitnakda SES binolari qurilib, eng zamonaviy tibbiyot asbob-uskunolari bilan ta'minlandi¹.

Xorazm viloyatida 1994-yil davomida aholi salomatligini muhofaza qilish ishlari doirasida bir yilda tibbiyot sohasiga viloyat byudjetidan 95 mln. so'm sarflangan. "Dori-darmon" davlat hissadorlik viloyat uyushmasi 4 mln. 63 ming so'mlik zarur dorilar keltirilgan. Viloyatda xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bo'yicha belgilangan tadbirlar to'la bajarilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy tanglik bu sohaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tibbiyot tarmog'i moddiy-texnika bazasi yangilanmagan, kasalxonalarda eng oddiy, zurur tibbiy narsalar, dorilar yetishmasligi, ba'zan ta'magirlik hollari mavjud edi².

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholi salomatligini muhofaza qilishga e'tibor qaratilgan bo'lsada, ekologik nosog'lom muhit, ichimlik suvi sifatining yomonligi bilan bog'liq holda turmush darajasining pastligi aholi kasalliklarini keskin kamaytirishga imkoniyat bermasdi³.

1996-yilda Xorazm viloyati bo'yicha 7327,0 ming so'm miqdorida bepul dori darmon vositalari sog'liqni saqlash muassasalariga taqdim qilingan⁴. Shu yili respublika hukumati yana dori-darmon sotib olish uchun 30 mln.so'm qo'shimcha mablag' ajratdi. Sog'liqni saqlash

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-r'yixat, 24-yig'ma jild. – 32-varaқ.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxiv. 1150-fond, 7-r'yixat, 24-yig'ma jild. – 18-varaқ.

³Здравоохранение: состояние и перспективы развития // Вести Каракалпакстана. 1996. 15 июня.

⁴ЎЗМА, М-15-fond, 1-r'yixat, 629-yig'ma jild. –101-varaқ.

muassasalari uchun 9 ta yengil avtomobil sotib olib berdi¹.

1997-yili viloyatda sog'liqni saqlashga 1 mlrd.197 mln.so'm sarflandi va belgilangan reja 100 foizga bajarildi. Viloyat tibbiyot muassasalariga dori-darmon va o'rash vositalari xarid qilishga 1997-yil uchun 102 mln.298 ming so'm rejalashtirilgan bo'lib, uning 61496 ming so'mi sarflangan. Sababi, bu turdagi harajatlarga kam mablag' ajratilgan. Shuningdek, ayrim kasalxonalarda normadan ortiq, ayrimlarida, jumladan, Yangibozor, Yangiariq va Qo'shko'pir tumanlarida dori-darmon tarqatish qoniqarsiz ahvolda edi².

Mintaqadagi ekologik sharoit va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning qoniqarli ahvolda emasligi hisobga olinib, suv tarmoqlari qurilishi ancha jadallashtirilgan bo'lsada, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi yildan-yilga pasayib bordi. Masalan, ushbu ko'rsatkich 1995-yilda 75,8 foizni, 2000-yilda 86,7 foizni tashkil etgan³.

1999-yilda viloyatning Urganch, Yangibozor, Qo'shko'pir tumanlaridagi ba'zi qishloq vrachlik ambulatoriyalarida birorta ham malakali vrach ishlamas edi. Tibbiy muassasalarni zarur dori-darmonlar bilan ta'minlash ham yomon ahvolda edi. Aholining 35 foizi, jumladan, qishloq aholisining 40 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagani bu sohada olib borilayotgan ishlarning qoniqarsiz tashkil etilganidan dalolat edi⁴. Samarasiz ishlayotgan tibbiyot muassasalari xususiylashtirilib, qolganlarida shifo o'rinlari sanitariya normalari talablari darajasiga keltirildi. 2000 yilga qadar 38 ta, shu jumladan 1999-yilda 5 ta xususiy davolash muassasalari ro'yxatga olindi. Biroq, kasalxonalarni dori-darmonlar bilan ta'minlash hamon nochor ahvolda edi⁵.

Orolbo'yi hududi atrof-muhitini sog'lomlashtirish va uni muhofaza qilish jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri global iqlim o'zgarishidan himoyalaniish tamoyili bo'lib, bu borada Xorazm

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 27-йиғма жилд. – 30-варақ.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 30-йиғма жилд. – 21-варақ.

³Хамроев М. Хоразм вилояти ижтимоий экологияси ва аҳоли саломатлигининг географик хусусиятлари. Геогр. фан. номзод. дисс.... автореф... – Ташкент, 2009.– Б.14.

⁴Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 50-йиғма жилд. – 11-варақ.

⁵Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 38-йиғма жилд. – 44-варақ.

viloyatida mahalliy va xorijlik mutaxassis-olimlar tomonidan maxsus YUNESKO loyihasi ustida ish olib borildi. 2001-yildan boshlab, Urganch Davlat universitetida Germaniyaning Bonn universiteti bilan hamkorlikda “Xorazm viloyatida yer va suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik qayta tuzish” mavzuida xalqaro ilmiy loyiha bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ushbu loyiha viloyatda ekologik ahvol va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, aholi salomatligi va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, demografik jarayonlarni o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan edi. Sihatgohlarda davolanishga muhtoj bo‘lgan 2303 nafar qariyadan 246 nafari Oltiariq, 454 nafari Tovoqsoy sihatgohida, 10 nafari Nuroniylar oromgohida, 1124 nafar qariya esa mahalliy sihatgohlarda bepul davolandi. Viloyat bo‘yicha 2001-yilda 12887 nafar qariya imtiyozli ravishda 46 mln. 406,4 ming so‘mlik dori-darmon bilan ta‘minlandi¹.

O‘zbekistonda 2001-yil “Onalar va bolalar” yili deb e‘lon qilinishi munosabati bilan hududda sog‘liqni saqlash borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bundan deyarli yarim asr ilgari Urganch shahrida bunyod etilgan viloyat bolalar kasalxonasi vaqt o‘tishi bilan ancha eskirib, zamon talabiga javob bermay qolgan edi. Shifoxonani zamonaviy yangi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash talab qilinardi. Qisqa fursatlarda 400 mln. so‘mlik ta‘mirlash ishlari amalga oshirilishi natijasida shifoxona yangidan qad ko‘tardi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan kasalxonani zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 200 mln. so‘m mablag‘ ajratildi. 2001-yil 16-noyabrda mazkur kasalxona foydalanishga topshirildi va kasalxona jamoasiga “Xorazm avtotexxizmat” hissadorlik jamiyati jamoasi va “Sulton-Maram” xususiy firmasi tomonidan yangi 2 ta “Damas” mashinasi sovg‘a qilindi².

Mustaqillikning dastlabki yillarida ekologik muammo umumjahon

¹Эшчанов Р., Давлетов С. Глобал иклим ўзгариши ва Ўзбекистон шароитида унинг салбий оқибатларидан химояланиш йўллари. Урганч, 2010. – Б.24.

²Шарипов М. Онalar va bolalarга katta sovg‘a // Xorazm haqiqati. 2001. 21 noyabr.

darajasidagi muammoga aylanganligi xalqaro tashkilotlar orqali butun dunyoga ma'lum qilindi. Turli tashkilotlar bilan hamkorlikda shartnomalar tuzilib, birgalikda dasturlar ishlab chiqildi. Insoniyat salomatligiga rahna soladigan ekologik muammo O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Viloyat aholisining toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida 2002-yilda 4 mln.926 ming AQSh dollari miqdorida chet el bank kreditlari o'zlashtirildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 5-iyuldagi 242-son qarori hamda shu yuzasidan viloyat hokimining 2002-yil 22-iyulda 128-son qarori asosida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 2003-yilda viloyatda 6715 o'ringa mo'ljallangan 36 ta shifoxona, 199 ta poliklinika, 38 ta uyda tashkil etilgan shifoxona, 105 ta qishloq vrachlik punktlari, 41 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 105 ta feldsher akusherlik punktlari, 192 ta dorixona, 13 ta sanitariya epidemiologiya muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatar edi².

2005-yilga kelib, Xorazm viloyatida 35 ta shifoxona, 1 ta sihatgoh, 217 ta davolash-profilaktika muassasalari, bir smenada 20000 bemorni qabul qiladigan ambulatoriya, poliklinika muassasalari, jumladan, 147 ta qishloq vrachlik punktlari qatoriga yana 1 ta yangi shifoxona (Yangibozor tumanida), 1 ta yangi tug'ruqxona (Xonqa tumanida), 1 ta markaziy shifoxonaning yangi bloki (Yangiariq tumanida), 10 ta qishloq vrachlik punktlari homiylik ko'magi bilan qurilib, ishga tushirildi³.

O'zbekiston tashabbusi bilan 2008-yili Toshkentda Orol bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazilib, ushbu muammo xalqaro darajada ko'rib chiqildi. Anjumanda 90 dan ortiq xalqaro tashkilotlar ishtirok etdilar. O'tkazilgan forum yakunlari bo'yicha qariyb 1,5 mlrd dollarga

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 55-iyfma jild. – 96-varaқ.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 63-iyfma jild. – 10-varaқ.

³Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 80-iyfma jild. – 17-varaқ.

teng loyiha ma'qullanib, qabul qilindi¹.

ViLOYATda nogironlarni sifatli tibbiy tekshirishdan o'tkazish hamda samarali tibbiy-ijtimoiy va kasb bo'yicha reabilitatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-sentabrdagi 193-son qaroriga asosan bosh, ixtisoslashtirilgan, tumanlararo va tuman (shahar) tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatining tashkil etilishi, hukumat tomonidan ijtimoiy himoyaga qaratilgan muhim masala ekanligini ifodalaydi².

2010-yil 21-sentabrda AQShning Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida ham Orol dengizining qurishi davom etayotgani va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo'layotgani ta'kidlandi³. Ekologik xavf doimiy tus olib, o'zining salbiy ta'siri ko'rsatayotgan hozirgi kunda "... Orol dengizini tom ma'noda qutqarib qolishning amalda deyarli iloji yo'qligini yaxshi anglaymiz. Ammo bu yerda yashayotgan aholiga sog'lom turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida har tomonlama puxta o'ylangan chora-tadbirlar Dasturini amalga oshirishimiz shart"⁴ligi ta'kidlanib, shu maqsadda, 2011-yil 13-may kuni Toshkentda "VI Umumjahon suv forumi sari-suv xavfsizligi yo'nalishida hamkorlikdagi sa'y-harakatlar" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 32 mamlakatdan 400 dan ziyod ekspertlar, olimlar, o'ttizga yaqin nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari vakillari ishtirok etib, Markaziy Osiyodagi suv taqchilligi muammolarini hal etish, aholini suv bilan ta'minlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bog'liq muhim masalalarni muhokama qildilar⁵.

Aholi salomatligini yanada yaxshilash, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish va tibbiyot muassasalarini modernizatsiya

¹Оролни кутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлари раҳбарларининг кенгайтирилган таркибдаги учрашуви// Халқ сўзи. – Тошкент, 2009. 30 апрель.

²Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 35-36-сон, 305-модда.

³Пленарное заседание Саммита ООН "Цели развития тысячелетия" (www.gov.uz).

⁴Оролни кутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлари раҳбарларининг кенгайтирилган таркибдаги учрашуви // Халқ сўзи. 2009. 30 апрель.

⁵Бугунги ва келажак авлодлар фаровонлиги йўлида // Халқ сўзи. 2011. 14 май.

qilishni moliyaviy manbalar bilan ta'minlash 2013-yilgi mahalliy byudjet ijrosining asosiy vazifalaridan biri bo'ldi. Mazkur yilda mahalliy byudjetdan sog'liqni saqlash harajatlariga 167,1 mlrd.so'm moliyalashtirildi. Ushbu mablag'lar doirasida bemorlarni kerakli dori-darmon bilan ta'minlash uchun qariyb 2,3 mlrd.so'm mablag' sarflandi¹.

Viloyatning chekka Qo'shko'pir, Gurlan, Hazorasp, Shovot va Yangiariq tumanlarida toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish boshqa ma'muriy hududlaridan ancha past. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich Qo'shko'pir tumanida ayanchli ahvolda. Tuman aholisining bor-yo'g'i 37,2 foiz yoki 1/3 qismidan sal oshiqrog'i toza ichimlik suvini iste'mol qilishadi. Viloyat aholisining 30 foizga yaqini hozirda tozalanmagan yer osti suvlarini iste'mol qilmoqda².

2016-yil 31-oktabrda qabul qilingan "Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga muvofiq bu mahsulotlarning narxi ancha arzonlashdi³. Respublika hukumatining hududdagi ekologik muvozanatni tiklash yo'lida xalqaro hamjamiyat bilan olib borayotgan hamkorlikdagi chora-tadbirlari diqqatga sazovor bo'lib, jahon hamjamiyatining Orol atrofidagi ekologik muammoni bartaraf etishga bo'lgan e'tibori kuchaydi, qabul qilingan loyiha va dasturlarni joriy etish uchun faqat keyingi 10 yil mobaynida O'zbekistonda 1 mlrd dollardan ortiq, jumladan, xorijiy kreditlar, texnik ko'mak va grantlar hisobidan qariyb 265 mln dollarga teng mablag' sarflandi⁴.

2019-yilda viloyatda aniqlangan sog'liqni saqlash sohasidagi mavjud 121 ta muammodan 69 tasi yoki 57 foizi hal qilingan. O'rganishlar davomida dori-darmon so'rab murojaat qilgan 48 nafar fuqarodan 35 nafari bepul retsept asosida zarur bo'lgan dori vositalari ,

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 26-рўйхат, 23-йиғма жилд.—19-варақ.

²Хамроев М. Хоразм вилояти ижтимоий экологияси ва аҳоли саломатлигининг географик хусусиятлари. География фанлари номз.дисс. автореф.2009. — Б.14-15.

³Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги бочкичга кўтарамиз. 1-жилд. — Ўзбекистон:НМИУ, 2017. — Б.310.

⁴Оролни кутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлари раҳбарларининг кенгайтирилган таркибдаги учрашуви// Халқ сўзи. — Тошкент, 2009. 30 апрель.

2 nafar fuqaro nogironlik aravachasi, 4 nafar fuqaro qo‘ltiq tayoqlar, 6 nafar fuqaro viloyat va respublika darajasidagi tibbiyot markazlarida bepul davolanish uchun orderlar bilan ta‘minlagan¹.

“O‘zbekiston Respublikasida tadqiqotlar va innovatsiyalarni tahlil qilish va rejalashtirish” nomli to‘plamda toza suv: ichimlik suvidan foydalanish O‘zbekiston uchun eng katta muammolardan biri bo‘lib qolayotgani, hududiy tafovutlar, aholining atigi 51,2 foizi xavfsiz boshqariladigan suv manbalaridan foydalanayotgani hamda Orol mintaqasini ayniqsa, Xorazm viloyatini ichimlik suvi bilan ta‘minlash va yashash sharoitini yaxshilashga oid ilmiy tahlillar keltirilgan².

Xorazm viloyati aholisining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida 2021-yildan boshlab 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitlar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatildi. Bunda 2021-yilda–11 mln.nafar, 2022-yilda–17 mln. aholi qamrab olinadi”³.

Viloyatda 2021-yilda 2 ming 555 nafar o‘rta tibbiyot xodimidan iborat “tibbiy brigadalar” tashkil etildi, 5ta “oilaviy shifokor” punkti ishga tushirildi. Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filiali va Respublika kardiologiya markazi Xorazm filiali bazasida Orolbo‘yi kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi⁴.

Orol dengizi suvini barqarorlashtirish sari olib borilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston o‘rtasida bo‘layotgan masalaga oid uchrashuvlar chog‘ida vujudga kelgan turli qarashlarning bo‘lishi tabiiy bo‘lib, qo‘shni respublikalar bilan o‘zaro kelishuvga erishish,ushbu dolzarb masalani hal etish muhimdir.

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 34-рўйхат, 88-йиғма жилд. – 5-варақ.

²Ўзбекистон Республикасида тадқиқотлар ва инновацияларни таҳлил қилиш ва режалаштириш. Сирин Элси. GOSPIN Илм-фан, технология ва инновацион сиёсат бўйича мамлакат профиллари. 10-Жилд. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Таълим, Фан ва Маданият масалалари бўйича Ташкилоти, Париж, Франция, ЮНЕСКО, 2020. – Б.24.

³Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент:Ўзбекистон, 2021. – Б.211.

⁴<https://xorazm.uz/uz/faoliyat/media/rasmiy-maruzalar/1959-horazm-viloyati-okimi-fjermanovning-viloyatni-izhtimoiy-itisodiy-rivozhlantirishning-2021-jakunlari-va-2022-jildagi-ustuvor-vazifalarga-baishlangan-matbuot-anzhumanidagi-m-a-r-u-z-a-s-i>

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati olib borgan odilona siyosat bevosita Xorazm viloyati aholisining turmush sharoitini yaxshilashga qaratildiki, natijada ularning kelajakka bo'lgan ishonchi yanada ortib bordi. Zero, respublika hukumatining hududdagi ekologik muvozanatni tiklash yo'lida xalqaro hamjamiyat bilan olib borgan hamkorlikdagi chora-tadbirlari diqqatga sazovor bo'ldi. Aholining ijtimoiy hayoti va bu sohada amalga oshirilgan ishlardan xulosa shuki, butun mamlakatda bo'lgani kabi Xorazm viloyatida ham ijtimoiy soha, jumladan, aholini ijtimoiy himoyalash, ish bilan bandligini ta'minlash, tibbiyot sohasini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga jiddiy kirishildi.

Xorazm viloyati aholisi umumiy kasallanishi Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasiga yaqin bo'lsada, biroz farq qiladi, u yerda aholi nafas olish a'zolari bilan eng ko'p kasallansa, Xorazm aholisi ko'proq ovqatlanish a'zolari kasalligidan aziyat chekadi. Mintaqa aholisining suv bilan bog'liq, ayniqsa ayrim a'zolarida tosh va tuz yig'ilishi kasalligi bilan xastalanishi respublika ko'rsatkichidan 3-4 marta ortiq. Viloyatda tuproq va grunt suvlarining yuqori darajadagi minerallashtirish hududlari mavjud bo'lib, bu joylarda suyak-mushak, urologik, kasalliklar ko'p uchraydi. Viloyatning Yangibozor va Yangiariq tumanlarida tibbiy xizmat infratuzilmasi yaxshi emasligi, yuqumli kasalliklarning asosiy qismi yer osti suvlarini aholi tozalamasdan iste'mol qilishi tufayli yuzaga keladi. Hududda ichimlik suvi tarmoqlarining qoniqarsiz ahvoli va boshqa ekologik omillar, kasalliklar va o'lim darajasi kuchaygani, aholi salomatligi uchun yomon oqibatlar kelib chiqayotgani bois, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik respublika tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa asosan, Orol havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini saqlab qolish, yer, suv, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doirasida olib borilmoqda.

III BOB. XORAZM VILOYATIDA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISLOHOTLAR VA MADANIY TARAQQIYOT

3.1. Xorazm viloyatida ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish borasidagi tadbirlar.

Xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos ma'naviy boyliklarini har tomonlama o'rganish, ayniqsa uning alohida olingan hududlarida, jumladan Xorazm viloyatida ma'naviy qadriyatlarni tiklash va uni rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Xorazmning jahon ilm-fani, madaniyat va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligi tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ekanligini ta'riflab; “muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin xarflar bilan bitilgan”¹, deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Bu borada 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini qabul qilish to'g'risida”gi PF-60-son farmonda “Harakatlar strategiyasidan–taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilining yettita ustuvor yo'nalishdan iborat “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturidagi 73-maqсадda “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish”² masalasi vazifa etib belgilangan.

O'zbek millatining ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan Xorazm tarixiy-madaniy yodgorliklari, me'moriy obidalarini asrab-

¹Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.241.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини қабул қилиш тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони /https://lex.uz/docs/5841063.

avaylash, ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklash, obodonlashtirish va yanada rivojlantirish hamda bu borada erishilgan natijalarni tahlil etishga, mavjud muammolar yechimini topishga kirishildi. Chunki bu voqea betakror tabiati, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan noyob madaniy va tarixiy obidalari, infratuzilma tarmoqlari bilan O'zbekistonning yuksak sayyohlik salohiyatiga ega bo'lgan hududlaridan hisoblanadi"¹.

Mustaqillik tufayli buyuk siymolarning tavallud kunlarini nishonlash, ularga atab majmualar qurish, ziyoratgohlar bunyod etish imkoniyati tug'ildi. Tarixan qisqa davrda Xorazm viloyati shaharlari sharqona ko'rinish, milliy o'ziga xoslik kasb eta boshladi. Viloyatda 1992-yilning boshida 4 ta xalq teatri, 1 ta maqomchilar jamoasi, 1 ta vokal-cholg'u jamoasi, 1 ta folklor-etnografik jamoasi, 2 ta "namunali" bolalar jamoasi va 14 ashula va raqs xalq jamoalari mavjud edi². 1991-yili viloyatda jami 18 madaniy sport kompleksi faoliyat ko'rsatgan³. 1992-yilda viloyatdagi madaniyat va istirohat bog'lari soni 7 tani tashkil etdi⁴.

Ayni paytda, madaniyat uylaridagi to'garaklar ishini tashkil etish va rivojlantirish uchun doira va ruboblar yetishmasdi. Xiva tuman madaniyat bo'limiga qarashli tuman markaziy uyining binosi ham talab darajasida emasdi. Madaniyatuyi "Ichan qal'a" hududidagi Amir to'ra madrasasiga joylashgan bo'lib, binoni isitish asboblari ishlamasdi. Shuning bilan bir qatorda, aholga pullik xizmat ko'rsatishda ayrim kamchiliklar va o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud edi. Ogahiy nomli viloyat teatrda 9 oy davomida umumiy tadbirlar o'tkazish rejasi 72 foizga, tomoshabinlar jalb qilish rejasi 56 foizga, spektakllardagi daromad olish rejasi 60 foizga bajarilgan⁵ Xiva "Ichan qal'a" muzey qo'riqxonasida faoliyat ko'rsatayotgan 21 ta bo'limdan 9 ta bo'lim 9 oylik rejani bajara olmadi. Ayniqsa, M.Sheroziy, R.Madaminov, A.Navoiy, al Xorazmiy, Urganch o'lkashunoslik

¹Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.241.

²Хоразм Давлат Архиви. 545-фонд, 1-рўйхат, 263-йиғма жилд. – 6-варак.

³Хоразм Давлат Архиви. 545-фонд, 1-рўйхат, 263-йиғма жилд. – 15-варак.

⁴Хоразм Давлат Архиви. 545-фонд, 1-рўйхат, 266-йиғма жилд. – 20-варак. Клуб муассасаларининг 1992 йил ишлари бўйича ёзма ҳисоботи.

⁵Хоразм Давлат Архиви. 545-фонд, 1-рўйхат, 263-йиғма жилд. – 10-варак.

muzeylari o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmasdantasdiqlangan rejani 24 foizdan 47 foizgacha bajardilar, xolos. Urganch sur'atlar galereyasi ma'muriyati kassasiga shu yili avgust oyida bir so'm ham tushmadi.¹ Aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha 1993-yil yarim yillik reja 169 foizga, ya'ni, 2560.6 ming so'm o'rniga 4329,2 ming so'mga bajarildi. Ogahiy nomli viloyat drama va komediya teatri yalpi daromad olish rejasini bajargan bo'lsa ham, tadbirlar o'tkazish rejasini 45 foiz bajargan, xolos. "Xorazm" ansambli 71 konsert o'tkazish o'rniga atigi 12 konsert o'tkazgan. K.Rahmonov guruhi esa 43 konsert o'rniga 23 konsert, "Xorazm navolari" ansambli esa 36 konsert o'rniga 6 konsert o'tkazgan².

Mustaqillik yillari Xorazm viloyatida san'at, madaniyat va adabiyotning gurkirab rivojlanish davri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. San'atkorlarimiz istiqlolni tarannum etuvchi ko'plab kuy-qo'shiqlar, she'rlar, badiy kompozitsiyalar va teatr asarlari yaratdilar. Ular Respublika miqyosida o'tkazilgan har bir ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib, har doim faxrli o'rinlarni egalladilar.

1991-yilda teatr san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun: Shuhrat Devonov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", Bekjon Otajonov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", Qadamboy Rahimov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", Bikajon Rahimova "O'zbekiston xalq artisti" unvonlariga musharraf bo'ldilar³.

"Navro'z" va "Mustaqillik" bayramlari munosabati bilan poytaxt Toshkentda o'tadigan tomoshalarni Xorazm san'ati, uning jozibador, o'ynoqi kuylari, maftunkor raqslarisiz tasavvur etish mumkin emas. Har galgi bayram konsertiga yangi dasturlar va ssenariylarning ko'tarinki ruhda tayyorlanishi odat tusiga aylanib qoldi. Bayram tomoshalarining muvaffaqiyatli chiqishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, madaniyat va san'at fidoyisi Yo'ldosh Yusupov, "O'zbekiston

¹Xorazm Davlat Arxivi 545-fond, 1-p'uyhat, 297-iyfma jild.-16-varak. Xorazm viloyati Madaniyat ishlari bo'shqarmasi kengashining qarori. 1994 yil 12 oktyabr' №7/1-12. Urgench.

²Xorazm Davlat Arxivi 545-fond, 1-p'uyhat, 297-iyfma jild.-86-varak. Xorazm viloyati Madaniyat ishlari bo'shqarmasi kengashining qarori.

³San'atkor eldamiz-dilda iftixor // "Xorazm madaniyati va san'ati", 2001, 5 avgust.

xalq artisti” Gavhar Matyoqubova, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” Svetlana Xudayberganova, “Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist” Farxod Davletov, Xorazm viloyati televideniyasining bosh rijissyori Kenja Qurbonboyev va boshqalarning xizmatlari katta bo‘ldi. Teatrlashgan tomoshalarning eng qiziqarli sahna ko‘rinishlari Xivaning 2500 yilligi va Urganchda o‘tkazilgan Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi tantanalarida namoyish etildi.

Har ikkala to‘yga ham poytaxtimiz Toshkent shahridan va respublikaning barcha viloyatlaridan mingdan ortiq san’atkorlar tashrif buyurib, o‘z san’atlarini namoyish qildilar. O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon ssenariysi asosida tayyorlangan Xiva yubileyining konsert qismida Xorazm barcha Lazgi yo‘llari ijro qilinib, jozibali go‘zal raqslar sahnalashtirildi, dilbar qo‘shiqlar aytili. 1992-yil mart oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Bodom guli” respublika ko‘rik-tanlovida Ravshanbek Matyoqubov oliy o‘rinni, Gavhar Zoirova va Shirin Eshniyozovalar birinchi o‘rinni oldilar. O‘zbekiston bastakorlari turkumidan Komiljon Otaniyozov qo‘shiqlari ijrosi bo‘yicha respublika ko‘rik tanlovida xonanda Qutlimurod Qo‘chqarov birinchi o‘rinni olishga sazovor bo‘ldi. Shu yili 23-27-dekabrda Islom shoir tavalludining 120 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rik tanlovda baxshi shoir Abdulla Qurbonnazarov oliy o‘rinni oldi. Ogahiy nomli viloyat musikali drama va komediya teatri artisti Gulora Rahimovaga “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berildi Xonanda Ro‘zmat Jumaniyozov “O‘zbekiston xalq xofizi” unvoniga sazovor bo‘ldi¹.

Xazorasp tumanida 700 o‘rinli madaniyat uyi qurilishi 1989-yilda boshlangan bo‘lib, qurilishni “Tuyamo‘yingidrostroy” 2-sonli ko‘chma mexanizatsiyalashgan kolonna quruvchilari olib borayotgan edi. Lekin bu madaniyat uyini qurilishi 1992-yildan boshlab to‘xtatib qo‘yildi². Xonka tumanida 3 ta, Yangibozor tumanida 2 ta, Gurlan tumanida 1 ta, Xiva tumanida 1 ta, Urganch tumanida 2 ta, Yangiariq tumanida 5ta, Xazorasp tumanida 3 ta, Bog‘ot tumanida 2 ta kutubxona yangi binolarga ko‘chib o‘tgan.O‘quv zallariga ega bo‘lgan kutubxonalar soni

¹Xorazm Davlat Arxivi 545-фонд, 1-рўйхат, 297-йиғма жилд.—86-варақ.

²ЎЗМА. 7-фонд, 1-рўйхат, 81-йиғма жилд.—28-варақ.

1991-yilda 48 taga yetdi.

Bu davrda viloyatdagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida qator muammo va qiyinchiliklar bor edi. Masalan, ko'pchilik kutubxonalar moddiy-texnika bazasi zamon talablaridan orqada qolib, 10 foiz kutubxona o'quv zaliga ega edi. 1992-yilda viloyat kutubxonalari 401,3 ming kitobxonga xizmat ko'rsatib, aholining 47,7 foizini kutubxonaga jalb qildi. Viloyat klublarida 1992-yili to'garaklar soni 966 yetkazildi. Ularda 16501 dan ziyod qatnashchi ishtirok qilib, shulardan 11555 dan oshiq qatnashchi 698 ta badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etdilar¹.

Urganch shahrida Abulg'azi Bahodurxonning ot minib turgan haykali, shoir va tarixnavis Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek haykali, Amir Temur byusti, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi memorial majmuasi, mustaqilik timsoli "Xumo" qushi skulpturasi, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov haykali, Xivada turkman xalqining klassik shoiri Maxtumquli xaykali Shovot tumanida Yusuf Hamadoniylar ziyoratgoh majmuasi, Qo'shko'pir tumanida Zamahshariylar masjidi, Yangiariq tumanida xalq orasida Ostona bobo nomi bilan mashhur bo'lgan Shayx Muxtor Vali ziyoratgohi, Urganch shahrida Beruniy, Al-Xorazmiy bog'lari va boshqa arxitektura inshootlarining bunyod etilishi xalq ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bular ichida, ayniqsa, Shovot tumanida 1994-yilda ochilgan Yusuf Xamadoniylar ziyoratgohi, Urganch shahrida 1999-yil noyabrda qad ko'targan "Jaloliddin Manguberdi", 2000-yil 9 mayda ochilgan "Xotira maydoni" yodgorlik majmualari viloyat shahar va tumanlar markazlarini tamomila o'zgartirib, yangi chiroy ochdi².

Viloyat bo'yicha 140 dan ortiq me'morchilik va 37 ta arxeologik yodgorlik bo'lsa, ularning asosiy qismi ziyoratgohlar va maqbaralardir. Shu sababdan muqaddas ziyoratgohlarning tadrijiy holatini tasnif etish

¹Хоразм Давлат Архиви. 545-фонд, 1-рўйхат, 280-йиғма жилд.— 36-варақ.

²Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб.—Тошкент:Истиқлол, 2001.— Б.54-55.

muhim ahamiyat kasb etadi¹. Viloyatdagi mavjud me'moriy obidalar ichida me'morchilik jihatdan ahamiyatga molik hisoblangan Sayid Allovuddin, Pahlavon Mahmud, Uch avliyo bobo, Abdolbobo va Xarisbobo(Xiva), Shayx Muxtor Valiy, Ostona bobo(Yangiariq), Usmon Sayidbobo (Gurlan), Xo'rozshayx bobo, Doshqinjon bobo, Shahobuddin Xo'ja bobo (Urganch) kabi ziyoratgohlar alohida o'rin tutadi².

1991-yili Urganch shahrida nafis san'at markazi ochildi va uni rivojlantirish uchun viloyat hoqimligi tomonidan 100 ming so'm pul ajratildi. Shuningdek, Urganch shahrida Xiva "Ichan qal'a" muzey qo'riqxonasining filiali tashkil qilindi va uni jihozlash uchun 400 ming so'm, Xiva shahridagi eski obidalarni ta'mirlash va obodonlashtirish maqsadida 6 mln.so'm ajratildi. Xivadagi obidalarda Markaziy Osiyoning boshqa hududlardan farq qiladigan, nabotot tasvirlari qora rang bilan chegaralangan shakllar oq bo'yoqlarda ifodalangan bo'lib, qolgan joylari moviylicha saqlanib qolgan"³.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati matbuot boshqarmasi koshida "Xorazm" nashriyoti tashkil etilishi voha adabiy harakatchiligida yangi davrni boshlab berdi. Nashriyotning ilk kitobi "Tabarruk tashrif" degan ramziy nom bilan chop etilgandi. Ushbu kitob tufayli adabiyot ixlosmandlari Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bogdodiy, Bedil, Paxlavon Mahmud ijodiyotidan baxramand bo'ldilar. Shuningdek 1992-yilda "Xorazm" nashriyotida Xasanmurod Laffasiy kalamiga mansub "Tazkirai shuaro" kitobi chop etildi. Kitobda 51 nafar xorazmlik shoir haqida ma'lumotlar, ular ijodidan namunalar berilganki, bu Feruz xukmdorlik qilgan davr kiyofasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Chunki, mazkur kitobda Xorazm shoirlari shaxsiga xolisona yondoshilgan⁴.

Viloyatda fan, madaniyat, adabiyot, san'at va me'morchilikni yanada rivojlantirish maqsadida har biri 50 ming so'mdan al Xorazmiy

¹Ражабова З. Хоразм вилояти тарихий мероси ва ёдгорликларининг маънавиятни юксалтиришдаги аҳамияти (1991-2020 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Нукус, 2021. – Б.58.

²Маньковская Л., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма.–Ташкент, 1978.– С.79–82.

³Ўзбекистон ислом обидалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.15

⁴Бобожинов Б.Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб.–Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.51.

va Ogahiy nomidagi viloyat mukofotlari ta'sis etildi¹. Shu yili O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 75 yilligi keng nishonlandi, viloyat teatrining 70 yillik yubileyi ushbu tantanaga qo'shilib ketdi va shu munosabat bilan san'atkorlarning uy-joyini yaxshilashga 5 mln.so'mdan ajratildi².

Prezident SH.Mirziyoyev "Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozma manbalardan biri bo'lgan "Avesto" kitobining aynan shu zaminda paydo bo'lgani Xorazm yurtining tarixi qanday teran ekanidan dalolat beradi"³, deb ta'kidladi. Xorazmda ma'naviyatga azal-azaldan jiddiy e'tibor qaratilgan.

Milliy madaniyat, xususan Xorazm viloyatining o'ziga xos amaliy san'atini, hunarmandchilik va xalq ijodkorligini tiklashga, jamiyat hayotida o'z o'rnini topishga ko'maklashish hamda bunyodkorlik kuchining manbalarini qudratli ma'naviy-tarbiyaviy, yaratuvchanlik ishlariga yo'naltirishdan iborat muhim jihatlarga qaratilgan foydali bo'ldi. Xususan, mustaqillik yillarida taniqli shoir, romannavis, dramaturg Erkin Samandar "Tangri qudug'i" romanini, "Xazrati Polvon ota" qasidasini, "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yaratdi. Jurnalist Ne'matjon Solayev "Yurtimizga qaytayotir ona oqqushlar", "To'maris", "Jarulloh", "Xojixon" asarlari nashr etildi. Komil Avazning "Suhbatlarda saralangan satrlar", "Xiva dilbandi", Matnazar Abdulhaqimning "Xaq fayzi", "Iymon tuhfasini" risolalari nashr etildi. Sotim Avazning "Madrahim Sheroziy", "Temur – g'ozini" qissalari, Gulsara Ismoilova Feruzning "Elga shoxu ishqqa qo'l" devonini nashrga tayyorlab chop ettirdi. Qurbon Muhammad Rizoning "Falakning gardishi" qissasi, Madiyor Xudoyberganovning fosh qiluvchi "Sinovlarda kechgan umr" kitobi va bir qancha adiblarning kitoblari nashr qilindi⁴.

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-ruyxat, 14-iyun 2017-yil. – 140-raqam.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-ruyxat, 14-iyun 2017-yil. – 141-142-raqamlar.

³Shavkat Mirziyoyev. Bуюk kelaжagimizni marд va oliyjanob хalkimiz bilan birга куramiz. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.241.

⁴Бобожонов Б.Асрга тенг йиллар. Хоразм viloyati mustaqillik йилларида. 1-kitob.–Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.51.

Mustaqillik yillarida viloyatning bir qancha san'atkorlari respublikada ta'sis etilgan unvonlar bilan taqdirlandilar. Jumladan, 1993 yilda viloyat qo'g'irchoq teatri to'rtinchi respublika qo'g'irchoq teatrlari festivalida M.Quriyozovning "Afandi hangomalari" spektakli bilan qatnashib muvaffaqiyat qozondi. Akter Odamboy Abdullayev festivalning "Eng yaxshi erkak" roli uchun maxsus sovringa ega bo'ldi.

1994-yil 24-25-sentabr kunlari ma'rifatparvar shoir, san'atsevar olim va davlat arbobi Muhammad Rahimxon Feruz tavalludining 150 yilligi mustaqillik sharofati bilan keng nishonlandi¹. Feruzga bag'ishlangan tantanalar yuksak saviyada o'tdi, uning tarixiy merosini o'rganish ishlari amalga oshirildi².

1994-yil 22-26-fevral kunlari Hoji Abdullaziz va Yunus Rajabiy qo'shiqlari ijrosi bo'yicha o'tkazilgan respublika ko'rik-tanlovida xonanda Otaboy Xolliyev birinchi o'rinni egalladi. "Chashma-94" respublika baxsida Xiva tumani "Doston" folklor ansambli g'olib chiqdi. Shu yili Xorazm viloyat hokimligi tashabbusi bilan Urganch shahridagi Ogahiy nomli teatrning eski binosi ta'mirlanib, obod qilindi. Bu bino teatr jamoasi yangi binoga ko'chganidan keyin ta'mirtalab bo'lib qolgan edi. Haqiqatdan ham, xalqning ko'ziga issiq ko'rinadigan, odamlar tilida "Ko'hna teatr" deb nomli mazkur binoning obod joyga aylanganini aholi xursandchilik bilan kutib olindi. Ta'mirlash ishlari tugashi bilan binoda O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor, Xorazm maqomlarining mukammal bilimdoni Hojixon Boltayevning 90 yillik yubileyi ham tantanali nishonlandi³.

Buyuk ajdodlarimizning xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini rivojlantirishdagi ulkan ishlari yodga olar ekanmiz, sovetlar davrida Yusuf Xamadoniy diniy mistiq adabiyot vakili sifatida talqin qilinib, tariqat yo'li tan olinmagan edi. Jumladan, uning Shovot tumanidagi qadamjosi xaroba ahvolda edi. Odamlarning erkin e'tiqod qilishlariga, o'z tarixini haqqoniy o'rganishga keng sharoit yaratilganligi, ularning bu huquqlari qonun bilan himoya qilinishi, ziyoratgohlar qaytadan

¹Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 20-iyfma jild. – 56-varaq.

²Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 24-iyfma jild. – 4-varaq.

³Xorazm viloyati hokimiyati arxivi. 1150-fond, 7-r'yxat, 24-iyfma jild. – 4-varaq.

muqaddas qadamjolarga aylantirilishi mustaqilik sharofati bilandir¹. Xususan, 1994-1995 yillar mobaynida Yusuf Hamadoniy qadamjosining ta'mirlanishi negizida viloyatdagi olimlarning Eron Islom Respublikasi olimlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Bir guruh ziyolilar Eron davlatining Hamadon shahriga borib, ulug'alloma muzeyi uchun nodir kitoblar, osori atiqalar olib qaytishdi. 1994 yilda ziyoratgohni qayta ta'mirlash ishlari idora va tashkilotlar hamda fuqarolarning shaxsiy xayriyalari, taniqli san'atkorlar konsertlaridan tushgan mablag'lar hisobiga, jami 2 mln.so'mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi². Ziyoratgohga ko'plab xorijiy mehmonlar qatori Eron Islom Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi janob Muhsin Pokoyin tashrif buyurib: "Xoja Yusuf Hamadoniy ziyoratgohini bunyod etgan xalqqa cheksiz tashakkur", dedi³.

Islom dunyosining mashhur shaxslaridan yana biri Xorazm farzandi, "Jorulloh", ya'ni "Olohning qo'shnisi" degan yuksak maqomga sazovor bo'lgan ulug' ajdodimiz Mahmud az-Zamaxshariydir. U yaratgan "Al-Mufassal" kitobi arab tili grammatikasiga asos etib olingan va arab dunyosida unga hozirgacha amal qilinadi. Shu bois, arab mutafakkirlaridan biri: "Olamdagi barcha qishloqlar jamlanib, Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog'iga fido bo'lsa arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta dunyoga kelishi mumkin bo'lgan buyuk az-Zamaxshariydek mashhur allomaning Vatanidir", deganida to'la haqlidir⁴. 1995-yilda Mahmud az-Zamaxshariy tavalludining 920 yilligi keng nishonlandi⁵. O'zbek xalqi o'z buyuklarini e'zozlamoqda. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumani markazida Mahmud Az-Zamaxshariy muzeyi, masjid, qiroatxona va bog' o'rin olgan majmua voha ziyoratgohlari qatoriga qo'shildi⁶.

1995-yilda Ogahiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri

¹Хоразм вилояти ҳоқимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 20-йиғма жилд. – 24-варақ.

²ЎЗМА. 7-фонд, 1-рўйхат, 152-йиғма жилд, 12-варақ..

³Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида. – Тошкент:Шарқ, 1996. –Б.163.

⁴Хоразм вилояти ҳоқимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 30-йиғма жилд. – 7-варақ.

⁵Бобожонов Б.Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб.–Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.33.

⁶Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида. – Тошкент:Шарқ, 1996.–Б.161.

aktyori Baxtiyor Omonboyev “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni bilan takdirlandi. Toshkent shahrida BMTning 50 yiligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan respublika hunarmandlar qo‘rgazmasida Xonqa tumanidan Rayimberdi Matchonov va xivalik o‘ymakor usta Ro‘zmat Bog‘ibekovlar g‘olib deb topildi.

Qo‘lida tor ushlagan O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov byusti o‘rnatilgan binoda “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasining ushbu san’atkor nomidagi Xorazm viloyat bo‘limi joylashgan. Shuningdek, bir qancha san’atkorlar qatorida 1996-yilda Ogahiy teatrining akteri Odamboy Bobojonov “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” hamda 1997-yilda Xiva pedagogika bilim yurti o‘qituvchisi Odamboy Rahimov “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoniga sazovor bo‘ldilar.

Xorazm ko‘p kirrali, boy tarix va madaniyatga ega bo‘lgan voqea bo‘lib, ko‘plab yubiley sanalari nishonlandi. Respublika Vazirlar Mahkamasining YUNESKO tadbirlari doirasida 1996-yil 3-yanvarda qabul qilgan “Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 5-son qarori¹, Prezidentning 1997-yil 11-noyabrdagi “Xorazm Ma‘mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida”gi 1880-son Farmoni², Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 23-sentabrdagi “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 190 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 407-son³, 24-sentabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 408-son⁴ qarorlari va ular asosida o‘tkazilgan katta yubiley tadbirlari shular jumlasidandir⁵.

1997-yil 20-oktabrda viloyatda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi YUNESKO rahbariyati, chet ellik diplomatik korpus vakillari va viloyatning keng jamoatchiligi ishtirokida katta tantanalar bilan

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллик юбилейига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги қарори/. <http://old.lex.uz/docs/1618031>

²“Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 10-сон, 286-модда; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон.

³“Муҳаммад Ризо Эрнийозбек ўғли-Огаҳий таваллудининг 190 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги 407-сон қарори/<https://lex.uz/docs/2300675>.

⁴Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори /<https://lex.uz/docs/2300757>

⁵ Матниёзов М., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч:Хоразм, 1999.–Б.98.

nishonlandi. Shuningdek, 1999-yil 5-noyabrda viloyatda o'zbek xalqining milliy qahramoni, xorazmshoxlar sulolasining eng mashhur vakili, mo'g'ul istilochilariga qarshi Vatan ozodligi yo'lida beqiyos shaxsiy mardlik va jasorat namunasini namoyon etgan Jaloliddin Manguberdi tavalludi keng nishonlandi. O'rta asrlardan ko'plab mualliflar bu ulug' insonning Vatanni sevish va ardoqlashdagi so'nmas ibrati haqida kitoblar, ayrim tarixiy manbalarda esa bobu sahifalar yozib qoldirganlar. Ammo, yaqin-yaqinlargacha Jaloliddindek siymo tarixidan xalqimiz deyarli bexabar va bebahra edi. Qisqa davrda asriy milliy an'analarimiz, qadriyatlarimizni, haqqoniy tariximizni, madaniy merosimizni, ota-bobolar muqaddas xotirasini tiklash, o'zligimizni anglash yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi¹.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" jahon madaniyati va dinlar tarixida beqiyos o'rin tutishi inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasining taklifiga binoan YUNESKO bosh konferensiyasining 1999-yil noyabr oyida Parijda bo'lib o'tgan 30-sessiyasida "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-martdagi "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 110-son qarori² Xorazm viloyati aholisining madaniy hayotida muhim tarixiy voqeliklardan biri sifatida muhrlanib qoldi. 2001-yilning oktabr oyida butun mamlakat bo'ylab tantanali bayram tadbirlari va "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni" mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Bayram munosabati bilan Urganch shahrida bog' barpo etildi, yodgorlik o'rnatildi va shahar ko'kalamzorlashtirildi.

Muqaddas qadamjolarida qayta tiklash va ta'mirlash, atrofini obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi natijasida ular ko'rkam, fayzli, osoyishta joylarga aylantirildi. Yoshlar va ziyoratchilar uchun har bir ziyoratgohda ziyorat qilish tartib va qoidalariga amal qilish zarurligi yetkazib borildi. 2000-yilda Xiva tumanidagi Sayot qishlog'ida

¹"Жалолитдин Мангуберди – Ватан, юрт химоячиси" мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Тошкент:Урганч: Фан, 1999.– Б.8.

²"Авесто" яратилганининг 2700 йиллигини нишонлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 мартдаги 110-сон қарори/ <https://lex.uz/docs/1672588>

Kubro hazratlarining validai muhtaramasi – Bibi Xojar ona maqbarasi qaytadan ta'mirlandi, tevaragi bog'ga aylantirildi. Sayyohlarga muzey xizmati ko'rsatish yanada yaxshilanishi natijasida muzeyga tashrif qiluvchi sayyohlar soni 216241 kishiga yetdi¹. Keyingi yillarda sayyohlarga muzey xizmati ko'rsatish sohasining yanada yaxshilanishi muzeyni tomosha qilishga keluvchilar sonini orttirdi, ular soni 401336 kishiga yetdi².

Istiqlol yillarida Xorazm san'atiga oid o'nlab kitoblar nashr etildi. Shunday kitoblardan biri shoir va dramaturg Komil Avazning "Olis ohanglar" asaridir. Asarda Xorazm maqomlarining tuzilishi, maqomlar soni, nomlari, izchil tarzda qayd etilishi bilan birga o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar ham berilgan. Istiqloldan so'ngi davrlarda Feruz ijodiga xolisona e'tibor berildi, uning g'azallari devoni nashrdan chiqarildi. Feruzga bag'ishlangan qator tarixiy hamda badiiy asarlar chop qilindi.

Xorazmning iste'dodli san'atkorlari o'zlarining iste'dodlari bilan o'zbek millati madaniyati va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Mukarrama Turg'unboyeva nomli ko'rik-tanlovda yoshlar orasidan Umida Avazmetova birinchi o'rinni oldi, 1999-yilda Sveta Xudayberganova "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'ldi. 2000-yilda Komiljon Otaniyozovga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi.

Yosh avlod albatta, tarixiy obidalarni saqlab qolish, ta'mirlash, otabobolari urf-odatlarini qayta tiklashdek sharaflı ishni davom ettirishlari maqsadida o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, o'zligini anglash, milliy an'analarni qadrlashdek maqsadlarga qaratilgan ziyorat va sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Shulardan: Sulton Vois Bobo, Bo'ldim Soz qal'asi, Mizdahqan qal'asi, Qoraqopi bobo maqbarasi, Az-Zamahshariy, Tuproqqal'a, Devkeskanqal'a, Oshiq Oydin Pir, Ibrohim Ahmad maqbarasi, Said Shifoati Aziz, Mir Muhammad Aziz maqbaralari, Shayx Najmiddin Kubro maqbarasi, Yusuf va Said Hamadoniy maqbaralari, Shayx

¹ЎзМА.38-фонд, 1-рўйхат, 847-йиғма жилд. – 39-варақ.

²ЎзМА. 38-фонд, 1-рўйхат, 205-йиғма жилд. – 83-варақ.

Muxtor Vali (Ostona Bobo) kabi maqbarasi va qadamjolardan ziyoratchi va sayyohlarning qadami uzilmaydi. Viloyatda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun “Antik Xorazm poytaxti”, “Urganch-Tuproqqal’a”, “Antik Xorazm qal’alari”: Urganch–Beruniy-Bo‘ston-Ayozqal’a-Qavatqal’a kabi ziyorat yo‘nalishlari tashkil etilgan.

Viloyatning bebaho va betakror obidalari bo‘lgan masjidlar, madrasa va maqbaralar o‘tmishning ma’naviy qiyofasinigina emas, balki, ilm-fan taraqqiyotini ham o‘zida mujassamlashtirgan. Xorazm viloyati hokimligining “Viloyat hududidagi tarixiy, arxeologik va madaniy yodgorliklarni qayta ko‘rikdan o‘tkazish haqida”¹ 2007-yil 2-apreldagi 41-son qarori asosida tarixiy, madaniy va arxeologik yodgorliklarning ro‘yxati tuzildi. Hokimlik qarori bilan bu ro‘yxat 2012-yil, 2016-yil va 2019-yillarda qayta yangilandi².

“Ichon-qal’a” muzeyining ko‘rkiga aylangan mashhur polvon, hunarmand, shoir Pahlavon Mahmud maqbarasi 2008-2011-yillarda, Yusuf Hamadoniy majmuasi 2009-2011-yillarda, mashhur ulamo Shayx Muxtor Vali maqbarasi 2014-yilda, Sayid Mohiro‘yi jahon majmuasi 2007-2008-yillarda³ qayta ta’mirlanib, atrofi obodonlashtirildi. 2013-2014-yillarda Xiva shahridagi “To‘rt Shovvoz” me’moriy-tarixiy obidasini to‘liq ta’mirlash uchun 400 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan⁴.

Viloyatda keyingi yillarda 13 tashkilot va firmalar turistik faoliyat bilan shugullanish uchun “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasidan litsenziya olganlar. Viloyatdagi tashrif buyurgan milliy va xorijiy sayyohlar Urganch shahridagi “Xorazm”, “Jayhun”, “Baxt”, “Urganch”, Xiva shahridagi “Xiva”, Xorazm va xususiy “Orqonchi” mehmonxonalarida qabul qilinib, ularga turli xizmatlar ko‘rsatiladi⁵. Bundan ko‘rish mumkinki, Xorazm viloyatining barcha sohalari ham kundan-kunga rivojlanib bordi.

¹Хоразм вилояти вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 12-рўйхат, 4-йиғма жилд. – 39-варақ.

²Ражабова З. Хоразм вилояти тарихий мероси ва ёдгорликларининг маънавиятни юксалтиришдаги аҳамияти (1991-2020 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Нукус, 2021. – Б.61.

³Хоразм вилоят маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш давлат инспекцияси Маданий мерос объекти паспорти. № 33, № 72, № 13.

⁴. Хоразм: туризм янада ривожланади//www.golosuzbekistana.uz

⁵. Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 24-йиғма жилд. – 18-варақ.

2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-son Farmoni¹, 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-son, 2018-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-son, 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son qarorlarida hamda sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish natijasidaXorazmga kelayotgan xorijiy sayyohlarning soni ham yildan-yilga ko‘payib bordi, jahonning rivojlangan mamlakatlaridan minglab sayyohlar tashrif buyurdi. Turizmning moddiy-texnik bazasini va infratuzilmasini rivojlantirish borasida samarali ishlar olib borildi. Jumladan, Xiva shahrida “Xorazm” mehmonxonasi ishga tushirildi, “Xiva” turistik sayr majmuasi, Urganchdagi “Xorazm”, “Jayxun” turistik mehmonxonalari qayta ta’mirlandi. Xorazm viloyati hokimligi va “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasihamkorligida Xiva shahrida ko‘p kavatli mehmonxona qurildi.Uning qurilishi va boshqa harajatlar 19,7 mln.dollarni tashkil qildi².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³ va 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4584-son “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴ qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-son “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi⁵, 2018-yil 15-

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4861-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 49-сон, 558-модда.

²Бобожонов Б.Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида.–Тошкент:Истиклол, 2001.– Б.38

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4068-сонли қарори / <https://www.lex.uz/docs/2432522>

⁴2020 йил 4 февралдаги ПҚ-4584-сон “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори / <https://www.lex.uz/docs/4724383>

⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 23 февралдаги 47-сон “Номоддий маданий

fevraldagi 120-son “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi¹, 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi² qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalar amalga oshirilmoqda.

Sayyohlik ishini keng yo‘lga qo‘yish uchun, avalo, xalqaro talablarga javob beradigan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini takomillashtirish maqsadida Urganch shahar aeroporti dunyodagi deyarli barcha rusumdagi samolyotlarni qabul qila oladigan darajada yangi xalqaro aerovokzal binosi foydalanishga topshirildi. Demak, viloyatda sayyohlikning keng yo‘lga qo‘yilishi respublika rivojiga katta hissa qo‘shdi, deyish mumkin.

Turistik maqsadlar bilan Xorazmga kelgan sayyohlar asosan, tarixiy obidalarni ko‘rishga qiziqib kelsalar, shu bilan birga, ularni bu yurt madaniyati, jahonga mashhur raqslari ham maftun etadi. “Xorazmraqs” qizlari nafaqat mamlakatimizda o‘tkaziladigan bayram tomoshalarida, balki Turkiya, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham bo‘lishib, o‘z san’atlari bilan ko‘pchilik ehtiyofiga sazovor bo‘lganlar. Bu yutuklarda raqqosa qizlarning ustozlari, O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubovaning xizmati beqiyosdir. Shu bois, unga 2000-yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berildi. Gavhar Matyoqubova boshchiligidagi 2021-yil 29-noyabrda Dubayda Dubai Opera teatri sahnasida “Lazgi” raqsining “Lazgi – qalb va muhabbat raqsi” yangi talqinda qayta ishlangan balet ko‘rinishining xalqaro premerasi qo‘yilishi o‘zbek san’atini dunyoga namoyish qildi³.

Bularning barchasi juda qisqa muddatlarda ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lgan, har qancha faxrlansa, g‘ururlansa arziydigan voqelik bo‘ldi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatni

мерос муҳофазасига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги / <https://www.lex.uz/docs/1756739>

¹“Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида”ги қарори / <https://www.lex.uz/docs/3560605>

²ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги № 846-сон “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги/ <https://www.lex.uz/docs/4543266>

³<https://podrobno.uz/cat/calche/lazgi-pokoryaet-dubay/>

modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan, yangi avlod kadrlarini, boshlagan ulug‘ ishlarni munosib tarzda davom ettira oladigan farzandlarni voyaga yetkazish eng muhim vazifa bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekistonda milliy-ma’naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “madaniy-ma’rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”¹ ga e’tibor berildi. Shuning uchun ham, o‘zbek millatining Xorazm tarixiy-madaniy yodgorliklari, moddiy va nomoddiy merosi va me’moriy obidalarni asrab-avaylash, jamiyatning ma’naviy qadriyatlarni tiklash va yanada yuksaltirish, erishilgan natijalarni tahlil etgan holda, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

3.2. Fan va ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar.

O‘zbekistonning qadimiy Xorazm vohasi jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganligi, al Xorazmiy, Beruniy singari ulug‘ allomalarni yetishtirib berganligi ma’lum. Mustaqillik tufayli bu vohaning yana ilm-fan markaziga, olamshumul ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar diyoriga aylanishi hamda buyuk bobolarning ijodkorlik dahosiga munosib bo‘lish va ularning ezgu ishlarini davom ettirishdan iborat maqsadlar turibdi. Buning uchun yetarli imkoniyat hamda shart-sharoitlar mavjud. Maktabgacha tarbiya muassasalaridan tortib, oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan ta’lim-tarbiya muassasalarida ishlar sifatini yaxshilash, tartib-intizomni mustahkamlash, uzluksiz jarayonlardagi parokandalikdan xalos bo‘lib olish lozim edi². Ta’limni tubdan isloh qilish yo‘llari ishlab chiqildi. Yoshlar bizning kelajagimiz, degan so‘zlar bundan keyin faqat shior bo‘lib qolmasligi, iqtidorli bolalarni izlab topish, ularga zarur bo‘lsa moddiy yordam ko‘rsatish, umumiy ta’lim

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони: Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида //Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд. – 139-варақ.

sohasida ilg'or tajribalar joriy qilinib, qator maktablarning 270 ta sinfida ximiya, fizika, matematika, tarix, ona tili va adabiyoti fanlaridan chuqur ta'lim berila boshladi.

1990-yil viloyatda 433 ta umumta'lim maktabi, iqtidorli o'quvchilar uchun faqat bitta ixtisoslashgan maktab internati, 471 ta bolalar bog'chasi, 31 ta maktabdan tashqari muassasalar bo'lib, umumta'lim maktablaridan 268500 nafar, bolalar bog'chalarida 17500 nafar bola tarbiyalangan. Ulardan 19 tasi avariya holatidagi maktablar edi. 1991-yilda viloyatda 451 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularda 280 ming 385 nafar bola o'qigan, ulardan 71 mingdan ko'prog'i 2-smenada ta'lim olar edi. O'qishni faqat birinchi smenaga ko'chirish uchun har yili 26-27 ming o'quvchi o'rniga ega maktabni ishga tushirish talab etilar edi¹. Bu davrda 36 ta hunar-texnika bilim yurtida 66 mutaxassislik bo'yicha 17 ming o'quvchi ta'lim olar edi².

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Unda ta'lim tizimi va uni boshqarish tartibi, soha xodimlari xaq-huquqlari; vazifalari, burchlari belgilab berildi³. Mustaqillik arafasida respublikada 41 ta oliy o'quv yurti faoliyat yuritgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki davrida ko'plab oliy o'quv yurtlari qatori 1992-yil 28-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Xorazm Davlat pedagogika instituti negizida Urganch Davlat universiteti tashkil etildi⁴ va bu yerda malakali kadrlar tayyorlana boshladi. Universitetda aspirantura bo'limi, biroz keyin magistratura bo'limi ham tashkil etildi. Bu yerda 200 ga yaqin kompyuterlar, 6 ta kompyuterga ega hisoblash markazi kabinetlari va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari mavjud bo'lib, iste'odoli, malakali, yosh kadrlarni yetkazib berishda respublikada yetakchi dargoh hisoblanadi⁵. Shuningdek, viloyatda bir qator oliy o'quv yurtlarining filiallari ham ochildi. Jumladan, Toshkent davlat tibbiyot instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining filiallari ish boshladi, Urganch qurilish

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 6-йиғма жилд. – 12-варақ.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 6-йиғма жилд. – 13-варақ.

³Жўраев Х. Истиқлол ва таълим. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.–Б.9.

⁴УрДУ жорий архиви. Урганч Давлат университети тарихи. 2018. – Б.1.

⁵Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб.–Тошкент:Истиқлол, 2001.–Б.33.

texnikumi kollejga aylantirildi. Ularda o'nlab fan doktorlari va professorlar, fan nomzodlari xizmat qildilar¹.

1993-yilga kelib ham, viloyatdagi hunar-texnika bilim yurtlari ishi talabga javob bermas edi. 35 ta hunar-texnika bilim yurtini 6 ming 250 o'quvchi tamomlab, ishga yo'llanma olgan. Biroq, ularning 2 ming 809 nafari yoki 45 foizi ishga joylashtirilgan, xolos. 10 foizigina o'zi egallagan ixtisoslik bo'yicha ishlayotgan edi².

Bu davrga kelib ham, maorif sohasida vaziyat ancha og'ir edi. Maktablarning 96 tasi moslashtirilgan binolarda ish boshladi. 13 ta maktab binosi avariya holatida edi. Maktablarda turli fanlar bo'yicha 600 dan ortiq o'qituvchi yetishmas, 200 ta maktabda toza ichimlik suvi, 112 tasida sport zali, 310 tasida esa kompyuter xonalari yo'q edi³.

1993/94-o'quv yilida Urganch davlat universitetida, Toshkent iqtisodiyot universiteti va 1-Toshkent tibbiyot institutining filiallarida 5500 talaba, 9 ta o'rta maxsus o'quv yurtida 10020 o'quvchi, 35 ta hunar-texnika bilim yurtida 16 mingga yaqin, 475 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 284,5 mingdan ortiq o'quvchi o'qidi. 2 ta turk litseyi, 2 kollej faoliyat olib bordi. 500 ta maktabgacha bolalar muassasasida 37,9 mingdan ziyod bola tarbiyalandi⁴. 1994-yildan boshlab 1-5 sinf o'quvchilari lotin grafikasi asosida o'zbek alifbosiga o'tib o'kiy boshladilar. viloyat xalq ta'limi muassasalari o'quv-moddiy bazasi mustahkamlandi, umumta'lim maktablari o'quv dasturlari va darsliklarida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Muhim vazifalardan biri—ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishidan maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat edi. Mazkur Qonunga asosan akademik litsey va

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 14-йиғма жилд. – 140-варақ.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 20-йиғма жилд. – 40-варақ.

³Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 30-йиғма жилд. – 11-варақ.

⁴Ўзбекистон вилоятлари, Қорақалпоғистон. Маълумотнома.—Тошкент:Қомуслар Бош таҳририяти,1995.—Б.106.

kasb hunar kollejining maqomi tenglashtirilgan. Shuningdek, akademik litsey va kasb hunar kolleji o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Akademik litseylar o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning jadal intellektual rivojlanishi, ixtisoslashtirilgan, chuqurlashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari koshida tashkil etilishi belgilandi¹.

Viloyatda aniqrog'i, uning markazi - Urganch shahrida 3 ta oliy o'quv yurti, jumladan, Urganch davlat universiteti, Toshkent davlat tibbiyot instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti filiallari faoliyat olib bormoqda edi. Urganch davlat universiteti – O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi eng nufuzli universitetlardan biri, O'zbekistonning uchinchi yirik universiteti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi 356-sonli farmoni bilan sobiq Xorazm davlat pedagogika instituti negizida tashkil etilgan. 2020-yilda universitet talabalari soni 19 113 nafarni, professor-o'qituvchilar soni 760 nafarni. Ilmiy darajadagilar 217 nafarni tashkil etadi. Universitetda 12 ta fakultet va 42 ta kafedra faoliyat ko'rsatmoqda. Bakalavriatda 38 ta, magistraturada 12 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda².

So'nggi yillarda Urganch davlat universitetida Erasmus+ dasturi doirasida texnologiya, matematika va muhandislik sohasidagi Yevropa Ittifoqining oliy ta'lim muassasalari salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi loyihalar amalga oshirildi:

- kompyuter (hisoblash) markazlarini yaratish va matematik dizayn bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha magistrlik dasturi-ECCUM, qayta tiklanadigan energiya va barqaror atrof-muhit bo'yicha magistrlik dasturini yaratish-RENES, Ekologik uylar (yashil bino)-(GREN Bulding) qurilish ixtisosligi bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish-GREB, Markaziy Osiyo universitetlarida kompyuter tilshunosligi bo'yicha magistrlik dasturini ishlab chiqish – CLASS,

¹ Укрепление инклюзивной системы науки, технологий и инновации в Узбекистане. Анализ научно технического и инновационного потенциала регионов Республики Узбекистан в рамках проекта ЮНЕСКО/ИБР. – Тошкент, 2020. – С.94.

²Кодиров Б. Таълим тўғрисидаги ислохотлар мақсад ва йўналишлари. – Тошкент:Ўзбекистон, 1999.–Б.345.

Markaziy Osiyoda atrof - muhitni muhofaza qilish: fazoviy usullar orqali tabiiy ofatlar xavfini boshqarish – EPCA, Markaziy Osiyoda o‘quv va tadqiqot markazlarini tashkil etish, ma’lumotlarni yaratish kurslarini ishlab chiqish-ELBA va hokazolar.

Erasmus dasturining xalqaro kredit harakatchanligi loyihalari doirasida quyidagi xorijiy universitetlardan Porto universiteti (Portugaliya), Lakvili universiteti (Italiya), Padui universiteti (Italiya), Vaynshtern –Trisdorf universiteti (Germaniya), Kil universiteti (Buyuk Britaniya), Kantabri universiteti (Ispaniya), Kluj Napoka qishloq xo‘jaligi fanlari va veterinariya universitet (Ruminiya) lari bilan shartnomalar imzolangan.

Hozirgi vaqtda Urganch davlat universiteti nufuzli xorijiy universitetlar bilan birgalikda xorijiy loyihalarda ishtirok etmoqda. Universitet AQSh va Germaniya universitetlari va tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda bir nechta loyihalarni amalga oshirmoqda. Xususan, AQSh milliy ilmiy jamg‘armasining IRES loyihasi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyatining boy tarixi, madaniyati va ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasini namoyish etish hamda ikki mamlakat o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishdir.

Urganch davlat universiteti AQSh Davlat departamenti talabalarga fanning dolzarb muammolarini o‘rganishda ingliz tilidan foydalanish bo‘yicha kurslar taklif etiladi

Volkswagen (Germaniya) jamg‘armasining SUMRICA loyihasi Germaniya va Markaziy Osiyo universitetlari bilan hamkorlikda uch yilga mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy tadbirlar seminarlar, tadqiqotlar uchta asosiy mavzu bo‘yicha quydagicha o‘tkaziladi: Yerlardan foydalanish va transportni kompleks rejalashtirish; transport siyosati va moliyaviy masalalar va ekologik harakatchanlik. Loyiha Germaniyadagi Volkswagen fondi tomonidan moliyalashtiriladi¹.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 11-noyabrdagi 1880-son Farmoni bilan Xorazm

¹ Укрепление инклюзивной системы науки, технологий и инновации в Узбекистане. Анализ научно-технического и инновационного потенциала регионов Республики Узбекистан в рамках проекта ЮНЕСКО/ИБР. – Тошкент, 2020. – С.94-95.

Ma'mun akademiyasi qayta tiklandi. Akademiyaning faoliyati O'zbekistonning ilmiy salohiyatini oshirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi rolini mustahkamlash, viloyatlarda ilm-fanni yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, fidoyi olimlarni qo'llab-quvvatlash va yuksak intellektual muhit yaratish milliy an'analarini rivojlantirishda muhim qadamdir.

Akademiyada doktorantlar soni 27 nafar, professor-o'qituvchilar soni 37, shundan 14 (3 DSc+11 PhD) nafari ilmiy darajalariga ega bo'lgan 2020-yilda 6 nafar doktorant (PhD) doktorlik dissertatsiyalarini falsafa doktori ilmiy darajasiga muvaffaqiyatli himoya qildilar. Hozirgi kunda akademiyada Tabiiy fanlar, Aniq fanlar, Ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'limlari, Termit tarqalishining oldini olish va nazorat qilish va Janubiy Orolbo'yi tarixiy me'moriy yodgorliklarining qurilish materiallarini sinovdan o'tkazish va tiklash laboratoriyalari faoliyat ko'rsatmoqda¹.

1998-yilda Xorazm viloyatda jami tibbiyot muassasalari soni 33 ta, bemor o'rinlarining soni 6688 ta, ambulatoriya poliklinikalar 291 ta, vrachlar 4109 kishi, qishloq vrachlik punktlari 170 tani tashkil etgan. Har 10 ming kishiga hisoblaganda, viloyatda 40,4 ta bemor o'rinlari, 26,9 nafar vrachlar, 93,6 ta o'rta tibbiyot xodimlari to'g'ri kelar edi².

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203 – sonli qarorida umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi belgilab berildi. Mazkur qarorga asosan ta'lim standartlarida kadrlarni tayyorlash sifati va ta'lim mazmuniga talablar belgilandi. O'quvchilarni tayyorlash uchun maqbul bo'lgan zarur o'quv soatlari hajmi yaratildi. Viloyatdagi kasb-hunar kollejlari zamonaviy asbob-uskunalar, o'quv-uslubiy qurollar, qo'rgazmalar, axborot texnologiyalari va kompyuterlar bilan jihozlandi. Kollejlarda kasb-hunar turining ko'pligi, bugungi kun talablariga, iqtisodiy islohotlar ehtiyotiga javob berish bilan ajralib turadi. Kasb-hunar kollejlarida ishchi kadrlar emas, balki keng ixtisoslikdagi kichik mutaxassislar

¹ Ўша ерда. – С.98.

² Кодиров Б. Таълим тўғрисидаги ислохотлар мақсад ва йўналишлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.345.

tayyorlanadi. Yana bir afzalligi kasb-hunar kollejlari har bir xududning o'ziga xos jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlari va mutaxassislariga bo'lgan mahalliy ehtiyojlari hisobga olingan holda, kadrlar tayyorlash nazarda tutildi.

Maktablarning moddiy-texnik bazasini boyitishga ham doimiy e'tibor vujudga keldi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari mundariyasi yosh avlodda mustaqillik, uning noyob jihatlari va ularni asrab-avaylashda yoshlarimiz o'rni to'g'risidagi tadbirlar bilan boyitildi. Har bir o'quv yilining ilk darsi – "Mustaqillik darsi" bilan boshlanishi ramziy ma'no kasb etdi. O'quv dasturlariga "Odobnoma", "Iqtisodiy bilim asoslari", "Dinlar tarixi", "Eski o'zbek yozuvi", "Inson va uning salomatligi" kabi bir qancha yangi o'quv qo'llanmalar kiritildi. 2000-2001-o'quv yilining 3-choragidan barcha ta'lim turlari o'quv rejalariga "Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani joriy etildi. 2001-yil 18-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilindi va shu asosda ta'lim tizimida "Milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fani yaratildi. O'quv rejasi tuzilib, o'quv dasturlari yaratildi. Maktab bitiruvchilariga nisbatan malaka talablari belgilandi, shuningdek, ta'lim muassasasi faoliyatini baholash tartibi ishlab chiqildi¹. Umumta'lim dasturi maktabgacha ta'lim, boshlangich, umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzildi.

Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrluk hamda magistraturaga bo'linadi. Bakalavrluk-yo'nalishlardan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, u oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi. Shuningdek, ta'limning magistratura, aspiratura, doktorantura kabi bosqichlari ham mavjud bo'lib, bundan tashqari respublikada qo'shimcha kasbiy ta'lim berish ishlariga ham katta e'tibor berildi.

Yoshlar umumiy ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan

¹Жўраев Х. Истиқлол ва таълим. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.–Б.94-95.

okilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash "Umid", pedagogik kadrlarni xorijda tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash bo'yicha "Ustoz" jamg'armalari tashkil etildi. Mustaqillik arafasida iqtidorli o'quvchilar uchun viloyatda faqat bitta ixtisoslashgan maktab internati bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib, turli fanlar chuqur o'rgatiladigan 29 ta litsey, 13 ta gimnaziya bo'lib, ularda 11000 dan ziyod o'quvchi ilm-fan sirlarini o'rgandilar¹. Viloyatda shu davr ichida yangidan 104 ta maktab, 39 ta bolalar bog'chasi qurilib, ishga tushirildi².

1990-2000-yillar ichida viloyatdagi 64 nafar o'quvchi Respublika fan olimpiadalari g'olibi bo'lib, o'zlari tanlagan ixtisoslik bo'yicha oliy o'quv yurtlariga test-imtihonsiz kirish huquqini qo'lga kiritdilar. Viloyat yoshlari har yili Respublika fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib, I-II-III o'rinlarni egallab keldilar, matematika fani bo'yicha esa faqat I o'rinni olib keldilar³.

O'tgan davr mobaynida xalqaro ta'lim tizimi bilan aloqalar yaxshilandi. Bir qancha soha mutaxassislari chet ellarga borib, o'z malakalarini oshirib keldilar. Bu albatta ilm fan, texnika yutuklarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, umumta'lim maktablarda chet tillarni o'rgatishga katta e'tibor berildi.

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilariga 1997-yildan belgilangan tartibda 15 foiz qo'shimcha haq to'lana boshladi. Yoshlar chet tilini o'rganishi davr talabi edi. Shu bois, chet tilini bilish—bu nafaqat yoshlar orasida, balki barcha soha vakillari orasida ham ko'paydi, kompyuter saboqlarini o'rganishga qiziqish ham kuchaydi. Viloyat o'quvchilari xalqaro "Aksels" va "Tinchlik korpusi" tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnashib, chet ellarda o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. O'tgan yillar mobaynida 25 nafar o'quvchi AQSh

¹Бобожонов Б.Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.34.

²Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 20-йиғма жилд. – 41-варақ.

³Бобожонов Б.Асрга тенг йиллар.Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1-китоб. – Тошкент:Истиқлол, 2001.– Б.34.

ta'lim muassasalarida o'qib keldilar¹. Bu davrda Urganch davlat universiteti yoshmalakali, yuksak ma'naviyatli kadrlarni yetkazib berishda viloyatdagi yetakchi dargohga aylandi. Xorazm viloyatining ko'plab talaba-yoshlari chet mamlakatlarda ta'lim olib keldilar. 2000 yilga kelib, shulardan 3 mingtalaba, aspirant va 2,2 ming pedagoglar xorijiy mamlakatlarda o'z malakalarini oshirib keldilar².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2011-yil 21-dekabrda 423-II-sonli qarorida respublika bo'yicha 2010-2011-o'quv yilida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirishning umumiy ko'rsatkichi 92,2 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Biroq, bir qator mintaqalarda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini egallagan mutaxassisliklariga muvofiq ishga joylashtirish ko'rsatkichlari past, ya'ni ayrim viloyatlar, jumladan Xorazm viloyatida 29,6 foizga teng bo'lgan³.

Oliy ma'lumot olishda yoshlar ikki xil imkoniyatdan foydalanishi mumkin. Davlat granti, ya'ni talabalarning o'qish uchun zarur bo'lgan harajatlarini davlat o'z zimmasiga oladi. Davlat grantini talaba bo'layotgan yoshlar kirish test imtihonlaridan yuqori bilim bilan tegishli ballarni yig'ish bilan qo'lga kiritishi mumkin.

Aks holda abituriyentning tegishli ballni qo'lga kiritmasa, shartnoma asosida o'qishi mumkin. Tegishli malag'ni shartnoma asosida o'kiydigan talaba uchun muassasalar, korxonalar, firmalar va boshqa tashkilotlar ham o'tkazishlari mumkin. To'lov-kontrakt shaklida o'qish qoidalari va shartlari davlat tomonidan mavjud qonunchilik asosida belgilanadi. Kontraktdan tushgan mablag'lar oliy o'quv yurtining moddiy-texnika negizini mustahkamlash, pedagog xodimlarni rag'batlantirish, talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqa xizmatlarga sarflanadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim ikki darajada amalga oshiriladi. Birinchi daraja aspirantura bo'lib, magistrlik negizida 3 yil davom etadi. Ikkinchi daraja doktorantura ham 3 yil davom etadi, ammo fan nomzodi

¹Хоразм вилояти ҳокимияти архиви. 1150-фонд, 7-рўйхат, 20-йиғма жилд. –33-варак.

²Ғуломов С., Салимов О. ва бошқалар. Асрга тенг йиллар. – Тошкент, 200. –Б.22.

³Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси, 2012, 1-сон, 6-модда.

ilmiy darajasi negizida. Ikkala darajaning ham maqsadi-muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat edi. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat universitetida ham respublikadagi barcha soha yo'nalishlari bo'yicha talabalar magistrlar, aspirantlar uchun ta'lim tizimidagi sharoitlar yaratilgan. Har yili bir necha mutaxassislik bo'yicha universitetni muvaffaqiyatli tugatibchiqqan talabalar tegishli davlat muassasalari tomonidan mutaxassisligiga qarab ish o'rinlari bilan ta'minlab kelindi.

Xorazm viloyatidan yetishib chiqqan ko'plab bilimli yoshlardan biri, O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakulteti talabasi Hakimboy Egamberganov qatorasiga uch yil – 2014, 2015, 2016-yillarda matematika bo'yicha Yevropa mamlakatlarida bo'lib o'tgan xalqaro fan olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritib, Xorazmiy bobomizning haqiqiy nabirasi ekanini isbotlab berdi¹. Xorazmlik mashhur akademiklarimiz Sa'dulla Iskandarov, Azimboy Sa'dullayev, professorlar Bahrom Abdullayev, Shavkat Qodirov, Ikrom Abdullayev singari olimlar bugun ham o'zbek ilm-fani shuhratini dunyoga yoyib kelmoqdalar².

Viloyatda nodavlat ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish masalalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. 2018-yil sentabr oyida faoliyat boshlagan "Nihol" innovatsion maktabi boshlang'ich sinflarga mental arifmetikani o'rgatishga ixtisoslashtirilgan. Bu yerda ingliz, rus tili fanlari chuqurlashtirilgan tartibda o'qitiladi. O'quvchilar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida shaxmat to'garagi ochilgan. Maktab qurilishiga 3 milliard 350 million so'm mablag' sarflangan bo'lib, 19 ta fan xonasi, kutubxona, oshxona, sport zali, hamshira va o'qituvchilar xonalari, faollar zali mavjud. 2017/2018-o'quv yilida 582 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi mashg'ulotlarga jalb qilingan³.

2021-yilda matematika fani bo'yicha 5 ta, kimyo-biologiya bo'yicha 4ta, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida 5ta,

¹Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.243-244.

²Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.247.

³<https://xs.uz/uzkr/post/prezident-tashrifidan-song-khorazmda-qandaj-ozgarishlar-kuzatildi>

xorijiy tillar sohasida 14 ta, jami 28 ta ixtisoslashgan maktablar tashkil qilindi.

Shovot tumanida Al-Xorazmiy nomidagi fizika-matematika faniga ixtisoslashtirilgan Xalqaro maktab internati o'z faoliyatini boshladi. Viloyatda maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtlariga qamrov darajasi 20 foizdan 30 foizga yetdi¹.

2021-yil davomida 20 ming o'ringa mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilinib, qamrov ko'rsatkichi 74,4 foizga yetkazildi. Xalq ta'limi tizimida maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun jami 186 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga 53 ta maktabda qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarildi.

Viloyatda so'nggi yillarda ko'plab xususiy oliy ta'lim muassasa va tashkilotlari ochildi. Jumladan, 2020-yil 17-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Urganch shahrida xalqaro "Binary" universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 558-son qaroriga binoan Malayziyaning nodavlat oliy ta'lim tashkiloti², 2021-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi 19-reestr raqami bilan Xiva shahrida Ma'mun nomidagi jahon tillari nodavlat ta'lim muassasasi³, 2021-yil 5-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi № OT 0038-reestr raqami bilan Urganch shahrida "Urganch Ranch texnologiya universiteti" tashkil etildi⁴.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati qisqa muddatlarda ko'z o'ngimizda sodir bo'lgan, har qancha faxrlansa, g'ururlansa arziydigan voqeliklar sodir bo'ldi. Mustaqil O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yilgan hozirgi davrda ma'naviy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz,

¹<https://xorazm.uz/uz/faoliyat/media/rasmiy-maruzalar/1959-horazm-vilojati-okimi-fjermanovning-vilojatni-izhtimoiy-itisodij-rivozhlantirishning-2021-jakunlari-va-2022-jildagi-ustuvor-vazifalarga-baishlangan-matbuot-anzhumanidagi-m-a-r-u-z-a-s-i>

² Урганч шаҳрида халқаро «Binary» университети фаолиятини ташкил этиш тўғрисида
<https://lex.uz/ru/docs/5000798>.

³ <https://www.oneapp.uz/uz/universities/ma-mun-university?t=about>

⁴ <http://utu-ranch.uz/ranch/web/ru/site/view?id=1>.

mutafakkir bobolarimizga munosib avlodni tarbiyalashda ular qoldirgan boy merosdan bahramand bo'lish, muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, atroflicha tadqiq qilib, ularning xotiralarini yodga olish va xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Ana shu maqsadda Yangi O'zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o'rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, Xorazm viloyatida yashab, ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz merosini teran anglash, chuqur o'rganish asnosida milliy-ma'rifiy qadriyatlarimizni, qadimiy an'alarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etish, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyati yaratilgan. O'tmishga hamohang bugungi kunimizgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topayotgan har bir ishda yaratuvchanlik, mehnat qilish, bunyodkorlik ishlarini yo'lga qo'yishda buyuk allomalar, ularning asarlarini chuqur o'rganish intellektual salohiyatli yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi, ularni iste'dodlarini namoyish qilishga undaydi va yangi kashfiyotlar sari otlantiradi.

Mutafakkirlar hayotiga oid ma'lumotlar, ularning ilmiy-ma'rifiy asarlari jamlanmalarining yaratilishi hamda ularning to'liq asarlari turkumini o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, arab va fors tillarida nashr etish choralari ko'rilishi kabi belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimiz tarixida ulkan tarixiy voqelik bo'lib qoladi.

Murakkab va keng ko'lamli vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan, yangi avlod kadrlarini, boshlagan ulug' ishlarni munosib tarzda davom ettira oladigan farzandlarni voyaga yetkazish eng muhim vazifa ilm-fanni egallashdan iborat bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham, o'zbek millatining Xorazm tarixiy-madaniy yodgorliklari, moddiy va nomoddiy merosi va me'moriy obidalarni asrab-avaylash, jamiyatning ma'naviy qadriyatlarni tiklash va yanada yuksaltirish, ilm-fan sohasida erishilgan natijalarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Mustaqillik O'zbekiston va uning tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm viloyati aholisining kelajagi barqaror va mustahkam bo'lishi uchun zamin yaratdi. Bu davr, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, demografik vaziyat va ishsizlikning ko'payib borishi, ekologiya tangligi vujudga keltirgan asoratlarni bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa, taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalaridagi mavjud muammolarni hal etishdan iborat muhim vazifalar to'planib qolayotgan vaziyat edi.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida, respublika uchun yangilik bo'lgan fermer xo'jaliklarini tashkil etish jadallashdi. Orol dengizi ta'sirida viloyat ekin maydonlarining yarmidan ko'pi sho'rlangan yerlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, suv va shamol eroziyasi viloyat qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, viloyat qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan xususiylashtirish siyosati fermer va dehqon xo'jaliklari hayotida muhim rol o'ynadi, qishloqda bozor munosabatlarining rivojlanishiga imkon yaratib berdi, yangi quvvatlarni ishga tushirish, investitsiyalar jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish borasida ko'plab islohotlar olib borildi.

Xorazm viloyatida yuqori samarali sanoat va ishlab chiqarish tizimini shakllantirish hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqtisodiyotga xorij investitsiyasini jalb qilish, tadbirkorlikni keng rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarining o'rni katta bo'lganligini "Hazorasp" EIZ misolida ko'rish mumkin. Sanoatda tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi, yangi sanoat korxonalarida paxta tozalash, to'qimachilik, gilam, polos ishlab chiqarila boshlandi. Bu davrda viloyatda dunyoning rivojlangan davlatlari va tadbirkorlari bilan hamkorlikda qator qo'shma korxonalar tashkil etildi. Xorazmda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko'pchiligi AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Avstraliya, Belgiya, Birlashgan Arab

amirliklari, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi mamlakatlarga eksport qilinadi, import ham asosan shular bilan amalga oshiriladi.

Aholining iqtisodiy nochor qatlamlarini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishning huquqiy asoslari va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi. Viloyatda ijtimoiy himoya tizimining o‘ziga xos tajribasi va an‘analari to‘plandi hamda amaliyotga joriy etildi. Ayrim joylarda soha vakillari o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashmaganligi bois, himoya tizimida muayyan xato va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yish holatlari sodir etildi.

Jahonda eng ko‘p umume’tirof etiladigan dolzarb masala aholi bandligi masalasi bo‘lib, O‘zbekistonda aholini ish bilan ta’minlash borasida qabul qilingan qarorlar va huquqiy hujjatlar viloyat aholisi bandligini ta’minlashda qator yechimini kutayotgan mavjud holatlarga barham berdi. Aholi turli qatlamlarini ish bilan ta’minlash mahalliy hokimiyat organlarining eng muhim vazifalariga aylantirildi. Joylarda ijtimoiy ta’minot bo‘limlari ishini yo‘lga qo‘yish va yaxshilashga e’tibor qaratildi. Aholini ish bilan ta’minlashning maxsus dasturlari ishlab chiqilib, ijtimoiy infratuzilmada sifat o‘zgarishlari amalga oshirildi.

Xorazm viloyatida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish va hududdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga oid amalga oshirilgan ishlar sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, islohotlarni izchil amalga oshirishga yordam berdi. Orolbo‘yi jumladan, Xorazm viloyati aholisi og‘ir ekologik falokatga duch kelganligi bois, ularni muhofaza qilish uchun sog‘liqni saqlash tizimiga byudjet mablag‘lari hisobidan 2017-yilda 300 mlrd. 947 mln.so‘m ajratilgan. 2016-yilga nisbatan 116,0 foizni tashkil qiladi. Aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlash yuzasidan ham davlat tomonidan qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqilib, to‘xtovsiz hayotga tatbiq etib borildi, turmush sharoiti ham yengillashib bordi.

Viloyatdagi ma’naviy qadriyatlarni tiklash, tarixiy obidalarini

saqlash, ta'mirlash va targ'ibot ishlariga alohida e'tibor qaratilib, "Ichan qal'a"dagi barcha obidalar YUNESKO madaniy meros yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Nurullaboy va Ulli hovli majmuasi to'liq ta'mirlandi, jasur sarkarda va buyuk mutafakkirlar nomlarini ulug'lash bilan birga, sayyohlarga xizmat ko'rsatish yuqori darajada olib borildi. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni chuqur ilmiy tadqiq etish, uning keng targ'ib qilinishi o'zlikni anglash, milliy g'ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat o'z xususiyati va qadimiy an'analariga ega. Xorazm folklori, maqomlari, suvorolari, halfachilik, "Lazgi" raqsining YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi katta tarixiy voqelikdir.

Xorazm viloyatida birgina 2021-yilda matematika fani bo'yicha 5 ta, kimyo-biologiya bo'yicha 4 ta, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida 5 ta, xorijiy tillar sohasida 14 ta, jami 28 ta ixtisoslashgan maktablar tashkil qilindi. Viloyatning ilm-fanni va ta'lim tizimini taraqqiy ettirish uchun buyuk ajdodlarning vorislari sifatida ko'plab ustoz-murabbiylar, olimlar o'zbek ilm-fani shuhratini dunyoga yoyishga hissa qo'shib kelmoqdalar. Boshlangan ishlarni davom ettirish, yangi pog'onaga ko'tarish, muhimi iste'dodli, ilm-fanni egallashga intilayotgan yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga erishish, chuqur bilim va malakaga ega, ma'naviy boy va mustaqil fikrlovchi, vatanparvar avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИҲОТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари

1.1. Каримов И.А. Хоразм – муқаддас замин / Тўпловчи К.Нуржонов. – Хива. Хоразм, 1998. – 61 б.

1.2. Каримов, И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент. Маънавият, 2008. – 123 б.

1.3. Мирзиуев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиоти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь – Тошкент. Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

1.4. Мирзиуев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент. Ўзбекистон, НМИУ, 2017. – 488 б.

1.5. Мирзиуев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб– интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент. Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

1.6. Мирзиуев Ш.М. Еркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. –Тошкент. Ўзбекистон, 2017. –56 б.

1.7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиуевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017йил 23 декабрь.

1.8. Мирзиуев Ш.М. Миллий тараққиот йўлимизни қатъият билан давом еттириб, янги бочкича кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент. Ўзбекистон, 2019. – 592 б.

1.9. Мирзиуев Ш.М.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 20– ялпи мажлисидаги нутқ, 2019 йил: <http://www.kun.uz//>.

1.10. Мирзиуев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент. Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

1.11. Мирзиуев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Toshkent. O‘qituvchi, MU MCHJ, 2021. – 184 б.

2. Давлат ҳокимияти органлари норматив - ҳуқуқий ҳужжатлари

2.1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонуни: “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси 1998 йил 30 апрелдаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1998 йил, №5 – 6, 86– модда.

2.2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Бухоро

ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллик юбилейига тайюрганлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги қарори / <http://old.lex.uz/docs/1618031>

2.3. Муҳаммад Ризо Ернуозбек ўғли-Огаҳий таваллудининг 190 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги 407-сон қарори. /<https://lex.uz/docs/2300675>

2.4. Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори /<https://lex.uz/docs/2300757>

2.5. “Авесто” яратилганининг 2700 йиллигини нишонлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 мартдаги 110-сон қарори/ <https://lex.uz/docs/1672588>

2.6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонуни: “Тадбиркорлик фаолияти еркинликлари кафолати тўғрисида”ги қонун. 2000 йил 25 майдаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 йил, № 5– 6, 140-модда.

2.7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори: “Номоддий маданий мерос муҳофазасига оид норматив–ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 2011 йил 23 февралдаги 47-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011, №7-8. 66- модда.

2.8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори: 2018 йил 15 февралдаги 120-сон “Муқаддас қадамжолар, зиуоратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил етиш тўғрисида”ги қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2018 йил 17 февраль.

2.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ-4068-сон “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора– тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 20.12.2018 й., 07/18/4068/2349– сон.

2.10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори: 2019 йил 4 октябрдаги 846– сон “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 05.10.2019, 09/19/846/3881– сон.

2.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: 2020 йил 4 февралдаги ПҚ– 4584– сон “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора– тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 05.02.2020 й.,

07/20/4584/0123– сон.

2.12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори: 2000 йил 30 декабрдаги 518-сон “Хива карпет” Ўзбекистон – Германия қўшма корхонаси фаолиятини ташкил етиш тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/uz/docs/1553563?ONDATE2&action=compare>

2.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони: 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиот стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082– сон.I.10.

2.14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 2 ноябрдаги “2019-2020 йилларда Хоразм вилоятининг Хива туманини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 901-сон қарори//<https://lex.uz/ru/docs/4579271>

2.15. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 9-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 23-сон, 201-модда; 2009 й., 25-сон, 282-модда. <https://lex.uz/ru/docs/233867?ONDATE=29.11.1991%2000>

2.16. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.07.2018 й., 07/18/3856/1515-сон; 04.10.2019 й., 06/19/5846/3866-сон, 13.12.2019 й., 06/19/5893/4150-сон, 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон; 01.01.2020 й., 06/20/5898/4258-сон; 27.03.2021 й., 07/21/5041/0244-сон;

2.17. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.12.2021 й., 07/21/55/1173-сон/<https://lex.uz/docs/3824637>

3. Статистика ва жорий архив материаллари

3.1. Статический ежегодник Республика Узбекистан. 2004: стат.сборник. – Ташкент: Госкомстат РУз., 2005. – С.85.

3.2. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий - ижтимоий тараққиотининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011– 2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. –Ўзбекистон: НМИУ, 2011.–Б.42.

3.3. Охрана окружающей среды в Узбекистане. Стат. сборник. – Ташкент, 2002. – С.148.

3.4. Хива шаҳар ҳокимлиги ижтимоий масалалар бўйича ҳисоботи (2001).

3.5. Хоразм вилояти статистика бошқармаси жорий архиви (ХВСБЖА): VII.6. Хоразм вилояти паспорти. – Урганч. – 2001. – Б.1.

3.6. Хоразм вилояти Статистика бошқармаси жорий архиви. 1991– 2000 йиллар тўплами. – Урганч, 2000. – Б.3.

3.7. Хоразм вилояти статистика бошқармаси тўплами. –Урганч,

2002, – Б.17.

3.8. Хоразм вилояти ҳокимияти жорий архиви. [www. xorazm.uz](http://www.xorazm.uz).

3.9. Ўзбекистон Республикаси Макроекономстат бошқармаси жорий архиви.

3.10. Хоразм вилояти жорий архиви. 13 лет независимости Узбекистана. Статический сборник. – Ургенч, 2004. – С. 42.

3.11. Хоразм вилояти жорий архиви. Ижтимоий муҳофаза бўлимининг 2001 йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2002. – Б.5.

3.12. Хоразм вилояти жорий архиви. Хоразм вилояти статистика бошқармаси “Ижтимоий муҳофаза бўлими” нинг 2001 йил якунлари бўйича ҳисоботи. – Урганч, 2002. – Б. 5.

3.13. Хоразм вилояти Статистика бошқармаси жорий архиви. 1991–2020 йиллар тўплами. – Урганч, 2020. – Б.13.

4. Архив ҳужжатлари

4.1. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎзР МДА) М –7– фонд. Ўзбекистон Республикаси маданият ишлари вазирлиги.

М–15–фонд. Ўзбекистон Республикаси молия вазирлиги.

М–20– фонд.ЗАО Агенство по иностранным инвестициям

М –38–Министерство по делам культуры.

М– 44– фонд.Ўзбекистон Республикаси ижтимоий таъминот вазирлиги.

4.2. Хоразм вилояти давлат архиви

545 –фонд.Хоразм вилояти Маданият ишлари бошқармаси.

818 – фонд.Хоразм вилояти Иқтисодиёт ва статистика бошқармаси.

4.3. Хоразм вилояти ҳокимияти архиви

1150–фонд. Халқ депутатлари Хоразм вилояти Кенгашининг сессия баюнлари. 1991-2018 йил ҳужжатлари йиғма жилдлари.

4.4. ЎзР ҚСХВ идоравий архиви.

1992 йилдаги № 1– 50 буйруқлари йиғма жилди, 290– варақ. 2004 йилдаги 412– сонли бауонномаси. 2001, 2002, 2012 йил ҳужжатлари йиғма жилдлари.

5. Даврий матбуот нашрлари

5.1. Хоразм ҳақиқати. 1994 йил 26 ноябрь.

5.2. Хоразм ҳақиқати. 2001йил 10 ноябрь.

5.3. Хоразм ҳақиқати. Асрга татигулик муаззам йиллар // 2001йил 1сентябрь.

5.4. Хоразм ҳақиқати. Ишлар қалай, фермерлар? Бу ҳақда

республика Вазирлар Маҳкамаси йиғилишида айтилган еди // 1993 йил 21 сентябрь.

5.5. Хоразм ҳақиқати. Маънавият ақл чироғи // 1996, 16 октябр.

5.6. Хоразм ҳақиқати, 1992 йил 7 июль.

5.7. Хоразм ҳақиқати, 1993 йил 26 май.

5.8. Хоразм ҳақиқати. 1995. 14 январь.

5.9. Хоразм ҳақиқати. 1995. 14 январь.

5.10. Хоразм ҳақиқати. Шарипов М. Оналар ва болаларга катта совға. 2001, 21 ноябрь.

5.11. Хоразм ҳақиқати. Ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. 2004, 4 феврал.

5.12. Хоразм ҳақиқати. Полвонов Р. Жамоа шартномаси — ютуқлар кафолати. 2004, 4 феврал.

5.13. Хоразм ҳақиқати. Прутян В. Тез, соз, сифатли. 2004, 3 май.

5.14. Хоразм ҳақиқати. Ўсиш: факт ва рақамларда. 2004, 4 февраль.

5.15. Хоразм ҳақиқати. Ҳакимов И. Хориждаги ҳамкасблар билан ҳамкорлик, 2004. 4 феврал.

5.16. Қишлоқ ҳақиқати. 1999 йил 13 майдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 243– сонли қарори/<https://lex.uz/docs/1559245>.// 1999 йил 14 май.

5.17. Пругер В. Хорезмская прописка «ЗИЛ»а // «Хорезмская правда», 1995, 25 январь.

5.18. Султонов Ж. Саодат соҳибалари // Ишонч. 2002. 30 январь.

5.19. Халқ сўзи. Конституция– еркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий еттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилиганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. 2017. 8 декабрь.

5.20. Искандаров Р. Промышленность шагает на село // “Хорезмская правда”, 2001, 1 авг.

5.21. Мусаев Ш. Европарламентда Орол муаммоси // Ўзбекистон овози. – 2010. – 19 окт.

5.22. Ислом Каримовнинг Оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлари раҳбарларининг кенгайтирилган таркибдаги учрашувда сўзлаган нутқи.// Халқ сўзи. – Тошкент, 2009. 30 апрель.

5.23. Халқ сўзи, 2017. 8 февраль.

5.24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи//XXI ASR, 2017 йил 1 сентябрь.

5.25. Хоразм вилояти ғаллакорларига ва барча

меҳнаткашларига//Қишлоқ ҳақиқати.1998 йил 23 июнь.

5.26. Вести Каракалпакстана. Здравоохранение: состояние и перспективы развития // 1996. 15 июня.

5.27. Зокирова Н. Ўзбекистонда кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоялаш.// Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 2001. № 7. – Б. 69– 71.

5.28. Исоқов Б., Юлдашева Ф. Ўзбекистондаги демографик жараёнлар ва миграцион вазият // Жамият ва бошқарув. – №4. – 2003. – Б.60.

5.29. Хайдаров А. Хива гилами экспортга чиқади // “Банк ахборотномаси”, 2001, № 17, апрель.

5.30. Вайсов О. Мустақиллик қилларида Хоразмда ижтимоий–иқтисодий ҳаёт // “Илм сарчашмалари”, 2002, 4–сон, 40–Б.

5.31. Ешанов Т., Ажибеков М. Физиологическое значение и механизмы стрессовой реакции при адаптации. Вестник ККО АН РУз. 2000. – №4. – С.4.

5.32. Трудовые ресурсы СРК: пути решения проблемы // Советская Каракалпакия, 1991. – С.51.

5.32. Аметов М. Пустыня и лес: кто одалеет? // Вести Каракалпакстана. 1995. 17 сентября;

5.33. Бобожонова Д. Ўзбекистонда меҳнатга лауоқатли аҳолини иш билан таъминлашнинг ижтимоий жиҳатлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1995. – №10– 12;

5.34. Курбанов Б. Леса – народное достояние, но они продолжают гореть // Вести Каракалпакстана. 1995. 5 декабря.

5.35. Одилкариев Х.,Очилов Б. Республика Узбекистан как основной субъект международно–правового сотрудничества по охране водных ресурсов Аралского моря и Приаралья // Международные отношения. – Тошкент, 2001. – №2. – С.97.

5.36. Сиддиқова Г. Давлат мустақиллиги шароитида миллатлараро муносабатларнинг ривожланиши // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2000. – №6;

5.37. Хоразм воҳаси ва унинг экологик ҳолати // Республика илмий– амалий конференцияси. ЎЗРФА Хоразм Маъмун академияси. – Хива, 2004. – 115 б.

5.38. Шермухаммедов П. Орол фожиаси – дунуо муаммоси // Халқ сўзи. 1993. 4 август;

5.39. Юсупбаев К. Қорақалпоғистонда фермер хўжаликлари ривожининг асосий йўналишлари. // Ўзбекистон Иқтисодий Ахборотномаси. –Тошкент, 2000. – № 2. – Б.2– 4.

5.40. Юсупов Р. Ўзбекистонда демография фанининг ривожи //

Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2008. – №4.

6. Монография, илмий мақола, илмий тўпламлар:

6.1. Алимов Т., Рафиқов А. Екологик хатолик сабоқлари. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 53 б.

6.2. Аминова Р. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда сotsиалистик ривожланишнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991.–48 б.

6.3. Ата - Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнатиональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Ташкент. Узбекистан, 2004. – 179 с.

6.4. Аҳмедов Е. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Тошкент. Абу Али ибн Сино, 2002. – 224 б.

6.5. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар, Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. 1– китоб. – Тошкент. Истиқлол, 2001. – 192 б.

6.6. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар (Хоразм вилояти мустақиллик йилларида), 2– китоб. – Тошкент: YANGI NASHR, 2011. – 272 б.

6.7. Бобожонова Д. Аҳоли саломатлиги ва екологик масалалар. – Тошкент. Фан, 1996. – 24 б.

6.8. Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент. Фан, 1995. – 94 б.

6.9. Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент. Фан, 1995.– 94 б.

